

MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY OLGAN KITOBLAR

Halis Karabənli

**ISHQ NING
YASHIRIN QIYOFASI**



Halis Karabenli

ISHQ NING
YASHIRIN QIYOFASI



“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Olimpos” nashriyoti bilan “Akdem Telif Haklari ve Tercüme” agentligi vositachiligidagi 2022-yil 18-yanvarda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi.

UDK: 821.514.111-02

KBK: 825.(5Turk)

K 16

Halis Karabenli. “Ishqning yashirin qiyofasi” / turk tilidan Ilhom Salimov Alisher Ravshanov tarjimasi / “Millionlab insonlar qalbidan joy olgan kitoblar” turkumi – T.: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022. – 160 b.

“Yurakni sindirish... Siz bunga ishonasizmi? Sizningcha, yurakni sindirish iborasi juda ham g’alati emasmi? Yurak sinishi mumkinmi?... Axir, bir parcha go’sht bo’lsa...

Menimcha, yurakni sindirib bo’lmaydi, do’stilar! U o’z joyiga ham sig’maydigan darajada kengayib ketadi. Ko’krak qafasi degan joy endi unga torlik qila boshlaydi. Yurakning ichida juda ko’p xonalari bor... Yurak tanaga sig’may, og’izdan chiqib ketar darajaga yetadi... Keyin esa tilidagi sevgi so’zlari bilan mazax qila boshlaydi. Oqibatda, kimdir uni tanadan oxirigacha tortib olib, oyoqlari ostiga tashlaydi.

Halis Karabenlining “Ishqning yashirin qiyofasi” asari biz yuz o’girgan, unutishga harakat qiladigan, hatto o’zimizga ham e’tirof ettira olmagan tuyg’u — ishqning yashirin qiyofasi haqida hikoya qiladi. Barham topgan sevgining ortidan keladigan riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi hayot haqida hikoya qiladi...

“Orzular ila cheklangan dunyoda yashang”. — deya yolg’on so’zlayotgan, hammamizning, ayniqsa ayollarning istagan odamini seva olishlari mumkinligi, lekin u bilan birga bo’la olmasligini anglatayotgan zamonaviy dunyoning ertagi...

Oxir-oqibat, o’zingni anglamasang, boshqalarni anglolmaysan va taqillatgan har bir eshigingda yangi jarohatlar olasan...

UDK: 821.514.111-02

KBK: 825.(5Turk)

ISBN: 978-9943-8427-3-1

› Halis Karabenli.

› “Hayy Kitap” yayinlari & “Akdem..

Telif Haklari ve Tercüme” ajansi.

› “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti

Sevgidan keyingi qadamlar ISHQ deyiladi.

“

*Fasllarning o‘zgarishini
ko‘rganimdan buyon biror kimsadan
ranjimay qo‘ydim. Har bir qishdan
so‘ng, albatta, bahor keladi. Shu bois
ham erisha olmaganlarimni boricha
qabul qildim. Erishganlarimga ham
mahkam yopishib olmayman.
Hayotga hukmingni o‘tkazolmaysan,
hamma narsa peshonada yozilganidek
bo‘ladi. Taqdirda bitilgan bo‘lsam,
yoziqgan bo‘lsa, albatta, men tomon
keladi. Yo‘qsa uning yoniga ketishimni
ham bilaman.*

Boshimdan kechirgan, ammo hech kimga aytishni xohlaman og‘riqlarim bor. Shuningdek, qoni oqishdan to‘xtamayotgan yuragimning tomirlarida tig‘ning izlari ham. Tanam oyoqlarimning uchiga qadar jarohatlarga to‘la, butun badanim og‘rimoqda. Qadam tashlar ekanman, meni yurishdan holsizlantirgan uch-qunlar kaftlarimdan tushib bormoqda. Qay bir narsaga qo‘l uzatmay, “Teginma”, — deydi takabburona bir ohangda. Hech bir eshikni taqillatmasam-da, biroq ularning bari yuzimga yopilmoqda. Vaholonki, kalitlar qo‘limda bo‘lgan taqdirda ham ichkariga aslo kirmasdim.

Qalbimda tashlab ketilgan va xarobaga aylangan bir shahar yashayotgandek go‘yo. Ehtimol, Yer yuzida odamlar tarqala boshlagan vaqtchalik ko‘hna hamda Yaratganning g‘azabiga du-chor bo‘lgandir... Ha, qandaydir quduqning qa‘ridaman. Istalgan fursatda ajralib qolmoq uchun karvonning eng oxirida yurib boryapman. Yig‘layverganidan ko‘r bo‘lib qolgan Yoqub payg‘ambarning ko‘zлari kabi vujudim nolalarga to‘la. Odatda, uzlatga chekinmoq va atrofimdagи narsalardan uzoqlashmoqni istayman... Ha, yozilgan kalomlarning qayta-qayta yozilavermasligini bilsam-da, ammo, baribir, umidsizlarcha yana sen haqingda yozmoqdaman...

I

HALOVAT

“Insonlar eshitgan narsalariga qo‘l uzatishni xohlashadi”, — deya so‘z ochar ekanman, ko‘zlarimga tikildi: go‘yo taqiqlangan bir qo‘sinqni tinglayotgandek edi. Yuzlari, qo‘llari bemajol bo‘lib qolgandek edi... Hatto quchoqlashish uchun ham ortga tisarilishga majbur edik. Ikkimiz ham bilib turardik: agar qaysi birimiz ketar bo‘lsak, boshlagan nuqtamizga qaytish uchun bizda biror bahona topilmas edi. Zero o‘sha boshlanishning o‘zi yo‘q edi-da. Men xuddiki sochlarning tagida barmoqlarini yo‘qotib qo‘yan shunchaki bir bolakaydek edim, ya’ni nima qilish kerakligini bilmayotgan edim... Ha, biz o‘rganganlarimizni xayol qilardik. Bizga ko‘rsatilganidan ham ko‘proq voqeliklarni boshdan kechirishimiz mumkin edi. Ovozimizning eshitilishini istamagancha yuragimizning har bir urishini bostirgancha yonlaridan o‘tardik. Bir muddat yashirindik, bir muddat e’tibor bermaslikka urindik. Sira orzu qilmay, bor haqiqatlar bilan yashashga harakat qildik. Bugun bo‘lmagan hech bir yer yo‘q edi, ertaning kelishidan umidvor edik. Bugunimiz xuddiki ertaning qo‘ynida uxlayotgandek tuyulardi. Uni ham uyg‘otib yubormadik. Tushuning, axir, uyqudagilarni uyg‘otishni xohlamas edik... Zero ular uyg‘onishsa, bizning o‘lishimiz tayin edi.

“Jin ursin, — deya gap boshladi bir kuni, so‘ng davom etdi. — Ayta olasizmi, azob o‘zi nima? Yoki haqiqiy baxt nima? Biz

baxtlimiz deya o'ylayotgan ushbu hayotimiz soxta bo'lsa-chi? Yoki biz ham boshqalar singari soxta bir "baxt"ning azobini boshimizdan o'tkazar bo'lsak, bir-birimizdan nafratlanib keta-mizmi? Ishoning: qo'rqib ketyapman. Atrofdagilardan shu qadar uzoqlashib ketdikki, oxir-oqibat, o'zimizni yo'qotib qo'ymoq-likdan tashvishdaman. Bunchalar chuqur kirishib ketishimiz qanchalar to'g'ri? Yanada chuqurroq kirib borsak, bo'g'ilib qolmaymizmi?"

"O'zing ko'rmagan haqiqat boshingdan o'tkazishni istagan haqiqatingdir", — deya javob berdim. Bular imkonsiz narsalar emasdi... Ha, o'zimizni azobga otishimiz mumkin... Ammo o'z tasavvuringda chizgan surating haqiqatdir. Sen haqiqiy bir baxtni o'z hayotingda kechirmaganmidingga, baxtning haqiqiyligidan shubhaga borsang? Unutma: modomiki, kun kelib biror azobga duchor bo'lsak, bu, aniqki, ikkimizning ham shunga loyiqligi-mizdan bo'lur... Biroq aslo boshqalardek bo'lmaymiz! Bo'g'zimizga qadar botarmiz. Ko'plab haqiqatlarni boshdan kechirganimiz uchun pushaymon bo'ladigan vaqtlarimiz ham kelar. Ehti-mol, "Koshki, avval sira ham uchrashmaganimizda edi", — deyishimiz ham mumkin. O'shanda o'zimizdan boshqa hammani tashqariga qanday chiqarib qo'yan bo'lsak, endi ularning barini ichkariga shunday taklif qilarmiz. "Holimizga qarang!" — deya hayqirarmiz. Sen shaharning bir tomonida, men esa boshqa to-monida turgancha qiziquvchan olomonni mehmon qilarmiz. Ha, ular vujudimizdagи jarohatlarga hayrat bilan boqishar, bir bora bo'lsa ham ushlab ko'rishni istashar va, haqiqatan ham, qon hidi-ni olishar.

Qolaversa, ikkimiz ham boshqalar singari so'zlarni qalash-tirib tashlamadik: shunchaki sukutga cho'mdik... Ko'rmagan narsalarining bari mavhumdir. Ayni damda senga yuzlanib:

“Sevgi bir vujuddir”, — desam, so‘zlarimni eng to‘g‘ri tushungan ham o‘zing bo‘lasan. Unutma: menga: “Inson sevganiga qo‘l uzatishi kerak”, — degan ham o‘zing eding... Ha, menga ushbu jasoratni bergan o‘zingsan. O‘zing yaxshi bilasan, izn bermasang va badaningdan o‘sha tikanli to‘siqlarni olib tashlamaganingda ularni oshib o‘tishim amrimahol edi. Biroq, baribir, seni sevardim! Ammo hech bir pushaymonliklarsiz bir-birimizga qo‘l uzatganimizni ikkимiz ham ko‘rdik va bularni boshimizdan o‘tkazdik. Ha, qo‘llaringdan ushlar ekanman, o‘zim olis-olislarda ko‘rgan bir yorug‘likning kaftlarimda turganini angladim... Sendan bo‘sа organimda esa lablarimning borligini kashf etdim.

Yonimda bo‘lmagan vaqtlarining qoldirgan izlaringning ustidan takror-takror o‘tdim. Ko‘zguga boqqancha: “Men o‘shaman”, — deya aya oldim. Barmoqlarimni lablarimda kezdirdim, go‘yo senga qo‘l uzatdim va ko‘zimdan yoshlар oqizdim. Ha, sog‘inchim bedor tunlarimdagи yagona yupanchim bo‘ldi...

Qattiq sog‘inyapman... Sensizlikda o‘tayotgan har bir onimda seni telbalarcha sog‘inyapman.. Qalbim o‘rtanmoqda... Aminmanki, sen ham shunday eding va haligacha shundaysan. Sen ham so‘zlarimisan? Oxiri nima bilan tugashi shunchalar muhimmi? Ayni damda sen bilan go‘yo umuman gaplashmagandek suhbatlashmoqdamiz va meni qo‘rqtigan narsa ham aslida — shu. Sendan ayro yashamoq emas. O‘z chegaralarimizni ochmoqdamiz! Tag‘in sukut saqlaymi, istaysanmi shuni?! Yoki, kel, bundan so‘ng yanada ko‘prog‘ini boshdan kechirishga kirishaylik. Bilganlarimizni sinamoqlikdan qo‘rqmaylik. Masalan, sen men tomon siringni o‘gira olasanmi? Ya’ni quchoqlashganimizdan-da ortiq bir alfovda mendan yuz o‘gira olasanmi? “Man shu mening fojiamdir”, — deya olasanmi? Xo‘s... Ayt-chi, men sening fojiangdan xabardormanmi? Yoki sen menikini bilasan-

mi?

Kim nima desa deyaversin, rejalahtirilgan har bir narsa qarshisida ikkimiz ham beayb edik. Ha, insonlar buning nomini *taqdir* deya nomlab o'tishni juda yaxshi eplashadi. Hayronman: o'zlariga bu qadar qanday ishonch hosil qilishlari mumkin? Aytaylik, *hali amalgga oshirilmagan biror gunoh ish sof holatida bir yerda tursa, uni savobdan ajrata olasanmi?* Men buni ma'sumiyat (aybsizlik) deyman. Zotan ikkimiz ham odamlarning ni'mani o'ylaganiga e'tibor qaratiladigan ushbu dunyoda yashay olmasdik...

Ba'zan o'z-o'zimni ham sog'inaman va hamon qo'msayman. Axir, boshdan kechirganlarimiz, haqiqatan ham, go'zal edi-da... Har bir narsaga arziydi, tushuntira olyapman-a? Xo'sh, sen ayni shu lahzalarda menga halovatni tushuntirib bera olasanmi? Kel, yaxshisi, halovat deganda xayolimga kelganchi senga aytib bera qolay. "*Quchoqlashish*", — deyman... Doim shuni aytardim-a, hozir ham shunday deyman. "*Birgalikda baham ko'rmoq*", — deyman... Bir nonni baham ko'rmoq va ayni bir idishdan suv ichmoq... "*Dudoqlaring atrofida ovqat yopishib qolibdi*", — deya kula olmoq... So'ng shu dudoqlaringni tishlaring orasiga olmoq... To'xtamay gaplashmoq va ba'zan tushungancha sukutda qolmoq... Uxlamoq, so'ng esa bir yotoqda uyg'onmoq... Halovat, balki, biroz *yig'latmoq*, balki, biroz *yig'lamoqdir*. "*Qayerlarda yuribsan? Kech qolding, xavotir oldim*", — deya olmoq. Yoki "*Telefonimning quvvati tugadi*", — deya yolg'on gapirmoqdir... Biroz sog'intirish ham halovatdir... Axir, me'yordan salgina ortiq sog'inmoq ham halovat... Ishonish, ko'rona qattiq ishonish — halovatdir. G'amxo'rlik ko'rish va g'amxo'rlik ko'rsatish — halovatdir... Halovat har onni birga o'tkazishdir. Bo'ynimga sharfni o'z qo'llaring bilan bog'lashing

ham halovat. “Tugmalaringizni o‘tkazing, shamollamang, aytib qo‘yay: kasal bo‘lsangiz, qaramayman”, — deyishing, ammo tonggacha tepamda o‘tirib chiqishing ham halovatdir. Arazlagancha, biroq o‘zgacha mehr bilan: “Sizga aytmaganmidim?” — deya eng kichik o‘zgarishni ham ko‘ra olishing halovatimdir. “Sizni sevaman”, — degan so‘zlarni aytmay, lekin sevgisini noodatiy biror shaklda anglatish ham halovatdir.. Bag‘riga bosh qo‘ygancha uxlamoqlik ham halovatdir.

Fasllar o‘rnini biroz almashtirmoq... Qanday tushuntirsam ekan-a, aytaylik, qishning eng sovuq kunida terlash yoki eng uzun tunni kutish — halovatdir... Muzda sirpanib yiqilish, “Qo‘limdan har doim ham tutmang, siz ham ustimga yiqilasiz”, — deya olishing ham bir halovatdir... O‘zingni tutolmasliging halovat... Barini boshdan kechirmoq, go‘dak singari ranjish va ba’zida “Hammasi yaxshi emas”, — deya ayta olmoq... Divan atrofiga uloqtirgan paypoqlarim uchun janjal ko‘tarishing ham halovat... Sen uchun nonushta tayyorlar ekanman, oshxonani ag‘-dar-to‘ntar qila olishim halovatdir. So‘ng esa kuchli bo‘la olmaslikning o‘zi ham halovat... Boshingni yaqinlaridan ayrilgan bir boladek ko‘ksimga qo‘yishing, qo‘llarimni ushlagancha xotirjam bo‘lishing halovat.

II

O'RINDIQ

“Qayerdan boshlashni bilmayapman”, — deya o‘z-o‘ziga pi-chirlayotganga o‘xshar va atrofda sodir bo‘layotgan voqealar ning hech birini ko‘rmayotgan edi. Uni bir soatdan ortiq vaqt davomida kuzatib turdim. Ehtimol, nimanidir (yoki kimnidir) yo‘qotganiga ko‘p bo‘limgan va buning alami hali ham bosilma-gandi. Biroq hozircha so‘lg‘in bir holda ham emasdi. Yonoqlarining odatdagidan ko‘ra qizarib turishi, ehtimol, biroz ichkilik ta’siridan edi. Oyoqlarini istar-istamas silkitar, o‘tirgan o‘rindig‘ining uchdan bir qisminigina band qilgan edi, xolos. Shunday bo‘lgani uchun ham: “Mana, hozir turib ketadi”, — deb o‘ylar, lekin keyin yana biroz ortga chekinganiga guvoh bo‘lardim. Bu holat bir necha bor takrorlandi. O‘tirgan joyidan qayta-qayta turishni yoki kimningdir ortidan yugurib borishni xohlayotgan edi... “Aslida, g‘amga cho‘mgan ayollar yanada go‘zalroq ko‘rinishadi”, — deb o‘ylab qoldim. Unga bu qadar e’tibor bilan qarat qolganimning sababi ham, ehtimol, shu edi. Lablarining titrashi, qo‘llarini qayerga qo‘yishni bilmasligi, telefoniga qayta-qayta ko‘z yogurtirib, so‘ng yana sumkasiga solib qo‘yishi, oldidagi qadahdan boshqa narsaga qaramasligi — bularning bari qandaydir ayriliqqa duchor bo‘lganidan guvohlik berib turardi. O‘zi bilmagan holda onasi xiyobonda unutib qoldirgan, “Ota...” — degancha yig‘lagan, sarosima ichida qolgan qizaloq rolini

o‘ynayotgandek edi go‘yo. Uning bu ahvolini kuzatib turish, go‘yoki stol ustida tashlab ketilgan qaytim pullarga o‘xshash bir holini ko‘rish qalbimga ozor bermaganligini aslo ayta olmayman. Uning kechinmalarini juda yaxshi tushunib turardim. Ba‘zida hayotdagi rollar ham almashib turadi. O‘zingni ishlatib bo‘lingan buyum kabi bir chetda qolib ketganday his qilasan. Yoki boya aytganimdek, qadring qaytim pullarichalik bo‘lmaydi... Ofitsiant hatto kassaga tashlashni ham lozim topmagan, ahamiyatsiz va qiyomatsiz bir chaqaga aylanasan. Bularni boshidan o‘tkazmagan qaydan ham bilardi?

Ikki yilcha avval edi... Insonlar garchi, chindan ham, boshlaridan o‘tkazmagan bo‘lishsa-da, lekin qayg‘uli xotiralarini aytib berish uchun sentyabrdan so‘z ochishadi. Go‘yoki hamma yomonliklarga sentyabr aybdordek... Ajabo, sentyabrning bular haqida umuman xabari yo‘q. Uning barchaga teggan eng katta yomonligi umrini yashab bo‘lgan yaproqlarning to‘kilishiga yordam bergani, xolos. Go‘yo jon oluvchi farishta kabi... Axir, vaqtisi yetganning vazifasini nihoyalab, oradan ketishini va yangi bir hayot boshlanajagini ta‘minlaydi, bor-yo‘g‘i — shu...

Aynan shunday damlar edi... Qolaversa, men, aslida, sentyabrning may oyidan boshlanishiga ishonaman. Ehtimol, undan ham avvalgi oydan boshlanar... Zotan, nimalardir tugay boshlashi ko‘zga tashlanavergach, eng go‘zal onlarni-da ko‘rmay qolar ekansan. Bahorning tashrifini, kunlarning isigani-yu tabiatning yangilanganini sezmaydigan darajada g‘am-anduhga botib qolar ekansan... Boshingdan kechirayotganlaringni to‘liqligicha anglamay turib boshingga keladiganlarni sezsa boshlaysan...

Ayrim go‘shalar, ayrim qo‘schiqlar va ba’zi ko‘chalargina bor, xolos. Aynan o‘sha go‘shaning ayni o‘sha o‘rindig‘i, aynan bir qo‘schiqchining aynan o‘sha bitta qo‘shig‘i va aynan o‘sha

shaharning o'sha bitta ko'chasi... Zamonlar osha aynan shular-gina hayotingning bir parchasi o'laroq bot-bot takrorlanaveradi. Endi bularning barchasi sizni. Ha, ha, siz va siz sevgan yoringizni. Biror kimsadan so'ramay, hatto: "*Avvallari bularning egalari bormidi?*" — deb o'ylab ham o'tirmasdan egalik qilaversiz. Bularning barchasini boshdan kechirgan munosabatlar sohibi va birga o'tkazgan yillarimizning bergen ishonchi ila kun charchog'ini chiqarish uchun yana aynan o'sha joyga bor-gandik. Ha, albatta, ayrim narsalarning endilikda oldingidek hajajon bera olmasligini ikkimiz ham bilardik. Biroq bularni aytish uchun esa go'yoki ikkimizdan birimiz qayerdandir so'z ochishi-miz kerak edi. Ammo jasorat o'ziga bo'lgan ishonchdan-da ko'prog'ini talab qiladi. Shu bois biroz vijdonsizlik ham zarur-ligini aysam, o'ylaymanki, hech kimga nohaqliq qilmagan bo'laman. Ko'zdan qochirgan nuqtamiz esa ketishga qaror qilgan tomonning qalbi qattiq toshga aylanib qolishi edi.... Ehtimol, hozir oralaringizdan kimdir: "Men ketdim. Xo'sh, mening qalbim toshga aylandimi?" — deb mendan ranjir. Ha, tark etuv-chilarni tushunaman. Ehtimol, o'zi uchun to'g'ri deb bilgan ishni qilish uchun, ya'ni ortda qolganning kamroq azoblanishi uchun biroz fahmlamog'i va jasorat niqobini taqmog'i kerakdir. Kim bilsin, balki, ketishga qaror qilgan ham keyinchalik biror ovloq yerga o'tib, goh-gohida unsizgina yig'lab olar.

Ha, bular mening shunchaki tasavvurlarim. Har holda, shundayligiga umid qilaman. Mening "*ketganim*"da ham o'shanday hodisalar yuz bergan bo'lsa kerak. Aks holda, meni tark etgani uchun uni juda ko'p ayblashim mumkin edi. Ayni damda esa uzr-li sabablar tufayli uni kechirganimni o'ylagancha o'zimni ovutaman. Axir, o'ylab ko'ring: bir-birining dudoqlaridan bo'sa olgan insonlar qanday qilib bir xil ta'mlarni his etolmaydilar? Tizza-

laringga boshini qo'yib uxlatganing yoki seni tizzalariga uxlatgan odamning qanday qilib biroz bo'lsa ham joni achimaydi.

Ha, ayni lahzalarda bularni o'ylashning fursati emas. Men biroz oldinroq so'z ochganim — o'sha o'rindiqdagi ayol bor va uning yoniga borishim uchun ilgari boshimdan kechirganlarimni aytishga shoshilyapman, xolos. Negaki ayol o'tirgan o'rindiq menga begona emas va unda mening ham og'riqlarim bor. O'zi sezmasa-da, birozdan so'ng, balki, o'n ikkinchi qadahidan keyin o'sha yerda yiqilib qolishi va uni uyiga olib boradigan biror kim-saning topilmasligi ayon edi. Ehtimol, kimdir taksi chaqirar hamda taksingin eshigini ochgancha ayolni ichkariga uloqtirib: "Bu senga omonat", — deya haydovchiga ishshayib qarar.

Haydovchi ham sarxushlamning tilini bilgani uchun ayolning og'zidan uyining manzilini olishga urinar. Qizig'i shuki, bularning bari tongga yaqin sodir bo'ladi. Qisqa yo'llarning qaysi birlidan yurishining ahamiyati bo'lмаган haydovchi: "Yetarli puling bormi?" — deya so'roqqa tutar. Eh, hali o'sha la'nati uygaga yetib borilganda eshikni ochish ham bir muammo bo'lishi aniq. Har doim osonlikcha ishlatib yurgan kaliting nima qilsang ham, go'yo senga qasdlashgancha bu safar go'yoki eshikni ochmoq-dan bosh tortadi. Bu, balki, biroz anqovlik, balki, qandaydir qo'r-quvni ichiga olgan bir vaziyatdir. Zotan oldinlari o'zingiz kirib yurgan eshicingiz ortida sizni nimalar kutayotganini bilmaslik insonni o'ldirish uchun yetarlidir. Ehtimol, bu haqda keyinroq yana gaplasharmiz, ammo hozircha avvalgi joyimizga qaytaylik.

Ba'zi vaqtlarda "Nega? — deya o'z-o'zimga savol beraman. — Nega keragidan-da ortiq mehr berilgan munosabatlar bir lahzadayoq tugaydi?" Yoki, haqiqatan ham, bir zumda tugaydimi? Bir-birimizdan kutgan va ilk lahzalardan beri yashirgan narsamiz nima? Xo'sh, ayollar ko'zi bilan qaraganda xato ko'r-

gan narsaning o‘zi nima? E’tiborsizlikmi?

Qo‘ysangiz-chi... Bu so‘zni eshitsam, kulgim qistaydi. Ayollar erkaklarni ko‘pincha to‘nkaga o‘xshatishadi-a? Bir-birlari bilan suhbat qurishganlarida erlari bilan bog‘liq sirlarigacha aytishib: “Mening to‘nkam shunday, sening to‘nkang qanaqa?” — deyishdan ham tap tortishmaydi. Nohaqmanmi? Ehtimol, barchangiz shunday demasangiz-da, ammo ayrimlaringizning shundan so‘z ochishi aniq. Hayratga tushmay ilojim yo‘q...

Erkaklarning nazdida, ayol o‘ziga tegishli insonidan mo‘jizaviy narsalar kutmasligi lozim. O‘z hayotida borligingizni ajib bir kichik jihatlar bilan ham anglata olishga urinishadi. Masalan, hojatxona eshigini ochar, paypoqlaridan bir hafta kiyilganini emas, kiyilganiga uch kun bo‘lganini tanlar. Ko‘ngilochar o‘yinlar yoki futbol o‘yinidan so‘ng unikiga borarsizlar. Xafa bo‘lmang: sochingizdagи oqlar sizga kamlik qilmoqdam!

Mayli, bu to‘nkalikdir. Inkor etmayman, me’yordan ortiq ahmoqlikdir. Ammo vujudimizdagи o‘sha ajib haroratni yo‘qotmagunimizcha ayrim narsalarning qadrini anglab yetmaymiz.

Qarang, nima qilib qo‘ydim-a, Alloh jazomni bersin! To‘nka, e uzr, erkak o‘quvchilarimdan quloqlarimga yomon so‘zlar yog‘ila boshladi. Quloqlarim osti qattiq jaranglamoqda.

Yo‘q, bu jaranglashdan ham battar. Meni so‘kmasangiz-chi, yaramaslar.

Tinchlaning! Bu yerdagi *yaramas* so‘zini noto‘g‘ri tushunmang. Men anqaralikman. Anqarada esa yaqin do‘stilarimizni “*yaramas*” deb chaqiramiz. Ishonamanki, bu izohlarimdan so‘ng tepamdagи qora bulutlar biroz bo‘lsa-da tarqalar... Do‘stilarim, axir, ozgina tanqo kunga nam zarar berardi? Alloh haqqi, unday qilmanglar, ho‘vingizdan tashish!

Bir gal erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tarqil jinatiardan, uiar-

AHMAD FARSI

ning hayotdan kutayotganlari haqida gapirar ekanman, ayni shu narsalar haqida so‘zlagan edim va do‘stilarimning olqishiga sazovor bo‘lgandim. Albatta, bu do‘stilarim davrasida bo‘lgan edi... Axir, xalqaro yig‘inlarda nutq so‘zlaydigan ahvolim yo‘q-ku!

“Ayrim kishilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch keragidan ortiq darajada. Sevib qolmayman, ko‘pam o‘ylayvermayman, unutish kerak bo‘lganni unutib yuboraman, ayol kishi oldida tiz cho‘k-mayman, hayotda sevgidan ko‘ra muhimroq narsalar bor: ochlik sabab qanchadan qancha insonlar halok bo‘lmoqda... Aslo, ki-chik janob! Bu ayollar bor-ku, eh, bu ayollar seni qorinlarida qanday ko‘tarib yurgan bo‘lsalar, xuddi shunday oyoqlarining ostiga olishni ham yaxshi biladilar. Ochlik haqida gapiradigan bo‘lsang, faqatgina oshqozoning ovozigagina qulq soladiganlardan bo‘lma. Zero ochlik har bir narsada bo‘lishi mumkin. Qadri baland bir bo‘sanning badalini hech narsa bilan to‘lay olmaysan. Ochig‘i, shunday kun keladiki, cho‘ntagingda olib yurgan pulingning sirtida kimming rasmi borligi ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Kredit kartalarining bir uyning eshigini ochishga ham yetmas. Endi qadr-laganning qadrini bilmog‘ing lozim. Ofitsiantga choy buyurtirmay, xuddi kiborlarda bo‘lganidek o‘zim rafiqam uchun choy damlab, uni tizzamga o‘tqazaman”.

Bu gaplarni aytib bo‘lgach, davradagi yigitlarning g‘azabiga uchramasdan so‘zlashda davom etgan edim.

“Meni tinglang, kichik xonim! Atrofda likillab-likillab o‘y-nayotganlarni tanlab, keyin: “Sevgilim, sevgilim”, — degancha ularning orasida aylanib yuribsiz. Sizdan nima xohlashi-yu, nimangizdan foydalanmoqchi ekaniga e’tibor ham bermayapsiz. “Seni sevaman”, — degan xushomadni tinglamoq va: “Mening ham sevgilim bor”, — deya olmoq uchun loyqa suvlarda suzmoqdasiz. Oradan ikki kun o‘tgach: “Turmushga chiqsam, erim-

ni nima uchun tark etishim kerak?” — deb o‘ylamaysiz ham. “Bokiralik (hayo) faqat jismoniy aloqa bilangina buziladi”, — deya hisoblab o‘z qalbingizga oshiq bo‘lasiz. Sanchqi deya nom bergan matohimizning taomga mutlaqo aloqasi yo‘qligini bilmaysiz. Biroz e’tiborliroq bo‘ling... Aytayotgan har bir gapingizga ehtiyyot bo‘ling va bolalikdagi orzularingizni amalga oshirishga kirishing. Qattiq gapirdim-a? Yo‘q, ayni o‘rnida gapirdim. Ba’zida ayrimlarning jig‘iga tegish uchun emas, haqiqatni ko‘rsatish uchun gapiraman”.

“Bu qandoq so‘zlashish?” — deb o‘layapsizmi? Ba’zan shunaqasi ham bo‘ladi... Haddingdan oshayotganining o‘ylab o‘tirmay so‘zlarini qatorlashtirib tashlaysan. Ha, gapni bunchalik cho‘zib yuborganim uchun ichimda o‘zimga la’natlar o‘qiyman. Siz ham bilib-bilmay meni ovora qilib o‘tiribsiz. Yoki buni atay qilyapsizmi? “O‘rindiqda bir ayol kutib qoldi”, — deyapman-ku. Xayolim ham o‘shanda, ketishim kerak. Qolaversa, sizga tafsilotlari haqida gapirmadim, shundaymi? Axir, uning qanaqa ko‘rinishda ekanligini sizga umuman aytmaganman ham.

Qoramag‘iz... O‘ylaganim hamon miyamda go‘yoki chaqmoqlar chaqayotgandek bo‘ladi. Beliga qadar tushgan sochlari borki, shu sochlaring uchlari ham men yoqtiradigan to‘lqin-simon... Agar nimqorong‘ida yanglishmagan bo‘lsam (ko‘zlarini ko‘rish uchun necha bor uringanimni va qayta-qayta yuvinish xonasiga borib kelganimni aytishim kerak), ko‘zlarini qahvargang... Oddiygina tashqi ko‘rinishga ega. Bu oddiylik shundaki, ustida mana shu yili urfda bo‘lgan ikki tomoni kesik yubka va ko‘ylak.

Tag‘in qanday tasvirlasam ekan-a... Ammo sochlari biroz tartibsiz... Ha, sochlaring ayni dam bunday tartibsizligiga sabab barmoqlarini tinmay sochlarda kezdirishidir. Go‘yoki sev-

gan yigitining qo'llari kabi goh-gohida o'z sochlariga teginib turardi. Bo'yi-bastini taxmin qilib turgan bo'lsam-da, ammo hozir bu haqda sizga aytolmayman. Qarang-a, ayolning xabari ham yo'q, men esa unga ega chiqib turibman.

O'sha o'rindiqqa o'tirgancha bir marta bo'lsa hamki mening olamimga kirdi... "O'lsam ham, qo'yvormayman..." Ha, o'lsam ham qo'yvormayman jumlesi sizga ham tanish emasmi? Kulmang, rostini aytинг... Bu jumlanı necha marta eshitgansiz? Yo'-qoling, qo'rqoqlar. O'zingizni qo'lga olgan holda necha marta tark etilganingizni aytolmaysiz-a. Ammo men qo'rqoq emasman. Hozir aytadigan gapimga ham kula ko'rmang. Men mana shu jumlanı bir martagine eshitganman. Bir marta eshitganim esa bir marta tashlab ketilganimni anglatadi. Ammo, haqiqatan ham, qat'iyatli edi.

Voy Xudoyim-ey! Mana shu qoramag'iz deganim men siz bilan gaplashib turganimda nimalar qilmoqda-ya? Menga biroz ruxsat bering, xayolim unda, tushuning, axir.

Hoy! Tag'in noto'g'ri tushunmang! Yagona xavotirim uyiga qanday ketishida...

“

Hayotimizning qotili sevganlarimizdir.

III

TELBALIK

Men yana keldim...

Sizda ham ba'zan shunday hollar bo'lib turadimi: xayolingizda yashayotgan xotiralar bormi? Siz ham aslida boshingizdan o'tkazmagan voqealarni xayolingizda yarataszizmi? Go'yoki hali hayotingizda mavjud bo'limgan bolangiz va umr yo'ldoshingiz bilan birga biror-bir ko'chada ketayotganingizda sobiq sevgilingiz qarshingizdan chiqib qolgandek bo'ladimi? Ha, do'stlar, telbalikning chegarasi yo'q! Boshimizdan kechirmanlarimizning ham chegarasi yo'q. Mana shu o'rirlarni diqqat bilan o'qing: Alloh bilguvchidir, qaysi biringiz yig'larsiz va, balki, qay biringiz mana shularni boshingizdan o'tkazgandirsiz. Ammo men bularning barini hayotimda kechirmay turib xayollarimda yaratdim. Albatta, bularni xayollarimda yaratganim esa ularni aslo boshimdan o'tkazmayman degani emas. Men ham qattiq xavotirga tushaman, tushunyapsizmi?

Uni so'nggi bor ko'rganimda go'yo oradan ming yil o'tib bo'lgandek edi. O'tgan mana shu davr ko'p narsani olib ketgandi. Har lahma telbalarcha unga tikilib turishim va tabassumimdan nishon ham qolmagandi. Vaqt qanchalar shafqatsiz-a... Xotiralar unutish uchun yetarli darajada ko'p, ammo yodga tushganda kechagidek yangi... Endi biz begonalar edik. Shunchaki o'zligimizni o'sha o'rindiqning ustida qoldirgancha turli tomonlarga

ketgan ikki ayro inson edik... Yonida bir bola bor edi: bolam bilan tengdosh bo‘lgan boshqa bir qizaloq... Qo‘llariga qaradim: chap qo‘lining uzuk taqiladigan barmog‘i bo‘sh. Avvaliga: “*Yodidan ko ‘tarilgan bo ‘lsa kerak, — deb o‘yladim, — albatta, unutgan*”. Zotan, qaysi bir ayol unutib qoldirmasa, aslo o‘scha uzukni yechmaydi. So‘ngra uning ham qo‘llarimga boqqanini sezib qoldim. “*Yashirib o‘tirishning keragi yo‘q*”, — deya o‘ylagancha uzukni sal oldinroqqa chiqardim: “*Qara, unutmadi*”, — deganday... E’tiborini tortishni istayotgandim. Ehtimol, bu biroz qasos olish harakatiga o‘xshab ketgandir. Inson umuman tushuna olmagan bir savolning ostida yillar davomida azoblansa, imkoniyat bo‘ldi deguncha unga javob izlaydi. O‘scha eski jarohat bir zumda tugab bitadi. Va aksincha, buning tuzalishi yangi ibtidolarni olib keladi. Vujudingizga ko‘mib qo‘ygan o‘scha ildizlaringiz unib chiqish uchun bir tomchi suv izlagan daraxt kabi o‘sishni istaydi. Unga nisbatan yanada shafqatsizroq bo‘lishim mumkin edi, ammo qo‘limdan keladigan eng asosiy ish qanday yuz bergenini so‘rash edi.

Aslida, qandayligidan ko‘ra qanday emasligini bilishni istaridim. Biroz gapisra, mendan qocha olmasligini bilardim. Xayolimdan shu qadar ko‘p narsa o‘tardiki... Nafrat, gina, balki, birozgina sevgi... Yo‘q desangiz ham, o‘zingizni bosishga harakat qilsangiz ham, bunga to‘sinqilik qilolmaysiz. Bir vaqtlar qattiq sevib, uyquga ketishdan oldin ahvolining qandayligi yoki tongda qanday uyg‘onganiga qiziqqan insoningiz tasodifan qarshingizdan chiqib qolsa, xohlasangiz-xohlamasangiz ham yuragingiz yonadi, g‘amgin ahvolga tushasiz. Bu xuddiki jarlikning labiga kelib raqs tushishday gap...

Sezgan bo‘lsangiz, aytmay ketgan joylarim bor. Masalan, uni rafiqam bilan tanishtirmadim. Negaki men rafiqam deya atagan

bir ayolning chehrasini xayolimda jonlantira olmadim. Ikki qizaloq haqida so‘z ochdim va ular to‘g‘risida ham ko‘p gapirmadim. Atayin qisqa bayon etishni xohlayapman. Shu bois hikoyani cho‘zib yubormaslik uchun darhol so‘nggi gapni aytmoqchiman.

“Aytildigan ko‘p narsa bor edi. Shuningdek, qochib ketiladigan narsalar ham oz emas edi. Agar jasoratimiz yetsaydi...”

“Allohim!” — deyman. Bu qanday og‘riq... Nimalar yozdim, biroq haqiqat emasmi bular? Bularni boshingizdan o‘tkazma-ganiningza chin dildan umid qilaman.

Ishonavering: ba’zida xayollarimdag‘i narsalardan qayg‘uga tushar darajada aqldan ozib qolganligimni o‘ylayman. Sal avval-roq aytganiqday bular amalga oshib qolsa-chi? O‘shanda nima qilaman?

Shunday lahzalarda kim ham o‘zgalarni kechirmaydi?

Afsuslanib qolishdan ham biroz qo‘rqaqman. Ha, takror-layman: bu telbalik... Telbalik... Telbalik!

Yaxshisi, bir lahma bo‘lsa ham qoramag‘izimga boqayin. Axir, u endi meniki bo‘ldi. Qo‘ldan chiqarishni istamayman. Ham go‘zal, ham baxtsiz... Aynan o‘zim istaganimdek... U bilan bog‘liq buyuk rejalarim bor.

Xo‘sh, endi aying-chi, jasur odammanmi? Bo‘lak-bo‘lak-larga sochilib ketgan ayolni zarar yetkazmagan holda, tag‘in bo‘-laklariga teginmay butun holga keltirgach, takror seva olaman-mi? Bir ayolni takror sevmoq va sevilishga tayyor holga keltir-moq... Agar, rostdan ham, bularni bilmasangiz, siz ham hech bo‘lmaganda men kabi telba ekansiz.

Ha, qarang, kulish navbati yana menga keldi. Ayni damda nima qilayotganimni juda yaxshi bilib turibman. Sevgini va tark etilishni boshidan kechirgan ayol, aslida, nihoyatda tetik va go‘zal bo‘ladi. Menden bunday savdoyi gaplarni topa olmaysiz.

Ochig‘ini aytganda, mendan oldin kim biladir yashagani haqida tashvishga tushayotganim yo‘q... Ahvolim ma’lum-ku! Ajabo, men necha ayolni almashtirdim-a? Haqiqiysini bir chetga qo‘-ying, nechtasi tushiga taklif qildi yoki tushlariga? Necha tun ketma-ket o‘z yotog‘imda yotmadim?

Bu qadar xudbinligim yetar-a? Nega endi yetarli bo‘lsin? Kim ham tushlarining maroqli bo‘lishini istamaydi? Bo‘ldi, bo‘l-di... Sizlar juda taqvoli odamsizlar. Hech kimga bunday ishlarni qilmadingiz, yoningizda kimlarningdir bo‘lishini istamadingiz.

Oh, xayollar... Qanchalar odobsizman-a. O‘zi, odob nima degani? Yo‘ldan o‘tgan ayollarga suqlanib qaragancha qalbing-dagini nazarga ilmaslikmi? Yoki o‘z nomusingni telbalardek qo‘-riqlab, boshqalarga buzuq deb qarashmi?

Hozir men qaysi mezonlar bilan baholayapman? Jin ursin! Boshqalar ham men tilga olgan ayolga shunday ko‘zlar bilan qarashsa-chi? Qasam ichamanki, ko‘zlarini o‘yib olaman. Men ayni damda o‘rindiqda o‘tirgan o‘sha ayolga qarab kuzatayot-ganim unga bo‘lgan *xayrixohligimdan*. Nima, uni shu holida tashlab qo‘yayinmi? Insoniylik o‘lganmi? Biroz o‘zingizga ke-ling! Meni bular uchun zinhor qoralamang. Men tamom bo‘lgan bir odamman...

Xullas, men ham har bir inson singari o‘zimni boshqalardan o‘zgacha deb hisoblayman. Nega sevgilimni ushlab qola olma-ganim haqidagi savol xayolingizga kelsa, bilingki, aslida uning o‘zi ketishni istadi. Yo‘qsa men qo‘yib yubormasdim. Yoki orti-dan bir dunyo gap aytardim: “Umuman sevmagansan”, — degan bo‘lardim. Ammo men haqiqatni qabul qildim. Uni telbalarcha sevdim. Shunchaki emas, tunim-kunim — hamma narsam uning o‘zi edi. Ushlab qola olmadim...

Do‘stlar, bilmaysizmi, ketishni istagan ayolni ortiq o‘zi ham

to‘xtata olmaydi. Agar nimalarnidir tugadi deb hisoblasa, biling-ki, rostdan ham, tugagan bo‘ladi. Mabodo hurmat yuzasidan so‘nggi bora quchoqlashga imkoningiz bo‘lsa, ana shu onlarning qadriga yeting. Afsuski, men bunday qila olmadim. Shunday qotib qolgandimki, hatto ko‘zlariga ham qaray olmadim. Yonim-dagi o‘rindiqidan turar ekan, qo‘llarining oldimdan yulduz kabi yo‘qolib qolganini ko‘rganiningizda siz ham shunday holga tushardingiz. Ochig‘i, bularni bekorga yozmayapman... Hozir sizga bir hikoya aytib beraman. Buning qanchalar haqiqat ekani kimga ham qiziq? Bular shaharning qaysidir burchagida boshimizdan kechirgan hodisalar-ku. O‘z holimga qaramay turib sizga *aql o‘rgatishga* kirishyapman-a. Xullas, asosiysi shuki, ketishni ista-ganga darhol ruxsat bermang, ushlab qolishga harakat qiling. Zero ketganidan keyin chiday olmaysiz... Chunki u ketgach, holingiz xarob bo‘ladi... Harakat qiling! Harakat qiling, iltimos. Nimani yo‘qtasiz? Ahvolimga boqing: ushlab qololmaganimni unutishga urinib, umuman notanish bir ayolni kuzatib o‘tiribman. Badalini to‘lamay turib, bir ayolning qo‘llaridan tutmoqlikni istayapman. Bu shunchaki vaqtinchalik emas, abadiy bo‘lishini istayman. O‘lib, qayta tirliganimda yonimda tirlishini istayman.

Meni tushunmayapsiz... Aytинг, bu hayot nega bunchalar murakkab? Sezganmisiz: hayotda ba’zi narsalarning qadrini bil-moq uchun o‘sha *ba’zi narsalardan* ayrilish kerak. O‘rnini al-mashtira olmaydigan qanday narsangiz bo‘lsa, yangi bo‘shliqlarni paydo qiladi. Zotan hech bir insonning o‘rni boshqa bir odam bilan to‘lmaydi.

Masalan, onangizning o‘rniga otangizni qo‘ya olmaysiz. Bolangizning o‘rniga boshqa bolani... Negaki ular sizning ha-yotingizda o‘ziga xos ravishda yashagancha o‘tib ketishadi. Og‘-riqli tomoni shuki, bularni anglash uchun o‘sha o‘q sizga kelib

tegishi kerak. Xo'sh, kim kimni o'lдirmoqda? Kim kimning peshonasidan otmoqda? Bunday qadrlamasligimiz, e'tiborsizligimizning boisi nima? Javobi o'zimizda yashiringan bo'lishi mumkinmi?

Sevgan yaqinlarimizning umuman aybi yo'qmi?

Men: "Hayotimizning qotili sevganlarimizdir", — deya olaman.

O'zi bilan yuzlashishga jasorati yetgan har bir inson: "Jin ur-sin", — deydi ba'zan o'ziga. Hech bo'limganda, shularni aytishi kerak. Yoningda bo'lganida: "Seni sevaman", — deya olmagan insonlaringga vaqtি kelib ular eshitolmaydigan darajada: "Seni sog'inyapman", — deyishga majbur bo'lsan. Ba'zan qabr toshiga, ba'zan esa fotosuratga muhrlanib jilmayib turgan chehraga... Shunday qolishi kerag-a? Har bir inson so'nggi qiyofasi bilan eslanishi kerak. Bu ahvolda qanchalik soxtasiz...

Endilikda bunday soxtalikdan qutulishni istayman. Meni yangidan dunyoga keltirishga harakat qilayotgan hayotning qor-niga tepkilab turibman. O'zimga va'da beryapman; va'da, va'da, va'da... Bu safar zabonim o'lik tug'ilmaydi.

Bu va'daning qanchalar muhimligini tushundingizmi? "Aytilmagan hech bir narsani qoldirmayman", — demoqdaman. Sevsam, sevgimni — nafratlansam, nafratimni tilimga chiqaraman.

“

*O‘zingni anglamasang, boshqalarни
anglolmaysan va taqillatgan har bir eshicingda
yangi jarohatlar olasan.*

IV (a)

O'RGANISH

Shu vaqtga qadar yozganlarimdan nimalar tushundingiz? Qog'ozlarni chiqaring, yozma ish olaman. Yo'q, yo'q, xavotirlanmang. Bunday qo'rquvni o'zimga ham, sizga ham ravo ko'rmayman. Men aqli bola bo'lsam kerak... Nima sababdanmi? Chunki ba'zi narsalarni boshdan kechirgan holdagini o'rganish mumkin. Masalan, biror yo'ldan birinchi marta o'tayotganingizda adashib qolmaslik uchun atrofingizga qarab o'zingiz uchun mo'ljallar olib borasiz... Ana shulardan saboq olasiz... Birinchi marta ovqat pishirayotganingizda, albatta, tagiga oldirgansiz. Suzishni o'rganar ekansiz, cho'kib ketish mumkinligini bo'yningizga olasiz. Uchmoqchi bo'lib bolalikda teparoq joydan o'zingizni tashlab ko'rasiz. Ha, qaysidir a'zolaringiz shikastnadi, joningiz og'riydi. Keyin yana hech narsa bo'limgandek boshqa bir kun ayni shu yo'llardan takror o'tasiz, o'tishni istaysiz, lekin bu safar, aksincha, qaniydi, adashib qolsam deb... Bu safar qo'rmasdan, oxiri qanday bo'lsa ham yashashni istaysiz. Zotan, hayot juda qisqa. Chunki boshdan o'tkazilganlar faqat o'tkazilmagan narsalar bilan tamomlanadi. Keyin yana o'sha yerda yiqilasiz. Aynan o'sha yerda tag'in joningiz og'riydi...

Xo'sh, shular meni qiziqtiradi deb o'ylaysizmi? Yashashni istayman. Yashamoq... Yashamoq... Yashamoq...

Qarang! Sizni ogohlantirishimga qaramay, meni ichki hisob-kitoblarim bilan ovora qilib turdingiz. Hozirgina e'tibor bilan qarasam, o'sha o'rindiq bo'sh. Umid qilamanki, ko'ngli aynigani uchun joyidan qo'zg'algan. Umid qilamanki, ketib qolmagan. Ayni damda men ham darhol qo'zg'alishim kerak. Avval yuvinish xonasiga, agar u yerda bo'lmasa, u holda eshik tomon chopishim zarur. Bo'ldi... Yugurishni boshladim. Ketib qolmasin, iltimos... Ehtimol, ismini bilmasman, ammo ism insonda o'rganilishi kerak bo'lgan eng oxirgi narsadir. Mening o'rindig'imda o'tirar ekan, uni yetarlicha o'rganib bo'lgandim. Boshidan nelarni kechirganini bilib olgandim.

Men bo'lmasam, uyiga qanday qilib bexavotir yetib olar ekan-a? Jin ursin! Kechikyapman. Yaxshi qoling. Men ketdim, hali boshdan o'tkazadigan ishlarim bor.

Xudo haqqi, endi biroz jim bo'ling. Buni men ham bilaman: *o'zingizga kelmay turib birortasining oldiga borolmaysiz va borgan har eshicingizda yangi jarohatlar...*

IV (b)

O'RGANISH

Tashqaridaman. Bu yerga doim kelib turishimning kun kelib foydasi tegishini o‘ylamagan ekanman. Buning uchun kimgadir minnatdorchilik bildirishim kerakmi? Menimcha, yo‘q. “Demak, inson ba’zan ba’zi narsalarni boshidan o‘tkazar ekan, o‘zi sezmasdan kelajakka tayyorgarlik ko‘radi”. Ilgari meni olib yurgan taksilar turadigan joyni bilmasam, ayni damda uni yo‘qotib qo‘ygan bo‘lardim.

Nega men ismini ham bilmagan ayolga bunchalik qayg‘ur-yapman? Ismining sizga nima ahamiyati bor? Menga nima ahamiyati bor? Oldin ham aytgandim: ism — insonda o‘rganilishi kerak bo‘lgan eng so‘nggi narsa. Yaqin do‘stilarimizning ismini bilamiz, xo‘s, nima foydasi tegyapti? Har lahza kutilmagan harakatlar qilishmayaptimi?

Men shunday emasmanmi? Siz ham ulardek emasmisiz? Va’da beraman: ismini bilsam ham, sizga aytmayman. Chunki “sizni sevaman” va “yaxshi qoling” jumlalarini eshitganimdan so‘ng barcha qarashlarim o‘zgarib ketdi. Keyin uzoq vaqt davomida bosh qotirdim. Menga: “Sizni sevaman, ammo yaxshi qoling”, — der ekan, nimani anglatmoqchi bo‘ldi?

Javobni anchadan keyin topdim. E’tibor bering: mana shuni anglatmoqchi bo‘lgan: “Men ketgandan keyin vayron bo‘lasiz, hayotingiz ostin-ustun bo‘ladi, shu sababli o‘zingizni asrang...”

Men buni qisqa qilib aytganda, sotilayotgan mahsulotning kafolat uchun foydalanish yo‘riqnomasi degan bo‘lardim. Mabod-o foydalanishda xatolikka yo‘l qo‘ysangiz, mahsulotga berilgan kafolat o‘z kuchini yo‘qotadi. Qisqasi, “u” ketganidan so‘ng kechalari uyqungiz davomli bo‘lishi, ko‘p chekmasligingiz va ichkilikdan uzoq turishingiz kerak. Yo‘qsa kunlardan birida qiziq-qancha qanday holatdaligingizni ko‘rishni istar, qarshingizga chiqar va: “Men sizga o‘zingizni asrang degan edim-ku”, — deydi.

Chindan ham, shuni eshitishni istaysizmi? Xayolingiz buncalar chalkash... Hali yozganlarimni o‘qimasingizdan sizning ichki ovozlariningizni eshitmoqdaman. Sizningcha, ayni damda juda chuqur o‘ylab yuborgan odamdek ko‘rindimmi? Yoki yomon niyatli odammanmi? Sizga bularni so‘zlar ekanman, ushbu savollarni o‘zimga ham bergenligim haqida o‘ylarmikansiz?

Risoladagidek umr kechirishni istagan odam o‘zidan jiddiy savollarni so‘ray olishi kerak. Men buni har kuni takror va takror qilaman. Biroz aqldan ozganimni aytgan edim. Qolaversa, inson juda aqli bo‘lsa, menga aytning-chi, bu hayotda qay ahvolga tushib qoladi?

Bularni so‘rayapman-u, lekin sizdan javob kutmayotganimni ham biling. Biroz oldinga o‘tib aytishim mumkinki, aslida menga javoblariningizni qizig‘i yo‘q. Xudbinligimni eslatishim shart bo‘lmasa kerag-a?

Munosabatlarni doim muammo sifatida ko‘raman. Shu sababli xayolimga ko‘pincha g‘alati so‘zlar keladi... Hozir sizga yana bir narsani aytib beray. Bir kuni o‘sha ismini aytmayotgan sevgilim (haligacha sobiq sevgilim deya olmayapman): “Menga sira ham chiroyli gaplar aytmaysiz”, — deganida unga shunday javob bergandim: “Qoshlaringning kamonligi, lablaringdag‘i ta-

bassumming, qarashlaringdagi teranlik... Jin ursin, men uchun bir muammosan..."

Sizningcha, bu unga qanday ta'sir qildi? Erkak o'quvchilardan so'ramayapman, bu gaplarni sizga aytganimda qanday ta'sir qilardi? Meni kaltaklashni istarmidingiz yoki bag'ringizga bosishnimi? Sevgi degani bir qolipga solingan bo'lishi kerakmi? Xayolingizga kelganini paq etib aytolmaysizmi?

Seni sevaman... Seni sevaman... Seni sevaman! Ana oling, ketma-ket uch marta yozdim. Kimningdir qalbini zabit eta oldimmi? Yoki siz ham bu jumlanı anchadan beri eshitmaganingizni xotirlaysizmi?

Do'stim! Bu siyqasi chiqqan, oddiy gapni eshitmasangiz nima bo'libdi? Tillarda aytilaverib jozibasini yo'qotgan, ichi chirigan... Bu so'zdan qo'lansa hid keladi. Nohaqmanmi? Kundalik hayotda eshitganlarimizni bir o'ylab ko'ring. Masalan, "Senga qurbon bo'lay..." jumlesi. Vah, vah! Tonglar otmasin-ey... "Seni sevaman" ning qadrini tushirib yuborgan yana qancha so'zlar bor. Quloqlaringiz juda zanglab ketibdi, vijdonsizlar! Kimga bo'lardi, ketganlarga aytyapman. Avval o'zingga o'rgat, so'ng esa ket.... Oh, qanchalar be'mani-ya.

Birdaniga asabim qo'zib ketdi... Mayli, sizdan so'ramadim deb hisoblang, chunki, baribir, yana o'zim javob beraman. Zero bularning barini boshdan o'tkazganman. Hayotimda otamdan biror marta kaltak yemagan holimda yuzimga tarsaki kelib tushgandi.

Xudo haqqi, yuzlarga qarang! O'z holingizga bir nazar tashlang! Kuling, kuling... Lekin unutmang: oxirida kulgan chiroyli kuladi. Bu so'zlardagi teran ma'noni anglash uchun adabiyotshunos bo'lish shart emasdir. O'ylab ko'ring: hozir bu so'zni (agar bu g'alati tuyulmasa) marhum Eynshteynga aystsam, atom-

larni parchalaydigan formulasini yanada takomillashtirish va parchalashga harakat qilmasmidi?

Ont ichamanki, shunday qilgan bo'lardi. Ha, shunday bir tarzda parchalardiki, atom tug'ilganiga pushaymon bo'lardi. Hozir xayolimga nima keldi, aytaymi?

Men qorachadan kelgan bir qizga yo'liqidim va undan *uzoq turishim* uchun kimdir sizni men tomon yubordi. Shu sababli ham meni gapga solib o'tiribsiz. Ammo bu safar meni chalg'ita olmaysiz... Siz bilan gaplashar ekanman, *undan* ham ko'zimni uzmayapman. Aniqrog'i, ko'zlarimni ololmayapman.

Ayni damda yonida tamaddixonaning ikki nafar xizmatchisi bor. Qarang-a, bu ayol ham men kabi omadsizroq ekan. Kappkatta taksi turargohida taksi yo'q... Va "u" tik oyoqda turganligini sezmayapti ham. *Unga* tegajoqlik qilib, har yeriga tegimasligi uchun ikki xizmatchini ko'z qirim bilan kuzatib turibman. Nega yonlariga bormayapman-a?

Hozir yonlariga borsam, ularga ham ikki soat dardimni dos-ton qilishimga to'g'ri keladi. Chunki meni tanishadi va qarshilaridagi ayolning sevgilim emasligini bilishadi.

"Bu ayol — mening rafiqam, ozgina tortishib qoldik, xavotir olganim uchun ortga qaytdim", — desam, kulgili ahvolga tushib qolaman. Shunday bo'lsa-da, bir do'st o'laroq ulardan menga bo'lgan ishonchlaridan foydalanmoqchi bo'ldim. Eng to'g'ri va mantiqli yo'li ham shu... Qolaversa, mening qoramag'izim ham: "Yo'q, bu odamni tanimayman", — deydigan ahvolda emas. Hatto o'ziga kelganidan so'ng qat'iyatli ohangda kecha tanishganimizni va meni *juda yoqtirib qolganini* aytSAM ham, eslol-magani uchun menga ishonishi mumkin.

Sizga xushbichim, savlatli yigit ekanimni aytganmidim? Buni nega ishonch bilan gapirganimni bilarsiz-a. Sizning ta'ri-

fingiz bilan aytganda, *o'ziga bino qo'yganlardanman*. G'a-shingiz kelmasin, rostdan ham, shundayman. Ammo hozir buning nima keragi bor? Taksi yaqinlashgach, yonlariga boraman va: "Do'stim", — deb qo'ltig'iga kiraman. Yodingizdami, "*Ayol ifori*" degan kino bo'lardi? Qahramonlaridan birining ko'zi ojiz bo'lsa ham, chiroqli raqsga tushardi. Men o'sha kinodan doim shuni anglardim: ayolning ifori shunchalar go'zal narsaki, aslida erkakning ko'zлari ochiladi-yu, lekin o'zini hamon ko'rغا soladi.

Men ham shunday qilgan bo'lardim... O'sha taft va iforni shu qadar sevdim, shu qadar sog'indimki... Avval aytganimday, o'x-shashi yo'q ayol ifori unga shunchaki tegina olish, haqiqatan, beho hissiyotdir. Aytmagan bo'lsam ham aytdi deb hisoblang va yozganlarimni darhol bir chetga qistirib qo'ying. Yoki shu satr-larning tagini chizing.

Hozirgi ahvolimga qaragancha boshqa birovni tanidimmiyo'qmi, unutishga harakat qilmoqdaman. Bilaman, buni ham aytib o'tgan edim. Ayrim narsalarni sizlarga takrorlab turaman, ammo bu, chindan ham, hech kimning xotirasiga mutlaqo bog'liq emas. Ma'lumotni qanchalik yangilasangiz, shunchalik esda qolarli bo'ladi.

Bir gal do'stim shunday degan edi: "Agar, chindan ham, uni unutishni istasang, boshqa bir ayolni sevishga harakat qilishing kerak..." Xudbinlik emasmi bu? Albatta! Hech bo'limganda, ayni damda qilayotgan xatti-harakatim shunday. Chunki qarshidagi ayolning u haqda nimalarni o'ylayotganidan xabari yo'q. Lekin, do'stim, maslahat bergenidek, uni seva olaman. Qolaversa, avvalgidek telbalarcha sevishim mumkin. Sevishni boshladim ham... O'sha o'rindiqqa o'tirmasligi kerak edi...

“

*Ba’zi ayollar qahvaning oxirgi ho‘plamiga
o‘xshaydi. Oxirida og‘zingizda achchiq ta’m
qoldirsa ham, aslo voz kechib bo‘lmaydi...*

Seving shunday ayollarni ...

Qahvaning oxirgi ho‘plamini seving...

V

TAKSI

Nihoyat, kutgan taksimiz ham keldi. Endi kichik o‘yinimizni o‘ynash navbatı menga yetgandi... Shuncha rejalashtirganimdan so‘ng biror narsaning o‘xshamay qolishini istamayman. Mana ko‘rasiz, ularga gapirishga imkon ham qoldirmay taksining orqa o‘rindig‘idagi joyimni egallayman. Buning uchun kutilmagan tezkor bir harakat yetarli, mana bunday... *Ahmoqlar! Shundoq ham unga yetarlicha teginishdi!* “Do‘stlar! Salom... Men xonimni taniyman. Yaxshiyamki, yordam beribsiz, katta rahmat... Uyi-ga o‘zim tashlab qo‘yaman... Tasodifan ko‘rib qolmasam, kim bilsin, qanday yetib olardi... Yaxshi qolinglar...”

Nima qilganimni sezdingiz deb o‘ylayman. Ikki xizmatchiga tegishli hech narsadan so‘z ochmadim, gapirishga imkon ham bermadim. Nafas olmagancha o‘qdek otildim. Xuddi arslonlar-ning qo‘lidan o‘ljasini olgan tulkinining aqli va jasorati ila qo‘llari-ning orasiga suqildim. Sizga aytmagandim, ular juda bahaybat deb... Lekin sira ham qo‘rqmadim, negaki meni tanishlaridan siz ham xabardorsiz.

Qolaversa, sizga nimani nega kutganimni ham aytgandim. Hech kimga ortiqcha hisob bermaslik uchun shunchaki qulay vaqtini kutgandim, xolos...

Osmoṇ asta-sekin yorishib bormoqda va, ishonasizmi, ayni shu lahzalarda orqa o‘rindiqda yonimda bir farishta bor. “Farish-

tam”, — der edim. Kimga bo‘lardi, *Unga-da...* Sevgan ayolimni hech ismi bilan chaqirmas, doim farishtam derdim. *U ketganidan so‘ng ba‘zi-ba’zida ichimda quyidagilarni pichirlab turardim:*

“Farishtam, farishtam, farishtam... Sen itoat etishdan bezigan va gunohning mazasiga qiziqqan bir farishta eding. Vaqtি kelganda menga qarab kulding. Vaqtি kelganda meni o‘pding va zerikding, keyin esa ketding”.

Ichki ovozlarimni to‘plasa, qanday chiroyli majoz chiqishiga qarang: “Sen itoat qilishdan bezigan, gunohning mazasiga qiziqqan farishta eding... Biroz zerikding va ketding”.

Xafa emasman... Xafa emasman... Xafa emasman...

Qiziqyapsizmi? “Sen ayolning uyini bilmaysan-ku, qanday qilib olib borasan? Hozir haydovchi manzilni so‘rasa, nima qila-san?” — deb o‘layapsizmi?

Ojiz tomonimni izlashga urinmang. Zotan bir dunyo ojizligim borligini bilaman, hech bo‘lmasa, bundan-da ko‘prog‘ini izlashga harakat qilmang. Bu so‘zlarim bilan ehtimoliy tanqidlarning oldini olishga harakat qilyapman va umid qilamanki, buni ham uddalayman. Axir, bizdan avvalgilar: “*Demokratik davlat-larda har doim bir chorasi topiladi*”, — deb bejizga aytishmagan, do‘sitarim.

Qarang-a, kayfiyatim yaxshilanganidan keyin darrov sizlarga do‘sitarim deb gapiryapman. G‘alati tunning g‘alati tongini ham birga kutmoqdamiz. Sizlarning ham ismingizni bilmayman. Qolaversa, bu yerda qay biringizning ismingizni aytib chaqirardim ham? Yoki qo‘lingizdagи kitob ism bilan to‘la bo‘ladi va siz: “*Shunga pul to‘ladikmi?*” — deb og‘zingizga kelganini aytasiz. Sizning o‘rningizda men bo‘lsam ham xuddi shunday qilardim. Hozirdan aytib qo‘yay: bir kun orangizdan kimdir kitob yozishga qaror qilsa va kitobning sahifalarini behuda ismlar bilan to‘ldirsa,

o‘zidan ko‘rsin. Og‘zimga urmang! Tanimagan ismlarimga ma’-no yuklashdan charchaganman. Hamma menga fe’l-atvoridan ga-pirsin.

Aniqrog‘i, fe’l-atvor deganda shaxsiyatizingizni nazarda tut-moqdaman.

Ha, umringiz uzoq bo‘lsin! Yana nimaga birdan gapni bo‘ldimmi? Radioda yangrayotgan qo‘sinqqa qaramaysizmi? Yalin degan qo‘sinqchimiz kuylamoqda:

“His hamon o’shanday, yo ‘l hamon ayromi?

Kuch hamon undami?

Xayolingmi yoki ishqingmi?

Balki, qobig ‘ingdan qochib chiqarsan,

Kutarsan u yerda, ishq bo ‘lsa, sevasan kutishni...¹”

To‘g‘ri kelib qolganiga qarang...

“Yo ‘q, men sensiz yashay olmayman...”

Qo‘sinqqa jo‘r bo‘lishni juda istayapman. Menga tan ber-sangiz-chi. Boshi allaqchon ko‘ksimga tushdi va hatto haydov-chiga uyimning manzilini ham berdim... Mana bu zukkoligim-ning natijasi! Uni hushiga keltirishga urinib, manzilini aniqlash o‘rniga o‘z uyimga olib borishni ancha oldin — taksini kutayot-ganimda o‘ylab qo‘ygandim.

Albatta, uyga olib borganimda ayrim muammolar bilan to‘q-nashaman. Masalan, uyqudagisi malikani taksidan tushirish oson bo‘lmaydi. Yurishini istasam ham yurolmaydi. Sizga yana bir kichik ma’lumot: oyoq kiyimining rangi qizil va uzun poshnali.

¹ Huseyn Yalining “Faqat sen yetishmayapsan” qo‘ishig‘idan parcha.

Buning nimasini oyoq kiyim deysizlar, o'lay agar, tushunmayman. Menimcha, bularni kiya olganlarga tan berish kerak. Hatto ularga mohir haydovchi degan guvohnomani ham berish kerak.

Nima? Yo'q, hazil qilmayapman, rostdan ham shunday deb hisoblayman. O'zimni bir lahzaga ularning o'miga qo'yib ko'r-ganimda bunga qanchalik mahorat kerakligini anglashim ham qiyin emas. Kimlardir: "Ayollarga mashina haydashni taqiqlash kerak", — deyishadi-ku, qanaqa taqiqlash, men gaz va tormozning qanday qilib bir vaqtida bosishlarini o'rganish kerak deb o'ylayman. Bu jiddiy mahorat talab qiladi.

Ko'rib turganingizdek, mavzuni boshqa tomonga burishga uquvim yo'q... Aslida bu yo'l bilan o'zimning ishimni qiyinlashtirmoqdaman. Ortga qarash, nima yozganimni o'qish juda zerikarli. Ammo bu safar qaramayman. Menimcha, taksidan tushirib, uni qanday yurg'izish haqida gapirayotgandim. Ha, shu yerga kelgandim. Tabiiyki, buni ham hisobga olib qo'ygandim. Taksidan tushirishdan oldin oyoq kiyimlarini yechaman, so'ng sumkasini ayollardek bo'yninga osib olaman, o'zini esa quchog'imga olaman. Unaqa og'ir emas. Axir, necha yillardan beri sport mashg'ulotlariga qatnayotganimning bir foydasi tegsin. Murabbiylar: "Bu *mushaklaring* chiqmabdi, u *mushaklaring* uchun yana ishlapping kerak", — degach, ulardan ham jahlim chiqardi. Har holda, ayolni ko'tarishga kuchim yetadi deb o'yayman.

Xudo haqqi, shu beo'xshov kulishlaringizni bas qilinglar. Ko'tarish quvvatim deganda xayolingiz chalg'imasin, tilning ko'p ma'noliligidan foydalanishga urinmang, iltimos. Qorama-g'izim ham o'zgacha qomatga ega: beli juda ingichka va belidan pasti va yuqorisi badanidan bir xil shaklda chiqib turibdi...

Obbo, bayon shaklimda ham noto'g'ri so'zlarni ishlatmay,

ham xayolingizda savol qolmasin, ham *u haqida* ortiqcha ma'lumotlar aytmay deb qanday ta'riflashni bilmay qoldim. Ko'rganeshitgan o'zini geografiya darsida deb o'laydi. Hazil o'z yo'liga-yu, sizga matematikadan, adabiyotdan, atomning parchalani-shidan va geografiyadan gapirdim. Darsliklarga o'xshab qoldimi? Hatto shular ham o'zim istamagan holda qanday go'zal qomatga egaligini aytib yuborishdan qaytarolmadi. Qo'l va oyoq bilaklarini ko'rsangiz edi, qanchalar nozik... Xuddi tegsang, sinib ketadiganday... Xuddi qattiq shamol essa, uchirib yuboradigan-day... Nimalar deb qo'ydim-a? Tinchlaning! Yozganlarimga qaramang... Uzog'i o'n daqiqada uyimizga boramiz va reja qilgan hamma ishimni asta-sekin uddalagan bo'lamiz. Hozircha o'qib turganingizday hammasi o'z yo'lida ketmoqda. Xayolimdan o'tmayapti deyolmayman, tong saharda politsiya tekshiruvi bo'ladi-mi? Hujjatlarni tekshirishadimi? Sarxush ayolni qanday tushuntiraman? Haligi tamaddixona xizmatchilari bilan bo'lganday oson qutula olamanmi — bilmayman.

Shunaqa odamman. Bir qadam bosishdan avval ancha uzoqlarni o'ylashni o'rgandim. Bilaman: bunday hisob-kitobli yashash, hammasini o'layverish va ba'zi narsalarni oqimga qo'yib bermaslik to'g'ri emas. Ba'zida o'z hayotimni murakkablash-tirayotganimni tushunaman. Ammo nima qilay, inson shunday yarim yo'lida tashlab ketiladimi?

“Ketdim” degan bir insonim har tong qanday qilib meni o'pichlarga ko'mib uyg'otadi? Ketmayotgani tushunarsiz. Haligacha qo'yib yuborolmadim. Bu holimdan battarrog'i shizofreniya bilan bog'liq kasallik ekanligini bilaman.

Mayli-da, sizdan yashiradigan deyarli hech narsam qolmadi. To'g'risi, men haqimda bilishingiz kerak bo'lgan ko'p narsalarni shart-shart aytib tashladim. Mavridi kelganda men haqimda yana

ko‘p narsani bilib olarsiz. Bulardan biri nima, aytaymi? Xalq tili-da *jinnilar doktori* deyiladigan psixolog bilan bog‘liq uchrashuv-larni sira kanda qilmadim va u bilan do‘stona munosabatga kirishgandim. Avvaliga ikki-uch kunda bir bor shifokorimning eshigini taqillatib turardim. Keyinchalik haftada bir, so‘ngra esa oyda bir boradigan bo‘ldim. Ishoning: shuning o‘zi ham men uchun katta muvaffaqiyat. Bilasizmi, bu qora sochli ayolning halokat, tashvish girdobida ekanini yaqqol ko‘rib turganimni boshida aytib o‘tgandim. Endi meni tushunyapsizmi? Bu seanslarning tinchlantiruvchi xususiyati alohida masala, shu bilan birga, ayni paytda insonlarning yuzlarini, yuz ifodalarini o‘qish mahoratini ham o‘zingizda shakllantirib qo‘yasiz. Men o‘ta hissiyotchan odamman. Har doim shunday bo‘lganman. Shunchaki tuyg‘ularimni tashqarida namoyon qilishga qiynalaman. *U* yonimda ekan, o‘tirib sevgi kalomlari bilan bezab biror she‘r yozolmangandim. Ilk urinishimda esa boshimga nima kelganini esladingiz deb umid qilaman...

Uni qanchalar sevishimni bo‘lar-bo‘lmasga aytavermagan edim. Ehtimol, bunga hojat yo‘q deb o‘ylagandirman. Balki, meni tark etishini hecham o‘ylamagandirman. Buni sira ham kutmaganimni aytgandim. Endi har doim ichimda she‘r to‘qiyan. Biror avtohalokatni ko‘rsam ham, ichimdan nimadir uzilgandek bo‘ladi. Xo‘s, yana qancha o‘la olaman, yana qancha bardosh bera olaman, buni ham bilmayman.

Mayli, shu o‘limni bir chetga qo‘yib turaylik. Zotan buni hali ko‘p eshitasiz. Tongning ayni daqiqalarida eng sevgan narsalarimdan biri svetoferning yonib-o‘chishi va ahmoqona tribandiliklarning bo‘lmasligidir. Insonlarning halloslab qaylargadir ketishi, bir-birlarini bosib o‘tishga harakat qilishlaridan nafratlaman. Shu sababli o‘zimni olomondan ajratgan edim.

Buni ushbu katta shahardan ketmay turib qanday uddaladimmi? Men shuncha olomonni ko‘rmayman desam, ishonasizmi? Sinab ko‘ring: istasangiz, mana shu taloto‘pda ham inson qadami tegmagan joylarni topa olasiz. Masalan, bugungacha hech kim bilan yuzma-yuz bo‘lmaslikka imkon qadar harakat qildim. Qolaversa, insonlardagi iztiroblar ham meni bezovta qilardi, shuningdek, ko‘zning ko‘zga tushishi keraksiz suhbatlarga yo‘l ochardi. *Menga nima* dedim. Insonlarning nima deb o‘ylashlari dan menga nima? Bugungacha, aynan bugungi kungacha qochedim. Ammo o‘rindig‘imga o‘tirgan jingalak sochli ayol hammasini o‘zgartirib yubordi. Ko‘zlariga qarashimni qo‘yib turing, yuzlariiga-da tikilib o‘lishni istayman.

Xo‘sh, orangizdan kimmadir xayoliga *unga* juda o‘xhashligi kelmadimi? Balki, unga ham farishtam deya murojaat qilganim uchun ba‘zilaringiz sezgandirsiz. Ha, ikki tomchi suvday o‘xshaydi. Ota-onasi bir xonaga kirib, “Qani, shunaqasidan yana birini yarataylik”, — desalar ham bu qadar o‘xshata olishmasdi.

Uzr so‘rayman, avvalo, shu farishtamdan, keyin boshqa farishtamdan, keyin esa sizlardan. Chindan ham qattiq uzr so‘rayman. Ammo ishoning, ishoning va u ham ishonsinki, sabab bu emas, meni boshqa bir narsa o‘ziga jalb qildi... Go‘zalligini inkor etib bo‘lmaydi. Salgina shivirlaganini hisobga olmaganda hali ovozini ham eshitganim yo‘q. Ayni daqiqalarda ko‘ksimdan xohlaganicha foydalanayotgan ushbu ayol vaqtiga vaqtiga bilan o‘zi bilmagan holda yig‘lamsiragan qiyofada kimadir ismini aytmoqda. Eshitmayapman, eshitishni istamayman ham. Iltimos, meni to‘g‘ri tushuning, shunchaki yana sevib qolmoqchiman...

Balki, ikkimiz uchun ham yaxshi bo‘lar, mumkinmasmi yo? Nega mumkin bo‘lmisin? Bundan tashqari, to‘g‘risini aytинг, o‘sha yerda *uni* qanday tashlab ketgan bo‘lardim? Ayni shu jin

urgur narsalar mening ham boshimdan o'tgan dedim-ku. Meni ayblamang, hatto hech kimni ayblamang. Meni nima deyishimni bilasizmi?

"Ayblovlaringiz jahannamga yo'qolsin. Sizni o'sha yerda kutaman".

Hozir orangizdan necha kishi meni manfaatparast deb hisoblaydi? Yo'q, men sizga hissiy bosim qilmayapman. Agar ba'zi jumlalarning oxiriga undov belgisini qo'yayotgan bo'lsam, bu ayrim gaplarning ichida sizga katta harflar bilan baqirishni istamaganimdandir. Ha, to'g'ri tushundingiz. Ko'pincha undovga diqqat qaratishingizni istamoqdaman va hammangizga baqirmoqdaman! Mening o'lar chog'imda qayerda edingizki, endi meni ayblasangiz? Bir insonni hayotligida nega bunchalik ko'p o'lirdingiz?

Masalan, aka-ukalarim bor... Necha oylardan beri eshigimni taqillatib kelishmaydi. Qaysi his va vijdon bunga rozi bo'ladi? Albatta, bunda o'zimning ham aybim bor. O'zimni hammadan ajratib olgan o'zimman. Ammo men: "Keting", — deyishim bilan nega darhol ketib qoldingiz? Farishtamga qarang: necha marta quvdim, ketkazishga harakat qildim, hech ketdimi?

Biroz tushunishga urining. Meni qo'ying, o'zingiz tushgan vaziyatni anglashga harakat qiling... Qo'rqqan, tilingizga chiqarmagan savollaringizni o'zingizga berishga urinib ko'ring... "Seving, — demoqchiman sizlarga, — seving!" Ammo, avvalo, o'zingizni seving... Biror mushukni sevish o'zingizni sevishdan ko'ra osonroq-a? Men ham sizning ojizliklaringizni bilaman, ammo yuzingizga solmayapman. Endi siz ham meni biroz tushunishga harakat qiling. Men shunchalar sevdim. Bundan ziyo-dasi bormi?

VI

UYIMIZGA QAYTISH

Oxirgi ikki yildan beri o‘zim bilan gaplashish jonioimga tegmagan vaqtarda hatto olis yo‘llarni ham piyoda bosib o‘tganimni yaxshi bilaman. Uyga yetib borishni kechiktirish uchun atrofda nechta oraliq ko‘chalar bo‘lsa, bariga kirib chiqardim. Shu tarzda fasllarning barini yashab ko‘rdim. Barcha fasllarning o‘ziga xosliklarini takror va takror o‘rgandim. Masalan, qishda qor yog‘gach, inson nega sovqotadi? Bu faqat ob-havo ma’lumotlariga bog‘liqmi? Aslida sovqotmaymiz, ammo ongostimizda: “Qish sovuq fasl”, — deb o‘rgatilgani uchun vujudimiz yaproqday titramasmikan?

Unda uyi bo‘lmagan, aniqrog‘i, ko‘chalarda tunashga majbur insonlar qanday qilib omon qolishyapti? Yoki shunday yashashni yoqtirishadimi? Kim bilsin, balki, biz majburiyat deya nomlaydigan narsa hayotning bizga eng katta yukidir. Chorasizlik eshigingga keladi, ichkariga kirmsadan ketmaydi. Hozir yonimda turgan *Qoramag‘iz* (*Qoramag‘iz* der ekanman, xuddi ism kabi katta harf bilan yozganimni sezdingiz deb umid qilaman) qo‘lini bo‘ynimga tashlab biroz qimirlagancha pinjimga yaxshiroq tiquilib olishga urinmoqda.

G‘alati tomoni shundaki, atir ishlatmagan... Ter hidi dimog‘imni bezovta qilayotgani uchun buni aytolmayapman. Inson

kimnidir sevsə, uni har qanday holatda ham sevadi va hech bir holidan bezovta bo'lmaydi. Filmlardagi mashhur sahnani bilasiz: nikoh idorasining mudirasi ochiq chehra bilan so'raydi: "Siz, kimdir, kimdir, palonchi qizi, nimadir, yaxshi kunda, yomon kunda, boylikda, faqirlikda, xastalikda, sog'liqda, o'lim sizni ayirgunga qadar xotinlikka rozimisiz?" Ha, oraga gap qo'shib ketmasam bo'lmaydi. Ko'pchilik ayollar *xotin* degan so'zni eshitishganda asabiylashib, bu so'zni qabul qilishni istashmaydi. Ammo nikoh idorasidagi mudiraga nega e'tiroz bildirilmaydi? Mayli, bu savolning ustida to'xtab qolmoqchi emasman, shunchaki xayolimga kelib qoldi, aytdim.

Shu tarzda va'da beriladi-ku? Unda nega ajrashishlar soni bu qadar ko'payib ketdi? Yoki *sevishganlarmiz* degan qasam nega yo'q? Ammo buning ham nima ahamiyati bor, baribir, oxir-oqibatda bari tugayapti-ku. Bergan hech bir va'damizda turma-yapmiz deb hisoblayman. Aslida, bu yerda anglanishi kerak bo'lgan eng muhim narsa shu: Qoramag'izim, ehtimol, kechadan beri umuman uxmlamagan va kiyimlarini ham almashtirmagandir.

U holda nega atir hididan asar ham yo'q? Yoki hidi darrov tugab qoladigan arzon atir ishlatarmikan? Bo'lishi mumkin. Lekin hech bo'lmaganda kiyimlarida atir hidi qolishi kerak-ku. Ammo men hamma mavzuda Qoramag'izimga ishonaman. Hech shubhasiz, kamida ikki kundan beri o'ziga qaramagan. O'ziga oro berish yo'q, atir yo'q, sochlari to'zigan va yog'langan. Tag'in bir kichik qo'shimcha kirtsam: atir hidining yo'qligi shuning uchun muhimki, o'sha kimsa farishtamga yaqinlashmagan.

Xulosa shuki, *uni* tamaddixonadagi o'rindiqqa olib kelgan voqeа ancha avval sodir bo'lgan va qadahlarda ko'zyoshiga aylangan. Bu *ko'zyoshiga aylangan* so'zini majoziy ma'noda ishlatyapman. *Uni* ko'rganimdan beri ko'zlaridan bir tomchi yosh

oqqaniga guvoh bo‘lmadim. Biroq bu *uning* sira ham yig‘lamaganini anglatmaydi. Ayrimlar ich-ichidan yig‘laydi. Hozir bir jarroh singari uning qalbini ohib qarasam, bir hovuchdan ko‘proq ko‘zyosh zaharini topishim mumkin. Tabiiyki, bu mendan biroz jasorat talab qiladi. Shuningdek, *uning* sirlarini ham fosh qiladi. Shu sababli bu ishni qilmayman. Kim bilsin, balki, unutgani uchun yig‘lamayotgandir. Ko‘rib turganizingizdek, men bu vaziyatdan ham, *uning* qayg‘ularidan ham ijobjiy xulosa chiqara olmoqdaman. Mayli, biroz sirli qolishiga qo‘yib beray. Men *uning* ovoz chiqarmay hayqirganini eshitdim: “Ustimga osmon qulab tushdi, yordam bering!” Eshitdim, eshitdim va men senga keldim. Ishon, juda omadlisan, mening faryodlarim hech eshitilmadi.

Balki, kechki soat oltilarda o‘ziga kelganida uyimning devorlariga singib ketgan faryodlarimni, iltijolarimni, duolarimni sen ham eshitasan va o‘zing meni quchoqlab olasan. Shunday bo‘lishi kerak... Bunday bo‘lmasa ham muammo yo‘q, ishon. Uyimdagи nihoyatda kam kislorod uzoq vaqtadan keyin boshqa bir odamning o‘pkasiga kiradi. Balki, bir-birimizga biroz yaqinlasharmiz. Kim bilsin, meni ilk bora ko‘rganingda qirq yillik tanishingni ko‘rganday bo‘larsan.

Miyamda savollar ko‘p, istagan narsalarimning ham charchog‘i, ham orziqishi bor. Men qirg‘oqdan ayrilgancha katta bir ummon sari suzishni istayman. Maqsadim cho‘kib ketgan biror kemani topish bo‘lsa ham, o‘zimni yangilab, o‘sha halokatga uchraganlar orasida o‘zimga yer topa olaman, shunday emasmi? Albatta, shunday ehtimol ham bor. Boya o‘zim tilga olgan yaqinlik masalasiga nega bunchalar ko‘p to‘xtalib qoldim? Ham mamiz yonma-yon turgan holda bir-birimizdan naqadar uzoqlashib ketmayapmizmi? Bir qarich masofada turgancha oramizga

shaharlar, tog‘lar qo‘ymayapmizmi?

Qarang, endi menga tan berasiz! Ayriliq harakatlarining ilk belgilaridan biri ham shu: oraga tushgan masofa. Munosabatlarimizda oz bo‘lsa-da, jasorat ko‘rsatgancha *unga* bosim qilgan vaqtlarim ham bo‘lardi.

“Sevgilim, qarasang-chi, nega biz bunchalik sovqotyapmiz? Holbuki sen bilan yozning o‘rtasidamiz. Fasllar haqida gapirma-yapman, biz yozning o‘rtasidamiz”, — degan edim. U esa menga shunday degandi: “Fasl degan narsamiz bor-yo‘g‘i to‘rtta ekanligini bilaman. Qolaversa, buni nazarda tutmaganingni ham juda yaxshi bilaman. Ammo ichimda vayron bo‘lgan narsalar bor-day... Seni ham, o‘zimni ham qo‘lga ololmayapman, tushunsang-chi! Sen yoki men deyapman... Uzr! Biz, axir biz edik-ku! Qachon bunday ajraldik? Tilim qanday qilib bizni ikkiga bo‘ldi, bundan xabarimiz ham bo‘lmadi. Nima deysan? O‘zimizga yana bir imkon berish, ehtimol, biroz uzoqlashish bilan bo‘lar? Nima deysan deb so‘rayapman? Biroz tanaffus qilamizmi? Bir-birimizni ko‘proq sog ‘inamizmi?”

Bu ham kulgili, ham achinarli vaziyat. “Yaramas, sendan ketishni istayman. Biz tugadik, ko‘rmisan?” — deyishning nozik shakli “Biroz tanaffus qilaylik” deyishdir. Buni tushunmaydigan darajada anqov emasman. Hayron bo‘lmang, *u* ham men kabi yaramas deb gapirar edi. Bu siz uchun qo‘pollik bo‘lishi mumkin, ammo *uning* dudoqlaridan chiqishiga guvoh bo‘lsangiz, sizga ham g‘alati tuyulmasdi. Ichki ovozi bilan gapirayotgan vaqt-larda ham menga yaramas derdi. Tushunsangiz-chi, biz juda g‘alati edik va bundan hecham bezovta bo‘lmasdik. Barcha odamlar singari ma’noli jumlalar qurmasdik. Zotan bunday gaplar darhol parcha-parcha bo‘lib ketadi. Insonlar biroz tabiiy bo‘lishlari kerak. Xayoliga kelganini ayta olishlari lozim. Barchasi

shunchalik oddiy.

Endi esa sizning ichki ovozingizni bir tinglay: “Yaramas, bir gapni aytsang, ayt, qirq yilda bir bo‘ladigan suhbat ekan, yana oraga mingta gap qo‘shding...”

Kulishni boshladim, ehtimol, sezmagandirsiz, ammo sizni ham hozirgina o‘zimizday qilib qo‘ydim. Menga “Yaramas”, — dedingiz. Xush keldingiz oramizga. Xush keldingiz, yaramas. Endi *unga* bergan javobimga qaytsam bo‘ladi.

“Seni olislardan turib ham seva olaman. Ammo sen go‘zal ayolsan va ayollar chiroyli ekanliklarini bilsalar ham, buni sevgan odamlaridan eshitishni istaydilar. Oislardan ham sening go‘zal ekanligingni aytishim mumkin... Bularni so‘zlar ekanman, yonimda qahvam va iflos paypoqlarim bo‘ladi, tushunyapsanmi? Beparvo bo‘lib aytaman. Shu sababli yaqin bo‘lishimiz kerak. Shunda ham meni qutqarib qolasan, ham boshingni tizzamga o‘lik kabi tashlaysan. Ha, o‘l! Men shunday beshafqat odaman... Bag‘rimda o‘l... Sen menda o‘lsang, dunyoning eng omadli odami bo‘laman. Menga boshqalarning nima qizig‘i bor? Masofalarning nima qizig‘i bor? O‘zimizga yana imkon berishning nima qizig‘i bor? Bir-birimiz ila imkonning o‘zi emasmidik? Men bizni o‘ylayapman, tushunyapsanmi?”

Bu safar menga biroz omad kulib boqdi. Yoki maqsadimni ifodalaydigan jumllalardan boshqalarini ishlatmagandirman. Ovora bo‘lib kutmang, bu safar yuragimga tarsaki tushdi. *Unga*: “*Bag‘rimda o‘l*”, — der ekanman: “*Yuzimga o‘likdek qara*”, — demagandim. Jimgina boshini eggandi. Vaholonki: “Boshingni tizzalarimga qo‘y”, — degandim. Bildimki, *uni* majburlayotgan ekanman. “Bo‘ldi”, — dedim.

“Bo‘ldi, biroz ajralaylik... Bu necha yorug‘lik yiliga teng bo‘lishi haqida sening ham hozir zarracha fikring yo‘q. Ammo

aytganingday bo‘la qolsin...”

Ajabo, ayni dam tezda taslim bo‘ldimmi deb o‘ylab qoldim. Yoki ketmasligiga qattiq ishonganmidim? O‘zimni aldashdan charchadim. Aytgandim-a, shundaymi?

“Ketishni istagan ayolni ortiq o‘zi ham to‘xtatib qololmaydi...”

Oh do‘stlarim! Aqlimdagи tirbandlikni ko‘rmaysizmi? Shashardagi svetoforlarni nazarga ilmaydigan bir inson sifatida xayolimdagi qaysi yo‘lga kirmay, doim qizil, doim qizil... Jin ursin, hammasi xayolimda. O‘zimdan qanday qilib xafa bo‘lishim kerak. *Unga* aytishni istagan va aytolmasdan ichimda qolgan shu qadar yaxshi yoki yomon ko‘p narsam borki... Xuddi bularning bari qo‘limdan keladiganday edi... “Meni zabit eta olganining foydalana olishingni anglatmaydi, ey sevgilim... Sevgi ham ma’lum bir yergachadir. Ketar chog‘imda: “Bos”, — deya yuragimni oyoqlaringning ostiga tashladim. Senga bergen tabassumim omonatdir, yonoqlaringdan yulqib olaman!”

Qo‘rqmang, ahmoq emasman, shunchaki biroz telbaman. Bularni unga aysam, oxiri nima bo‘lishini o‘zingiz taxmin qilib ko‘ring. *Ajabo, yosh yigitlarga o‘xshab yozganlarimdan so‘ng har xil yuz ifodalarini qo‘ysammikan?* Qayerida kulayotganimni, qayerida yig‘layotganimni bilishda qiynalyapsiz-a? Bunday tu-shunarsiz odamni sizga tanishtirganidan xafaman. Ammo siz ham hozirgacha menga e’tibor bermay shunga loyiq bo‘ldingiz. Shu sababli: “E, rahmat”, — deya bermalol suyanib oling. Hayotingizni sevgilisining qo‘lidan tutib, atrofga tabassumlar yo‘llaydigan xudbinlardek yashamang. Eh, atrofingizga ham nazar tashlasangiz edi! Tark etilganingizdan so‘ng yonimga kelib yig‘lamang.

Bu kitobni o‘qib tugatganingizdan so‘ng ayrim jihatlarni ko‘-

ra boshlaysiz deb umid qilaman. Ammo menga aslo: “Sevgidan muhimroq narsalar bor”, — deb aqlilik qilmang. Buning javobini yuqoriroqda sizga aytgandim. Men nima demoqchi edim-u, qarang, endi sizni qayerlarga olib ketyapman. Sizga amerikacha muomala qilaymi? “Jin urgurlar, nima xohlaysiz?” Mana, aksariyatingiz kitobni ayni shu yerda yopib qo‘yishni istab qoldi? O‘qimang, menga nima? Baribir, ertagacha qolmaydi, kechga bormay yana qo‘lingizga olib, chiroqli bir suratda davom etasiz. Oxiri nima bilan tugashiga sira qiziqmayapsizmi? O‘lay agar, o‘zim ham juda qiziqyapman (ovozi chiqarib kuldim). Bo‘ldi, o‘zingizni bosing: “Sen jinnisan”, — deb ayplashni boshlamang. To‘lib ketdim, tushunyapsizmi? Sizga ishonib, dardimni bo‘sashishim kerak desam, kim bilsin, gapimdan nima ma’nolar chiqib ketadi? Ba’zi narsalarmi ayni o’sha yerga yuboryapman... Ketishi kerak bo‘lgan joyga... Necha soatdan beri menga o‘xshamang deya fidokorlik qilib, sizlar bilan xayollarimni, tajribalarimni bo‘lishyapman. Zerikib qolmang degancha orada har xil gaplarni qo‘sheyapman. Hozir aytadiganlarim bir saboq o‘rnida... “Ayol ovqat pishirar vaqtida sochlarni yig‘ib olishi bejizga emas. Hoy erkak, erkak bo‘l, borib xotiningning bo‘ynidan o‘p. Hoy ayol, endi senga aptyapman: erkak ham bo‘yningdan o‘zidan o‘zi kelib o‘pmayapti. Oshxonaning bir lahzadayoq yotqxonaga aylanishi uchun bundan go‘zal fursat bormi? Qo‘ysang-chi, ovqat kuysa, kuyib ketsin. Zaqqum yesin o’sha erkak, ering, sevgiling, xullas, kim bo‘lsa ham. Buning nimasi yomon? Endi borib eringni quchoqla. Shu jin urgur filmning oxirini baxtli yakunlang. Bular juda muhim...”

“

*O‘zingga savol berarsan... Bir bo‘shliq qanday
qilib shunchalik og‘ir bo‘lishi mumkin? Sukut
saqlarsan...*

VII

QUCHOG'INGDA AYOL BILAN ESHIKNI OCHISH

Sizga o'n daqiqalik yo'l qoldi degandim-a, lekin kamida yarim soat o'qiladigan voqealarni aytib berdim. Siz ham bularni o'qidingiz... Xayolimdag'i narsalar qiziq va hayratlanarli emasmi? Hali oxirida sizni qay holatga solishni o'zim bilaman, shoshmay turing... Nihoyat, meni eng ko'p ovora qiladigan vaqt keldi. Bo'limning nomiga bir qarang: "quchog'ingda ayol bilan eshikni ochish". Sizning-cha, bu osonmi? Holatimni ozgina bo'lsa ham tasavvur qilib ko'rdingizmi? Kelishgan erkak quchog'ida o'lgu-dek ichgan ayol va hisobga olinmagan narsa, ya'ni kalitni cho'ntakdan olish yodimdan ko'tarilibdi, yaxshimi shu?

Bu yerini tashlab o'tib ketishim mumkin edi. Ba'zilaringizning e'tiborini tortar deb aytib o'tdim. Baribir, barchasi to'qima-ku. O'mimda bo'lganiningizda kalitni cho'ntakdan qanday qilib olardingiz? Tasavvur kuchingizni ishga soling, bu ham juda muhim. Faqat oshirib yubormang, havoda sportcha harakatlar qilganim yo'q. Bu yerda "Matritsa" filmini tarjima qilayotganim ham yo'q. Qarang... Nima deganimga qarang, o'sha filmdagidek "Eshik yo'q, devor yo'q, jin ursin", — deb ichkariga sirg'alib kirsammikan? Shunaqa bo'lishi mumkinmi?

“Hoy, birontasi shu la’nati telefonimga qo‘ng‘iroq qilsin”.

“Allo! Men Trinitiyman. Ichkariga kirishga ehtiyojingiz bormish, bir so‘rab ko‘ray, deb tel qilgandim...”

“Ovoragarchilik bo‘ldi. Shuncha soatdan beri qayerdasan sen?”

Bir amallab kalitni cho‘ntagimdan chiqardim va eshikni qiy-nalmay ochdim. Trinity hazil qilgan ekan, “Matritsa” degan nar-sa yo‘q ekan. Anqaralik edimi, bilmayman. Telefonni o‘chirish-dan avval oxirgi gapi nima edi bilasizmi?

“O‘zing kir, ablah, ichkariga!”

Bilyapman... Shunchalik ko‘p asabingizga o‘ynadimki siz ning... Sizga o‘zimni shunday yomon odam sifatida tanitdimki... Yoki qanday bo‘lsam shunday...

Orangizda biroz hissiyotga berilganlar yoki boshqacha bir munosabatga o‘tishni xohlaganlar bo‘lgandir. Hoziroq shu yerda siz bilan bir she‘r o‘qiylikmi?

Ovozlarni eshita olmayapman! Biroz dalda bering menga.... Ayol o‘quvchilarim, shunday bir she‘r yozdimki, ishonaman, ko‘pchilicingiz “Men haqimda yozibsiz”, — deysiz. O‘zingiz tan olishga qo‘rqadigan, “Sevgilim”, — deydigan odamingiz ham aytay olmaydigan nimaiki bo‘lsa, shu she‘ming ichiga jo ayladim. Unaqa qisqa she‘r yozib qo‘ya qolmadim. Eh-he, nimalar, nimalar bor bu she‘r ichida...

Ikki ayol suhbatlashardi:

Bir uyning tor xonasida,

Kun uchun oltin taqqanlarning,

Xayollariga qolganlar kelmas edi.

Unutishgandi ba‘zilarni.

Menopoz hali yosh qizchaligida duch kelgandi.

*Hech ham tanimaydigan odamning
Bir kishilik yotog‘ida o‘zini ko‘rganda
Sirt usti yotish xayoliga kelgan edi.
Xayollarining tajovuzga uchrashiga
Faqatgina shiftdagi chiroq guvoh edi.
Ter, ko‘z yoshiga aralashadimi?
Erkak ishini tugatganida yotoq
Ikki xil tuzli suv bilan namlangandi.
Ayolning ko‘zlaridan,
Erkakning oyoqlaridan suyuqlik oqardi.
“Yurtimning haqiqati, — degandi onasi.
— Sen ham shu kayf-u safodan tug‘ilgansan”.
O‘zi nima kerak bor zavq olishga?
Soatning millariga qara!
Qanday tez aylanmoqda....
Ikki ayol suhbatlashardi:
Bir uyning tor xonasida
O‘zi xohlamay homilador bo‘lgan...
Bola tug‘ildi, Ayol tug‘ildi, erkak tug‘ildi,
Otalari ham tug‘ilgandi,
Onalari uxlar ekan....
Xotinboz odam!
Boshqa eshiklarning tutqichlariga barmoq izlari qoldirardi .
O‘z hududini belgilagan hayvonlar kabi,
Turli uylarning hojatxonalariga
Oxirgi peshoblarini oqizar edi.
Va ko‘pincha, eplay olmaganini,
Tag‘in bajara olmay uyga qaytgach,
Ilk izlarining qo‘pol yuzlariga hayron boqardi.
Ozgina spirtli ichimlik dunyoni biroz go‘zal qilardi...*

*Go'yoki ikki bola tug'gan ayol u emas edi.
 Qorniga to'plangan yog'iga e'tibor bermay,
 Erkak tag'in uning ustida yotardi.
 Ikki ayol suhbatlashardi:
 Bir uyning tor xonasida yig'lash mumkin emasdi,
 Tajovuzga uchtrash esa qonuniy!
 Abort qildirish mumkin emas,
 Bolasini quchoqlash qonuniy!
 Uchinchisi oqshomga tayyorlanardi.
 Ovqatdan keyinoq, avval idish tovoqlar,
 Keyin kirli o'tmish yuvilib va
 Hali lab bo'yog'ini qo'yishga ham ulgurmay ayol
 Bachadonida yana bir homila qabul qilardi.*

Menimcha bir maqtov olishga haqliman. Va ishoningki, bu maqtovlarni faqatgina ayollardan kutmayapman. Qaranglar men-ga, qo'shtirnoq ichida yozayotganim yo'q, jinsdoshlarim degan biror so'z bormi?

Qasam ichamanki, TTJ¹ meni zambarakka qo'yib otadi. Bu ham mendan bo'lsin, nima bo'libdi? Menimcha, muharrir ham bunga e'tibor bermaydi. Harflarni yonma-yon terish erkinligim bor deb o'ylayapman. Sizningcha ham, shunday emasmi? Erkin bir davlatda yashamayapmizmi? Bo'ldi, darrov siyosatga aralashmang...

Mavzumiz ayol, mavzumiz sevgi, mavzumiz Qoramag'izim, mavzumiz yana boshqa Qoramag'izim... Bu yerda mavzu men... To'g'risi, qadamingizni o'ylab bosing... Haligi, boshqa bir shoir aytganidek: "Ayollar — ayollarimiz..."²

¹ Turk tili jamiyatি.

² Nozim Hikmat Ran (1902-1963). "Ayollarimiz"

Bilaman, sizni ko‘p asabiylashtirdim. Sizga o‘zimni juda yomon tanitdim. Balki, borim shudir.

Biroz tanaffus qilsakmi, deyman? Yo‘q, ayollar sizlar uchun emas, o‘zim uchun... Ikki kundirkি, tinmay yozmoqdamан. Kecha juda kech yotdim, qolaversa, uyquga ketishdan oldin ham yozganlarimni qayta-qayta o‘qib chiqqandim. Ishoning: juda charchaganman. Yolg‘izlik charchatdi meni. Bu so‘zlarim ham ham senga atalgan: “Sen ila va sensiz... Barcha yolg‘izliklarim charchatdi meni”.

Birozdan so‘ng qaytaman... Siz ham biroz orom oling. Yolg‘izlik sizni ham charchatibdi.

“

*Dardimni tushungan biladi, sevgilim, hech
kulmagan kimsa holimni anglaydi... Rangim
so ‘lib bormoqda... Sensizlikda o‘tayotgan har bir
kunda rangim tobora so ‘lib bormoqda...*

“

*Bilasan: ko‘zlarining rangiga emas, balki nigohlariningdagi
beg‘uborlikka asir tushdim.*

VIII

RIM RAQAMLARI

Rim raqamlaridan nega foydalanyapman-a? Shunchaki istagim uchunmi, nima uchun? Bismillah! Qaytishim hamono o‘zim bilan kurashga kirishdim. Har holda... Yoki qariyapmanmikan-a? Ayni kunnalarda belim ham og‘rimoqda. Ehtimol, sport zalida og‘ir tosh ko‘tarishni haddan ziyod oshirib yuborgandirman. Muntazam ravishda sport bilan shug‘ullanayotganimni sizga qanday qilib ta’kidlab o‘tishimni qarang.

Quchog‘imda bir ayol bilan ichkariga kirdim va undan keyin esa hech narsa bo‘lmadi. Hech narsa, chunki hayratda edim... Bu o‘rinnarni sizga qanday aytasam, qanday tushuntirsam, bilolmayapman. Tan olaman: qalbimning torlariga teginmoq juda yo-qimli... Yo‘q! Unchalik yomon niyatli emasman, buni bilasizlar.

Xo‘sh, aziz o‘quvchilarim (*albatta, goh-gohida kayfiyattingizni ko‘tarib turmog‘im kerak*), hozirgina nima deganimni angladitingizmi? Qalbimning torlari dedim uni... Hozir orangizdan kimdir chiqib sekingina shivirlaydi: “Mening sevgilim ham bir karra shunday degan edi”.

Qo‘ysangiz-chi. Bunday murojaatda doimiylik muhim tutadi. Bayramda, aynan bir kungina chiroyli gap eshitib, menga maqtanib o‘tirmang. Ha, men g‘irt jinniman. Meni ma’zur tuting, axir hammangiz tirikchiligidan manbaisiz. Hech biringizni yo‘qotishni istamayman. Uzr so‘rashga ruxsat bering, yarashaylik, maylimi? Qolaversa, hali aytadiganlarim ham ko‘p. Xafagar-chilikni yo‘qotmoq va siz bilan yarashish uchun shu yerda bir

she'r qo'ygan bo'lardim, ammo u qadar ko'p misrali emas... Nima? "Boshqa she'rlarim yo'q?" Kuldirmang... *Unga* atab yuzlab she'rlar yozdim. "Nechtasini o'qigan?" — deya so'ra-moqchisiz-a, faqatgina uchtasini... Ha, noto'g'ri o'qimadingiz, atigi uchtasini... *Uni* ayblay ko'rmang. Bu she'riyatga bo'lган befarqligidan emas. Insonning vafotidan keyingina uning qadriga yetiladi-ku, xo'sh, bunga nima deysiz? Yoki ortingizdan kimdir sizga atab she'r yozsa, bundan kimga foyda? "Istaganimcha yo-zayin, istaganimcha, jonio, azizim", — dey, xo'sh, nima farqi bor? Go'yo ortidan "*Fotiha*" o'qigandek...

"Alloh rahmatiga olsin!"

Holdan toydim... Ochig'i, bir yerda tik oyoqda turishdan charchadim. Orangizda: "Quchog'ingda bir ayol bor, jinnimisan, unga tikilgancha qotib turibsan? Mana, ichkariga kirding ham. Atya qolsang-chi, sen ham qutul, biz ham qutulaylik!" — dey-digan kimsa yo'q-a.

Qo'pollashmang! O'mi kelganda sizlarga do'stlarim dedim-a. Hikoyaning oxirini o'ylayotganday biroz meni ham o'ylang. Zero doim shunday bo'lib kelgan: azaga borgan kampir o'z dardini aytib yig'lar. Har holda... Tinchlanishim kerak, tirik-chiligidan manbalar. To'xtagan joyimizdan davom etamiz.

Ichkariga kirishim bilan uzun yo'lak qarshimdan chiqdi. Har doim xuddi shunday bo'ladi: uzun yo'lak... *Uni* o'zi qarshilaydi. Ahmoq arxitektor yoki loyihani chizgan kimsa, qaysi biri bo'lsa ham, zalni yo'lakning eng oxiriga joylashtirgan. To'g'ri, hozir bu juda ahamiyati emas. Yotoqxonam tashqi eshikka juda yaqin...

Uf! Naqadar bee'tibor va jirkanch odam bo'lib qolibman-a. "Nima bo'ldi?" — deysizmi? "Uyimga men uchun qadrli biror odam kelmaydi", — degan fikrda bo'lGANIM uchun anchadan beri tozalamay qo'ygandim. Oyog'imga singan shishanining bir

parchasi kirdi.

“Qanaqa shisha?” — deb so‘rasangiz, ayta qolay: “Albatta, viski shishasi, boshqa nima ham bo‘lardi?”

Yaxshi odamning manfur bir yolg‘izligi va sifatli ichimligi bo‘ladi.

Mayli, mayli... Nima xohlasangiz, bor. Ammo manzilni so‘ramang. Aytgancha, ko‘chalarda tozalik ishlari uchun o‘matilgan maxsus qutilar bor-ku, (axlat quti deyishga tilim bormayapti), uyim xuddi o‘shanday ahvolda. O‘ng-so‘limda shisha buyumlar qalashib yotibdi. Ha, baribir, qachondir shunday bo‘lishi aniq edi. Darvoqe, yotog‘imning tartibsiz bir holda ekanini aytmasam ham bo‘lar-a? Ha, ayni damda mana shu hol uchun mudhish xabar... *Uni* shunchaki to‘g‘ri kelgan to‘shakka yotqiza olmayman... Avval zalga borib, uni divanda biroz kutishga maj-burlashim kerak. Garchi majburlashim kerak desam-da, baribir, bu *uning* uchun unchalik qiyin bo‘lmaydi... Ayni damda qayerga o‘tqizmay, hech bir e’tiroz va so‘roqsiz o‘sha yerda o‘tiradi.

Ba’zan: “La’nati yo‘lak”, — deyman xuddi hozirgidek... Yurasan, yurasan, sira tugamaydi. Ha, hozirda meni tinchlan-tirayotgan yagona narsa *uning* vujudimga berayotgan tafti... Go‘-yoki bir chaqaloq kabi, ha, ha, xuddi onasining ko‘kragidan sut izlayotgan chaqaloq kabi... Boshi ko‘ksimning ustida. Sochlari-dan ko‘zimni uzolmayapman... Qora deymi, qop-qora deymi, xullas, qanday ta’rif-u tavsif etishni ham bilolmay turibman. Birozgina yog‘langaniga qaramay shunchalar chiroyliki...

Bilasizmi? Har ehtimolga qarshi, ya’ni agar meni xushlamas va ketishni istab qolsa degan xavotir ortidan xayolimda farishtam uchun bir necha satr esdalik so‘zlarini tuzib qo‘ydim... Bu so‘ngi o‘qim bo‘lishi mumkin, degandek. Keling, buni chiroyli bir ko‘rinishda tuzatilgan ovqatlanish stoli yanglig‘ tasavvur qiling.

Barcha narsa muhayyo, lekin mehmon chanqagani uchun kelishi hamon sizdan suv so‘raydi, ammo stolga qaraysiz va, afsuski, suv solingan grafinni oshxonada unutib qoldirgan bo‘lasiz.

Bu hol, ehtimol, katta bir sharmandalik emasdir, ammo nega hammasi bir tekisda ketmaydi? Men ham shu haqda o‘yladim. Endi “o‘xshamay qolishi ehtimol” qismiga o‘tsak. Nishonning naq markazidan uradigan bir nechta jumlani miyamda o‘ylab qo‘ydim. Sizga o‘qitsam (umid qilamanki, bunga hojat qolmaydi), ammo aytgunimga qadar kimdir o‘z zimmasiga olsa... Nima deysiz, o‘quvchilarim? “O‘quvchilarim”, — demoqdaman, chunki aytganlarimning aksariyati haqiqat emasligini unutgancha xayolot olamingizga g‘arq bo‘lishingizni istamayman.

“Seni sevganimdan xursandman, xonim. Qalbimga ozor berishing, tunlarda yolg‘iz qoldirishing, doimo seni sog‘inishimga majbur qila olganiningni juda ham sevardim. Har soniya yonimda bo‘lganingdek his qilib, hech ham yonimda bo‘lmasligingni, juda uzoqda — bir joylarda meni kuzatishingni, meni kuzatar ekansan, jilmayishingni, uyatchan qarashlaringni, yonimda bo‘lganingda hayajondan terga botishingni judayam sevdim. Qadimgi yunonlarning urush olib borishiga sabab bo‘ladigan darajada go‘zallikka ega ekaningni, o‘z xudolaridan seni tilashlarini, sen uchun Allohg‘a shukronalar keltirganimni qattiq sevdim. Nafis oyoqlaringni, yelkang uzra tushgan sochlaringni, sochlaringdan yuzimga urilgan iforni, qahvarang ko‘zlariningi, bahoringni, yozingni, qishingni, kuzingni, xullas, seni sen qilgan hamma narsangni qattiq sevdim, xonim! Seni sevganimdan xursandman, xonim! Yaxshiyamki, borsan...”

Qanday ekan? Ko‘ryapsizmi, go‘yoki ancha vaqt dan beri mening sevgan yorim bo‘lganidek nimalar yozdim-a *unga*? Bu ham kamlik qilgandek oxirini dashnomlar bilan tugatdim. Ammo

qarshimga chiqib: “Ey yaramas, bularga qachon ulgurding? Ni-ma qilgan bo‘lsang ham, sarxush edim, eslolmayman”, — deb qolsa, tag‘in turgan yerimda toshdek qotaman. Ha, bu o‘rinda “Yaramas” deyish ehtimoli bor. Men kabi nuqsonga ega bir odam ushbu kalimani eshitsa, umidvor bo‘lishi aniq.

Yo‘q, yo‘q! Bu safar ketishiga aslo yo‘l qo‘ymayman. Shunday xolis bir nigoh bilan qarang siz ham... Satrlarda keltirilgan yozuvlar umuman yomon emas, shundaymi? Savollar, savollar... Sizning bunday savollaringiz meni o‘ldiradi.

“Ey inson, bularni qachon yozib ulgurding? Axir, jag‘ing hech tinch turmagan bo‘lsa, aqling ham xuddi shunday band... Bularni oldindan tayyorlab qo‘yaning aniq...”

Allohga qasamki, bunday emas. Ha, ont ichaman. Qasamim-ga ishonmaysiz-a? Bilaman, “Ko‘p qasam ichgan ko‘p yolg‘on so‘zlar” aqidasi bor. Lekin sizlarga: “Bunday aqidalarni bas qiling, insonlarni tushunishga harakat qiling”, — demaganmidim?

Orangizdan kimdir mening o‘rnimda bo‘lganida, kim biladi, balki, nimalarni to‘kib solardi? Hamma iste’dodli, hamma qattiq sevadi, hamma yaxshi narsalar yozadi! Men yozuvchiman, do‘s-tlarim. Aniqrog‘i, o‘sha siz tanigan yozuvchi... Hali ko‘plab narsalar haqida yozarman, siz ham bularni o‘qiysiz.

O‘qiysiz, albatta, ko‘pchililingiz juda yaxshi o‘qiysiz, bor bo‘linglar. *Oldingizdagи burchimni ham ado etdim.* Qolaversa, shunga amin bo‘lingki, insonning qayerda va nima haqida yozi-shini aslo bilib bo‘lmaydi... Bir hafta oldin uyimga qaytar ekan-man, atrofdagi ayollardan biri dugonasini: “Sentyabr”, — deya chaqirdi.

Darhol ichimda bir narsa uzilib ketganday bo‘ldi. Kurashni ko‘rishingiz kerak edi: qalbim: “Avval men”, — desa, aqlim: “Yo‘q, avval men”, — der edi. Bu qanday ruhiy bir azob bo‘ldi?

Shu topda ruhiyatimga qararmidengiz? Dunyoda qancha jinni bo‘lsa, ularning bari menga uchraydi. Bu gal ikkalasisiga ham qulq solmadim, sigaret tutatdim-da, xayolga cho‘mdim. Xayo-limdan nimalar o‘tganini bilasizmi?

“Ketma”, — deganimni eslay olaman. Necha bor: “Ketma”, — degandim. Oktyabr edi. Sentyabr oyi qalbimizdan sevgi mavj-larini olib, asta-sekinlik bilan ichimizga ayriliqni olib kirgan edi. Kunlar o‘tgani sayin men bilgan odamdan asar qolmayotgandi. Ko‘zlarini olib qochishlar, qo‘llarini ushholmasligim, ma’nosiz nigohlar va o‘g‘ir sukunat... Shahaming yiriklashib borayotgani his qillardim. Go‘yo shu vaqtga qadar men umuman bil-magan, yurmagan ko‘chalar birdaniga paydo bo‘lib qolgandek edi... Hatto birga bo‘lganimizda ham u bilan ruhan yuzma-yuz kelol-masdim. Nelarni so‘ylamay, nelarni so‘zlamasin, xuddiki boshqa birov haqida gapirayotganday bo‘lardi. Muhtasham bir muhabbatning bunday zavol topa borishiga kim ham chiday olardi? Qalblarimiz ayrılayotgan edi... Etim uning badanidan ayrılib, yana o‘z suyaklarimni qoplayotganday edi. Azob edi bu... Bir odamning yana qaytadan o‘zligiga qaytishi shunday bir azob edi. Ba’zi holatlarni tasvirlab berishga insonning so‘zları kamlik qiladi, tili aylanmaydi. Qo‘rquv sababidan tilingiz kalovlanib qoladi va so‘zlar ichingizda qolib ketadi. So‘nggi so‘zlarini eshit-mog‘ingni anglash azobi ich-etingni kemirib tashlaydi... O‘zing kutmagan lahzalarda o‘tmishga tushib qolaverasan.... Uni ilk bora uchratgan kuningni yodga olasan, birinchi bor qayerda bo‘-sa olganing xayolingga kelaveradi... Eng yomoni shuki, bularni endi aslo qaytara olmasligingni tushunib turasan. Ishon, sevgi-lim, bu juda azob. Sendan bunday ayrılish juda azob edi. Azizam, jang maydonida boshni ko‘tarmay o‘limni kutish nihoyatda qiyin edi. Ayni damda rosa sog‘inyapman. O‘shal damlarni yana qayt-

masligini bilganim holda seni qattiq sog‘inyapman. Umid qila-manki, hech bo‘lma ganda yuzingda tabassum bordir. Umid qila-manki, boshqa bir kimsaga: “Ketma”, — deb yolvormagaysan. Dardimni tushungan biladi, sevgilim, hech kulmagan kimsa holimni anglaydi... Rangim so‘lib bormoqda... Sensizlikda o‘tayot-gan har bir kunda rangim tobora so‘lib bormoqda... Ko‘zimdan shashqator yoshlar oqmoqda ayni lahzalarda... Yo‘q! Ishon: ha-qiqiy holim shu... Ham yig‘layapman, ham yozyapman. Qalbim-dan o‘tayotganlar meni ko‘p bora o‘ldirmoqda.

Satrlarga e’tibor berdingizmi?

“Dardimni tushungan biladi, sevgilim, hech kulmagan kimsa holimni anglaydi... Rangim so‘lib bormoqda... Sensizlikda o‘tayotgan har bir kunda rangim tobora so‘lib bormoqda...”

Chindan ham, hech qachon tabassum qilmaslik nimani anglatishini bilasizmi? O‘zining xotirjam ekanligini ko‘rsatish-day bir hol... Qaddini tik tutishga urinmoq... Yolg‘izlikka parvo qilmayotganday ko‘rsatish... Rangim so‘lib bo‘ldi, do‘stilarim. Hozir ham sizlarga *do‘stilarim* dedim, ammo bu o‘zimni yaxshi his qilayotganidan emasligi aniq. Kimgadir ehtiyojim bor, ha, kim bo‘lsa ham...

Hoy, o‘tinaman, orangizdan kimdir menga yelkadosh bo‘lsin. Axir quchog‘imdagi ayol bilan yiqilishni istamayman. *Uning* ham yiqilishiga sababchi bo‘lib qolishni xohlamayman, qara-sangiz-chi, qanchalar ma’suma. Eh, aqlim qursin-a! Shu daqi-qalarga qadar bir marta bo‘lsa ham peshonasidan o‘pish qanday qilib xayolimga kelmabdi-ya. Bu menga uning hadyasi bo‘la qolsin. Aslida-ku, hadya so‘rab olinmaydi, ammo, mayli, beadablik qilaman. Dudoqlarimni peshonasiga qo‘yishim kerak. Ma’sum va ma’shuq...

Yuming ko‘zlar ingizni...

IX

SIZNING FIKRINGIZ

Juda qadrdon bir do'stim bor, u ham yozuvchi. Bu yerda ismini eslab ketmasam bo'lmaydi. Hech bo'lmaganda qalamiga mansub bir nechta satrlarni keltirib o'tsam, so'ngra o'zim divanga o'tqizgan farishtamni yoniga qaytmoqni istayman.

Qachon divanga qo'yib keldimmi? Ko'zlariningizni yumingiz-ku... Yoki yummadingizmi? Mayli, eshitmaganlikka olaman va darhol mavzuni o'zgartirib Bilolning satrlariga o'taman.

Hech sog 'inarmisan?

Kimnidir emas, meni!

Ismimni tilga olarmisan?

Ba 'zida sen hamsovqotarmisan?

Hech seva olganmiding?

So 'zlarimni emas, ovozimni...

Ko 'zlarining mehrini emas,

So 'zlarining sehrini yo 'qotishdan qo 'rqqanim uchun,

"Ketolmayman", — deydigan darajada xudbin ishq eding.

Holbuki men yuragimni har doim fido qildim.

Ko 'ngil ozorlansa, Ka 'ba yiqilar, azizam!

Dedimki, "Ketmagine!"

Meni umidsizlikka tushirma.

Voz kechilmaydigan qadrlar bor,

*Yangilanmas aslo.
Mag 'lub qilma...
Ketma!
Majbur emas, xushnud eding.
Unutilishni emas, umid qilishni istading.
Tag 'in xudbin eding,
Tag 'in horg 'in edim.
Shunday bir imkon bor edi:
Borligingdan xabarsiz eding.
Kelishing-la o 'tmishimni o 'chirsaydim,
Ketishingni-da kelajagim ila ko 'ma olardim.
Esda tut!
Hech kim unutilmas darajada mukammal emas edi.
Bugun seni bag 'rimdan uloqtirmas bo 'lsam,
Qalbimning go 'zalligidan erur
Ammo biroz...
Inson shunday vidolashsa gar,
Tugata olmas, tuga olmaysan ham.
Ishqing kuchayib borgani sari,
Ayriliq ham azoblar endi...
Barchasi mushkul, shundaymi? Ketmasang-chi!
Ketgan eding,
Allaqachonlar¹ ...*

Do 'stim naqadar chiroyli tushuntirgan-a, shunday emasmi?
Menga juda ham manzur bo 'lgan satrlarini aytaymi? Ehtimol,
orangizdag'i ba 'zi birov larga ham shu o 'rinlar ma 'qul bo 'lgandir.
Qolaversa, orangizdan kimdir ayni shu satrlarni yoqtirgan bo 'lsa,
men ham uni qadrlayman. Bilaman: qadrlashga muhtoj insonlar

¹ Bilal Kizmas she'ri.

emassiz. “Hammangiz mukammal insonsiz va buni bilasizlar ham”.

Menga ushbu satrlari yoqdi:

*Ishqing kuchayib borgani sari,
Ayriliq ham azoblar endi...
Barchasi mushkul, shundaymi?
Ketmasang-chi!
Ketgan eding,
Allaqachonlar...*

“Vah, bo‘ldi, shu misralar”.

Barcha ham avvaldan ketadi. Oyoqlariga amr etgan “Ketgin” kalimasini — uning ko‘zlariga ahmoqlarcha boqib turar ekansiz — allaqachon qalbiga-da aytib ham bo‘lgan.

*Barchasi mushkul, shundaymi?
Ketmasang-chi!
Ketgan eding,
Allaqachonlar...*

Xo‘sh, tuyg‘ular to‘lqini bizni yetarlicha azoblagan bo‘lsa, endi ruxsatingiz bilan farishtamning yoniga bora qolay. Bir meh-monga o‘xshab divanning ustida o‘tirishi menga maqbul ko‘rinmayapti. Bilaman, siz ham bilasiz: yo‘limning uzunligi ma’lum. Go‘yoki zal va yotoq orasida qator-qator tog‘lar bordek. Ammo bu safar xavotirlanmang. Orangizdan kimdir oyog‘imga shisha parchasi kirganini esga olar va yana shunday bo‘lishi haqida qayg‘urishi mumkin. Oyog‘imni bog‘laganimdan so‘ng uydagi shisha siniqlarini olib axlat qutisiga uloqtirdim. Yuzaki qaraganda “Ana endi uyga o‘xshadi”, — deya olaman. Darvoqe, do‘stilarim, bilasiz, orada shu kabi eslatmalarni qilib turibman. Negaki men-

da shunday bir tajovuzkorlik borki, buning oldida rashkchiligidagi unutib qo‘yan bo‘lishingiz mumkin.

Rashkchiligidagi kamlik qilganday (sizga avval sira ham aytmaganman) men doimiy ravishda bostirishga urinadigan tuy-g‘ularim ham bor. Shu erkaklik garmonining nomi nima edi? Orangizdan kimdir ayta qolsa-chi, nima edi? Nima edi? Vah! Bo‘ldi, topdim. Testosteron... Bu ham bor... Biroz vaqt oldin ustimga urilgan tafti haqida gapirgandim-ku, bu juda yomon tuy-g‘u... Bu menga topshirilgan omonat ekanligini bilmasam-chi... *Biroz sassizlik... Shu lahzalarda shayton nimalardir demoqda.* Voy, yana nima? La’nat bo‘lsin senga, shayton! La’nat! Sarxush bo‘lib qolgan bir farishtani uchratding-da, endi darding *Uni* sharmanda qilish. Ket yonimdan! *Uni* mutlaqo yaxshi niyatda uyimga olib keldim... Sevmoq uchun olib keldim!

“Imkoniyatni qo‘ldan berma”, — deyapti la’nati shayton.

Imkoniyatni qo‘ldan bermaslik nima degani? Qanday ahmona yondashuv-a! Ko‘pincha e’tiborga olinmas, ammo “Qo‘ldan bermadim”, — degan aksariyat narsangiz yanglish qadamlar natijasida o‘z qiyamatini muddatdan avval yo‘qotadi. Biroq bunday vaziyatda siz bilan maslahatlashishim kerak, hatto ustingizga loy chaplashim ham mumkin. Hoy! Ayting-chi endi, *uni* kiyimlari ila karavotga yotqizaymi yoki uxlashiga qulayroq bo‘lsin deya ustidagilarini yechaymi? Bu nima? Shoshib qoldingizmi? Shaytonni quvib solmoqchiman.

Bu qiyin qaror... Yaxshisi, bunday qilamiz: o‘ylab olish uchun hammangizga fursat bergan holda mavzuga aloqasi bo‘lmagan bir nechta satrlar ilova qilaman ayni shu yerda. Bir-biriga umuman aloqasi bo‘limgan ikki xil mavzu bo‘la qolsin... Siz yozganlarimni o‘qing va so‘ng o‘z fikringizni bildiring. Kelishdikmi, do‘sstarim?

“

*Qushlar boshqa chorasi bo‘limgani uchun
uchishni o‘rganadi. Biror ishni osonlashdirish
uchun agar onang jarlik yoqasida orqangdan
tepsa edi, ehtimol, sening ham qanotlaring
chiqardi... Balki, hayoting oldida taslim bo‘lmay
yashashga iroda toparding. Qolaversa, senga:
“Yanglish yerda kutyapsan”, — deganlarga
qarshi chiqmasding. Zotan, inson qayerda
to‘xtashni bilmaydi. Ba’zan shunday joyda
kutasanki, u yerdan hech qachon avtobus
o‘tmaydi.*

“

*Seni sevmoq shunchalar go‘zal... Shunchaki
oddiy so‘zlar bilan sen haqingda gapirar
ekanman, meni bularni umuman eshitmagandek
sevishing qandayin go‘zal. Meniki ekanliging
qanday go‘zal. Men yoqtirgan bir shahar kabi
eshiklaringni ochishing nechog‘li go‘zal...
Beshikda uxlayotgan chaqaloq yanglig‘
ko‘zlarimga cho‘mib ketishing qanday go‘zal...
Zaytun donasi kabi meni o‘zingga botirib,
ismimni dudoqlaring orasiga olishing qanchalar
go‘zal. Issiq nonga muhtoj bo‘lib, uni topgach
iforini to‘yib hidlagan faqir kabi boy holda meni
senga berganga, seni menga berganga shukur
qilish qandayin go‘zal... Menga bularni
yozdirishing qanchalar go‘zal... Qanchalar
go‘zalsan...*

“

*Bir parcha go‘shtning ortidan yurar ekansiz,
ko‘zlarda qanday gunohlar qilinmoqda...
Hayosini birinchi bo‘lib yo‘qotgan, aslida,
ko‘zlardir...*

X

UNGA TEGINMOQ

Ehtimol, ushbu bo‘limning sarlavhasini o‘qiboq har xil xayollarga borgandirsiz. Orangizda ko‘zлari katta-katta ochilib ketganlar ham bo‘lgandir-a?

“La’nat bo‘lsin senday odamga! Uyalmaysanmi, hayvon, afsus, kitob uchun pulimga achinaman!” — deganlar ham topilar.

Sizga: “Fikringizni aytинг”, — dedim. Ammo hech kimdan sas-sado chiqmadi. Bu nima degani? Sukut alomati — rozilik. “Nima qilsang, qilaver”, — degani. Oh, bu ajoyib-ku, axir... Siz ichingizdagi farishtani do‘konga non olish uchun chiqarib yuboring, so‘ng shayton bilan birga sigaret chekkancha meni kuza-tting. Xo‘s! Xo‘s! So‘nggi lahzalar! Qani, bu odam nima qilar ekan... Qiziqish eng yuqori cho‘qqida...

Yaxshi, shunday ekan, unda o‘zim boshlay qolay, nima bo‘lsa, bari tezroq bo‘lsin. Qolaversa, hayot o‘zi bergan taqdirlni boshimizdan o‘tkazgan bir kechalik munosabatga o‘xshamaydimi? Ish bitganidan so‘ng keyingi safargacha birov birovni tani-maydi. Xuddiki stol ustiga qo‘ylgan pul va yotoqda qo‘shilib ketgan soch tolalari kabi... Ochiq-oydin gapiryapman-a? Vah, mening begunohlarim, vah, mening taqvodorlarim! Sizni bunaqa narsalardan sira ham xabarizing yo‘qmi?

Aystsangiz-chi, takror aystsangiz-chi... Bolalikdan beri pin-hon ish qilishga o‘rgatilgan insonlar sifatida nechtamiz ayrim narsalarni o‘zimiz uchun tan olamiz? Biz uchun to‘g‘ri sanalgan narsalarni gunohkor insonlardan o‘rganganimizdan keyin o‘sha

to‘g‘ri deb bilgan ishlarimizning qadri qoladimi? Albatta, e’tiqod hamda umume’tirof etilgan urf-odatlarga rioya qilish jamiyatni ushlab turgan qadriyatdir. Ammo nega kattalarimizning birortasi bilan ayni shular haqida gaplasholmaymiz? Otamiddan yoki onamizdan bularni nega so‘ray olmaymiz?

Tag‘in gaplaringiz qulog‘imga chalinyapti: “Xulosaga o‘t, senday aql beradiganlar shundoq ham ko‘p!”

Tinchlaning... Tinchlaning... Meni ushbu majburiyatning ostida o‘zingiz qoldirdingiz va bu yer endi mening makonim. O‘ynayotgan to‘pingiz meniki. Jig‘imga tegsangiz, to‘pni olib qo‘yaman. Buning rohatini ko‘radigan yolg‘iz menman, siz esa istagancha nolishingiz mumkin. Sezmadingizmi, xohlaganimni yozmoqdaman, xohlaganimnigina so‘zlab bermoqdaman.

Yozishning eng yaxshi tomoni ham shu: o‘zingiz qaror qiluvchi bo‘lasiz. E, fikringizning ahamiyati yo‘qmi? Ishoning, hozirgi vaziyatda mutlaqo ahamiyati yo‘q. Boya fikringizni shunchaki rasmiyatçilik uchun so‘ragandim. “Biroz bo‘lsa-da, xayolingiz chalkashsin”, — dedim va buni uddaladim. Siz bularni o‘qir ekansiz, bo‘lishi kerak bo‘lgan ishlar bo‘lib o‘tdi va alla-qachon nihoyasiga ham yetdi. Nima bo‘lganini bilaman, qiziqa-yotganlar esa sizlar... Ammo orangizda kimdir “Sening bu ishlarining menga nima, o‘zingning shaxsiy hayoting bu”, — deydigan bo‘lsa, kitobning shu yerida haliyam nima qilib o‘tiribdi? Mayli, vaziyatni chigallashtirishdan foyda yo‘q. Aniq o‘mini eslolmayapman-u, ammo hikoyaning qayeridadir: “Orqaga suyanib oling”, — degandim, o‘shanday o‘tirishda davom eting.

“Nima uchun”, — deysizmi? Bo‘yningiz og‘rimasligi uchun. Ko‘zingizni asrash uchun kamida bir qarich masofa bilan, ruhiy salomatligingiz uchun esa yigirma daqiqalik oraliqda o‘qing. Mendek yozuvchini boshqa qayerdan topasiz, hamma narsangiz-

ga qayg‘uryapman, axir. Har bir narsangiz bilan shug‘ul-lanyapman, ayrimlaridan tashqari, albatta... Iltimos, menga qarang, endi siz bilan do‘sit bo‘ldik. Har bir gapimning tagidan buyruq ohangini qidiravermang, iltimos. Menga qarang, sizlarga yana bir narsa haqida so‘zlab bermoqchiman.

Kimdir haqida o‘ylash bor-ku, yegan ovqatidan, ichgan suvi-ga qadar... Yurgan yo‘lidan tortib olgan nafasigacha — barini o‘ylab qayg‘urasiz. Nega? Chunki *unga* yaxshi bo‘lishini istaysiz. Chunki *U* siz uchun juda qadrli. O‘ngingizda, chapingizda, yoningizda, oldingizda kim bo‘lsa, bari siz uchun ahamiyatsiz. Birozdan so‘ng o‘ylab ko‘ib fidokorlik so‘zi boshingizdan ke-chirganlaringiz oldida naqadar kamtar ekanligini anglab yetasiz.

Yo‘q, siz haqiqat deb hisoblaganingiz uchun barcha ko‘rib turgan narsani haliyam idrok etolmayapsiz. Hayotingizni shaf-qatsizlarcha ishg‘ol qilgan (hozir o‘sha ishg‘olni eslolmaysiz ham), lekin o‘z vaqtida sizni ko‘p bora aldagan bir inson sizning mehmoningiz bo‘lmaganmi? Tag‘in o‘ylashga qo‘rqyapsizmi? Yoki eslatganim uchun mendan ranjidingizmi? Eslamaslik uchun ustini yopib qo‘ygandingiz, shundaymi? Hatto qalbingizning eng tubida saqladingiz. So‘raganlarga esa: “Unutdim”, — deysiz.

Doim tilimdan tushmaydigan jasorat ayni shu yerda o‘zini ko‘rsatmoqda. “Yo‘q, u unutgan bo‘lishi mumkin, ammo men unutmadi”, — deyish ham ranjitadi, ham qalbingizni og‘ritadi.

Qo‘rqmang va unutmang. Hayotni bu holda yashab bo‘lmaydi. “Bo‘lari bo‘ldi, ammo tugamadi”, — deng va baridan qutuling. Bu yerda vijdoni xotirjam bo‘lishi kerak bo‘lgan odam, ha-qiqatan ham, sizziz. Shuningdek, so‘raganlarda biroz o‘ylov bo‘lsa, ko‘zlariningga tik qarashga jasoratlari bo‘lsa yoki ichla-rida fisq-u fasod bo‘lmasa, sizdan *uni* so‘rashmaydi.

Allohim, yana takror aytaman: bu ayol na qadar go‘zal!

“

*Qachonki: “Bir nafasda hayotimni topdim”, —
desam, har bir nafasda bir parcham yana nobud
bo‘ladi.*

XI

AYTMAYMAN

Ha, aksariyatingiz yanglishdingiz. Hozir uning ustidagi liboslarini qanday zavq bilan yechganim, ichkiyimlarining rangi, tanasining qandayligini aysaydim, meni ham haqorat etardingiz, ham xayolingizda tasavvur qilardingiz. Vaholonki, bularni aytmayman. Nima uchun? Axir, mening ham o‘z shaxsiyatim bor. Bir marta sir bo‘la qolsin. Haliyam qiziqib turibsiz: “Nima qildi ekan-a? Teginindimi, teginmadimi, tegingan bo‘lsa, qay darajada?”

Buni mendan ochiqchasiga bilolmaysiz. Ammo biroz sabr qiling. Kitobning oxirida buning javobini o‘zingizdan topasiz. Hoy, kitobning so‘nggi sahfalarini oolib ko‘rish yo‘q! Unda nima qizig‘i qolardi? Hayot sizga kutishni va sabr qilishni o‘rgatmadimi?

Menimcha, mavzuni o‘zgartirish fursati yetdi. Buning vaqt kelganini qayerdan bildim, aytaymi? Tag‘in ko‘p savol berayotganim g‘ashingizga tegmasin. Savol bermasdan bir•bir xatolikning yechimini topa olmaysiz. E’tibor bering, xatoliklarga qanday javob berishni aytyapman. Holbuki haqiqatlar savollarga o‘rin qoldirmaydigan darajada ochiq-oydindir. Qolaversa, hayot ishtiyoqidan tez-tez so‘z ochmoqdaman. Qancha narsani o‘rganiganimni qo‘yib turing, qanchasiga kech qolganimni anglab yetdingizmi?

Aslida, barchamiz dunyoga kelish uchun millionlab urug‘-larning umrini o‘g‘irlaymiz. Ko‘pchilik dunyoga kelishga ham ulgurmay ona qornidayoq halok bo‘ladi. Ular hatto o‘z joniga qasd qilish imkoniyatiga ham ega emas. Chindan ham, ahvolimizga nazar tashlab aytadigan bo‘lsak, ular ham biz kabi onasidan tug‘ilganiga ming bor pushaymon bo‘lardi. So‘ngra hayot bizga bir eslatma yozib qoldiradi: “Siz endi o‘la olmaysiz”...

Ayni damda shunday e’tiroz bildira olmaymanmi: “O‘lishga o‘lmayapmiz, lekin yashatmayapsan-ku”. Buni tijoratga aylantirishning nima keragi bor edi? Biz shunday insonlarmizki, boshimizdan o‘tkazgan yoki o‘tkazmagan barcha narsalarimizdan kimlardir, albatta, pul ishlaydi. Hatto olgan nafasimizning ham badali bor, yolg‘onmi yo? Puli borlar omadliroq ko‘rinadi. Suvning ham eng sifatlisini ichishadi. Uylari katta-katta, dengiz sohilida joylashgan, yozgi-qishki xonalari alohida. Eng yaxshi jihozlangan kasalxonalarda vafot topishadi. Garajlarida bir dunyo mashinalar bor, tug‘ilajak bolalariga amerikalik doktorlar doyalik qilishadi va shu tariqa ikki fuqarolikka ega bo‘lishadi. Yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Ammo e’tibor bersak, ular bizdan (biz deganda, asosan, o‘zimni nazarda tutyapman, sizning qancha pulingiz borligini qayerdan bilaman) unchalik ham farq qilishmaydi. “Pul bilan baxtga yetib bo‘lmaydi”, — deb qat‘iy ishongan odamlardanman. Ehtimol, sizning atrofingizda ham juda boy bo‘lishiga qaramasdan qalbi notinch, nima qilishini bilmay turgan insonlar bordir. Hamma narsani ko‘rgan, bilgan va shu hamma narsa aslida hech narsaligini anglab yetgan kishilar. Kuzatsangiz, cho‘ntagining o‘ng-u so‘lidan — hamma yog‘idan pul otilmoqda. Xuddi yurib turgan zargar kabi... Barmoqlarida, kim bilsin, necha karatlik olmoslar, bo‘ynilarida marjonlar, bitta kiyimni ikki marta kiyish-

maydi. Yuzi kulgidan to‘xtamaydi, ammo ichida zulmatli xonalarni yoritadigan sham nurini ham topolmaydi.

Nega birdan boylar haqida gapirib qoldimmi? Hasad qilyapmanmi? Ha, ba’zida... Rostgo‘y odamman, hasad qilganimni ham tan olaman. Bularni aytish ortidan hasad qilishimning sabablarini oshkor qildim. Men nozik ishoralar qilishni yaxshi ko‘raman, insonlarning so‘zlarimda yashiringan ma’noni ko‘rishlarini istayman. Bir-biriga bog‘liq holda ko‘rinsa-da, ammo aslida mutlaqo mustaqil bo‘lgan, nishonning naq markaziga tegadigan gaplarim bor. Men buni *telbalarcha yondashuv* deb atayman. Butunlay jinni emas, lekin kimdir yonimda yaxshilab baqirsa, aqdan ozadigan darajada jinnilikning chegarasida yashayman. Yoki jinnilik boshqacha bir narsa bo‘lishi mumkin. Balki, hamma telbadir? Ehtimol, hayotimizda bizga g‘alati tuyulgan narsalar aslida o‘z me’yoridadir. Jinnining o‘ylaydigan narsasi yoq deb qaraladigan, qilgan hech bir ishiga javob bermaydigan dunyoda, ehtimol, telbalik ato etilgan eng go‘zal ne’matdir!

Bularni aytishimdan maqsadim shuki, kitobning biror yerida tilga ham olib bo‘lmaydigan gaplarni yozsam: “Bu o‘zi jinni edi”, — deyishingiz aniqdir. Ochig‘i, oldindan bahonani tayyorlab qo‘ymoqdaman... Sog‘lomlik haqida guvohnomam yo‘q. Ajablanarli shundaki, bu ma‘lumotnomani olish uchun sinovdan o‘tishingiz kerak. Hozir esa sizning imtihoningizdan o‘ta-man. Xavotirlanmang: bu sinovdan osongina o‘taman va xohlaganlarni ham o‘zim bilan birga olib o‘taman. Ichingizdagagi telba-ning qo‘llaridan ushlang. Axir, telbalar yaxshigina suhbатdosh bo‘lishadi. Siz ham xushsuhbat bo‘lsangiz, ko‘p kulsangiz, demak, ichingizdagagi yig‘ilarni yashirayotgan bo‘lasiz. Insonlar oldida kalaka bo‘lishni to‘xtating. Hammaning masxarabozи o‘z ichida. Odamlar masxaraboz bo‘lmay deb masxaraboz kasbini

o‘ylab topishdi. Bu ham, aslida, boylarning ishi. Ha, endi masxarabozlar ham qadrlanmay qo‘yildi, bu esa alohida mavzsu.

Darvoqe, hojatxona o‘rindig‘ida issiqlik izlash ahmoqlik-a? Qayerdan qayerga, shundaymi? Yerdan topib olgan soch tolangi ni qog‘ozga o‘rab, cho‘ntagingga solib yurish, uni hech kimga bildirmasdan hidlash g‘alatilik emasmi? Biror singan buyumning ovozini eshitish sog‘inchi, yoniga yugurib borib: “Yaxshiman?”, — deb so‘rashni o‘ylamoqlik, rostdan ham, ahmoqlikmi? Hammomning doim iflos ekanligini ko‘rish, dasturxonga ortiq-cha likop qo‘ygach, undagi ovqat yeylimay qolganini ko‘rib yig‘-lash jinnilikmi? Endi umuman shirinlik olmay qo‘yish, muzqaymoq yemaslik, makkajo‘xori pishirayotganlarning yonidan o‘tar ekansiz, iforini olmay deb qo‘l bilan burunni yopish va boshini ters tomonga burish ahmoqona ishmi? Kinoga umuman bormaslik, borganlarga yuzaki havas qilib, ammo ichidan so‘kingancha qachonlardir olgan kino chiptasini kitobning ichida saqlash go‘llikmi?

Bularni qanday atasangiz, atang. Men uchun bunday turg‘unliklarning bir nomi bor. Balki, sizningcha ham biror nomi bordir, ammo aytishni o‘zingizga munosib ko‘rmayotgan bo‘lishingiz mumkin. Azizim, ora-sira aytganim yolg‘izlik va tark etilganlik kasalliklari mana shular. Buni qandaydir charchoq deyishimiz ham mumkin... Yoki qo‘rroqlik!

Do‘sstarim, aslida, men nima haqida gapirayotgandim-u sizlarni birdaniga bu tomonlarga sudrab keldim-a? O‘zim haqimda gapiraman deb siz haqingizda gapirib qo‘ydimmi? Axir, men bo‘lmasam, sizga bularni kim aytardi? Yaralaringizni yangilaganimdan faxrlanaman. Xudo biladi, “Unutganman”, — deganlar ham ayni lahzalarda yaralariga qarab turishgandir. Biroz hajyon, biroz uzoqlarga tikilib qolishlar va ko‘z qiri bilan satr-

larimni o‘qigancha siniq qalb haqida o‘ylash...

Qalb sinishi... Siz shunga ishonasizmi? Sizningcha, qalb si-nishi rosa ajib bir g‘alatilik emasmi? Qalb hech sinishi mumkin-mi? O‘zi bir parcha go‘sht bo‘lsa...

Menimcha, qalb sinmaydi, do‘sstar. Qoliplariga sig‘maydi-gan ahvolga keltiriladi. Ko‘krak qafasi deyiladigan o‘sha yer ham torlik qilib qoladi. O‘z ichida bir qancha xonalari bo‘ladi va bo‘g‘zingizgacha kattalashib keladi. So‘ngra ishq so‘zlari ila tilingizda osilib turadi va ketidan kimdir uni tashqariga tortib chiqargancha oyoqlari ostiga tashlaydi. U chin ma’noda uning ustida sakraydi, ezadi,sovuvda qoldiradi, biz esa bu holni jimgi-na kuzatib turamiz. Xuddiki halok bo‘lgan boshqa bir odamning qalbi kabi negadir shunga qo‘yib beramiz. Azoblanishimiz sev-ganimiz sababidan bo‘lishi mumkinmi? Yo‘q, menimcha azobla-nishdan-da o‘tib ketasizki, nima bo‘layotganini anglamay qolasiz ham. Orada bir qalb halok bo‘lmoqda va siz uning uchun shun-chaki birozgina xafa bo‘lasiz, xolos.

Qo‘rquv... “Ketib qolsa-chi?” Bu qanchalar yomon xayol? Bizning qo‘l-oyog‘imizni bog‘lagan jumla ham aslida shu. Hozir sizga aybdor haqida xabar berdim. Vujudingizning qayeridadir hamon shu jumla yashayotgan bo‘lsa, uni, àlbatta, yak~~on~~ qiling. Hatto bu ishga mukofot belgilayman. O‘lik yoki tirik holda tutib menga keltiring. Siz qilmasangiz, bu safar o‘zim bajaraman.

XII

O‘TMISHGA QAYTISH VA MAKTUBLAR

Avvalgi bo‘limda ko‘p narsa aytmadim. Aniqrog‘i, bu mavzuga aloqador ko‘p narsadan so‘z ochmadim. Aytganimday, mening ham shaxsiyatim bor. *Qoramag‘izimni* uyquda qoldirgan holda sizga oz bo‘lsa-da, o‘tmishimdan so‘zlashni istayman. Bu mening birinchi kitobim emas... Mavridi kelganda oldingi kitobdan ham bir nechta bo‘limni baham ko‘rmoqchiman. Voz kecha olmagan, o‘zligimni tasvirlaydi deya hisoblagan yozuvlarimni sizga taqdim etaman. Barchaning hayotida qog‘ozga tushirilgan, lekin sohibiga jo‘natilmagan maktublar bo‘ladi. O‘shalar ham shu yerda bor. Telefon qilib gaplashishga baribir jasoratingiz yetmaydi. Ado bo‘lgan munosabatning ortidan borishga ko‘pchilikning g‘ururi yo‘l qo‘ymaydi. Qanday yo‘l bersin, axir? Ikkinchi bo‘lim esingizdami?

Insonning hatto ofitsiant ham kassa qutisiga tashlashni lozim ko‘rmagan mayda, qiymatsiz bir chaqaga teng holga tushgani haqida aytgandim. Atrofimizda shu holimizni kutib yurgan yaqinlar-u, qarindoshlarga nima deyish kerak? Agar yiqilsak, o‘sha zahoti ustimizdan bosib o‘tishadi. Shunday ekan, ularni ham ayni shu yerda eslab o‘tishni lozim ko‘rdim. Ha, ismini aytmasdan,

ularning ichlarida, albatta, *u* ham bo‘ladi. Garchi tan olishni istamasam-da, yiqilishimni sen ham kutganding... Xohlamasang ham, boshqalar singari meni kuzatding...

To‘g‘ri, e’tirozlarizingizda jon bor, do‘stilarim, darhol sezdingiz... “Holbuki undan xafa emasman, xafa emasman”, — deb bong urib yotgandim-ku? Mutolaada davom eting. Hech kim bilan hamsuhbat bo‘lmasdan, shunchaki boshimdan o‘tganlarni shu yerga yozib, siz ham bularni his qilgan yoki qilmaganingizni bilmoqchiman, xolos. Bularni parchalarga bo‘lingan holda o‘qy-siz va bu safar orasiga izohlarimni qo‘shtiray ketaman. Bularni hozir yozmadim, davomli bir shaklda va jonim azoblangan lahzalarda... Bularning barchasi maktublardir. Yozildi, ammo *uning* xabari bo‘lmadi. Marhamat, o‘zingizga qulay tarzda o‘qing!

SIRLARIM TO‘KILMOQDA...¹

Charchadim, do‘stim, charchadim. Mahzun bir kechaning sarxush qo‘shiqlari tilimda aylanib, o‘limni eslatishidan charchadim. Bu men eshitgan eng yaxshi qo‘shiq emas edi, lekin ichish istagimni uyg‘otdi. Bir qultum, so‘ng yana bir qultum... Ba‘zi narsalarni yolg‘iz hal etishga urinish shunchaki inson boshiga qiyinchiliklar olib keladi. Ayblaringdan alamzada bo‘lasan. Buni esa ichingdagi kurashlar, ichingdagi dengizlarni to‘kkancha yana yig‘lab amalga oshirasan. Hammadan boshqacha bo‘lsin deya ko‘z yoshlaringga rang berishga urinish qanchalar mantiqli? Aslo yo‘q. Yig‘layotganimda ko‘rmasam ham, biroq boshqalarни yig‘latar ekanman, ko‘zlaridan yoshlari oqqanda ko‘rganman. O‘zimni aldagani bir holda o‘sha bolalarcha o‘yingga umidsizlarcha qaytmoqdaman. Taxtaning bir tomonida men, boshqa tomonida boshimdan o‘tkazganlarim. So‘zlarim va sukultarim ichimda chayqaladi. Dorning eng baland joyiga osaman, osilaman, oyoqlarim hech yerga tegmaydi. Ammo insonni kuchli qilgan jihat oyoqlarining yerga tegib turishi-ku? Bu qanday yolg‘on bo‘ldi? Menga kim o‘rgatdi yoki men kimdan o‘g‘irladim zavq olmasdan o‘ynashni?

Quyosh nuri qurigan shoxlarimga hayot bersin deya o‘zimga yangi deraza ochishga harakat qilar ekanman, suyak-suyaklarimga qadar muzlab ketgandim. Shahar taloto ‘pini tark etib,

¹ “Dudog‘imdagi ifor” (Halis Karabenli)

"mozor"imni qishloqlarga ko'chirdim. Oshib o'tishim kerak, oshib o'tishga majburman ham. Bu safar hamma qilgan ishni men ham qila olaman degan o'ydamani. O'limga chora izlagan va o'ladiradigan nomsiz virusni yuqtirgan xastalar kabi hayqirmoqdamani. Atrofimdagilarga yozadiganlarim va yonimda bo'l-maganlarni tiz cho 'ktirishim, albatta, boshqacha bo'ladi. Ammo ba'zi so'zlarning inson ichida qolib taftini his qilishi ham yolg'izlikni kuchaytiradi. Bu tabiatimdan voz kechishga urinyapman. Sukut saqlash uchun qasamlar ichyapman. Ismingni aytib, hayqiriqlarimni sassizlik bilan bostiryapman.

So'ngra aytamanki, ehtimol, bunday so'zlar bilan gaplashish yolg'izlikka istaganini bermaslikdir. Yozish uni o'z-o'zidan halok qiladi. Bir to'xtamga kelolmayapman. Bir qarasam, qo'limda qalam va bo'm-bo'sh siyohdonlar turgan bo'ladi. Harflar kamlik qilmoqda. Bu safar yangi bir sayohatga chiqmoq uchun: "Hozir bo'l", — demoqchiman.

O'zim uchun maxsus harflar yaratyapman. Meni tasvirlar va undan uzoq... Kesimlarga ko'p ma'no yuklamoqdamani. Bo'lishsiz mazmunni anglatuvchi fe'llardan foydalanyapman. Singan qadahlar kabi bo'g'inlarim bo'lak-bo'lak bo'lib ketmoqda. Jo'g'rofiyam o'zgarib, chegaralarim toraymoqda, ammo bir xil yo'nalishda qisqarishda davom etmoqdamani. Juda kuchliman, shunday emasmi? Kayfiyatim ko'tarinki ruhda. Hayotimdan chiqarib yuborganlarimni avval o'tda yoqib, so'ng kullarini har tomonga sochyapman. Shamol hamrohligida kullarning ortidan yugurishga ham sabablarim topiladi.

Vaqt o'tganidan erisha olmaganlarimiz aslida arzimas narsalar ekanligini bilish insonni xotirjam qiladi va menimcha eng og'iri shudir. Sendan voz kechganlardan ko'nglingning voz kecha olmasligi... Barchasining tugaganini bilib turib, oxiringni

bilolmaslik qo 'rquvimga qo 'rquv qo 'shib boradi. Boshlagan va yozishni istagan, ammo yo 'qotib qo 'ygan so 'zlarimning oldim-dan oqib ketayotganiga guvoh bo 'laman. Ha, oqib ketyapti, vaqt kabi, suv kabi, qon kabi... Ehtimol, ana endi g 'alaba qozonmoq mag 'lubiyat ekanligini tushungandek bo 'lyapman.

Ziddiyatlarga qarshiman, axir, men anarxistman. Bir sevgi-ning qanday yakun topishi ta 'bir joiz bo 'lмаган izohlar bilan anglatilmaydi. Seni sevganim ikkimizning ham maxfiy qolishimiz uchun edi. Ammo hozirda barchasini hal etyapman. Hal qilaman va hal qilmoqdaman.

Muhabbatning dini, tili, irqi bo 'lmaydi, men esa gunohga botyapman. Nasl-nasabimni inkor etmagan holda guvohlik bera-man. Endigina imonga kirgan bir e 'tiqodsiz kabi ismingni tilim-da aytib turibman. Xullas, suv kabi oqib ketmoqdaman. Yo 'limni topyapman, yo 'llarimni ayiryapman. Zotan ayriliq va kamsitish-lar odat tusiga aylanib bo 'ldi. Inson ko 'rgan narsasidan orqada qolmasligi kerak, buni sendan o 'rgandim. O 'rgatmoqchi bo 'l-ganlaringni hammasini bir o 'quv yiliga tiqishtirib, uquvsizli-gimizni qayta imtihonga qoldirgan kuningdan buyon sentyabrni kutyapman. Sen ham bilasan: yangi ayriliqlarning tamali shu oyda qo 'yiladi. O 'z imtihonimdan bir amallab o 'tsam ham, baribir, ishq olamida nomim chiqadi. Hamma o 'ynab kulayotganida men o 'zimni sensizlikka tayyorlayotgan bo 'laman.

Afzal tomonlarim bilan ortish o 'rniga kamayib boryapman. Yordam berishni istaganlarga esa ozor beryapman.

Kelmasligingni umid qilaman. Seningcha, bu g 'alati, shundaymi? Zotan, bilaman: ishqimiz takrorida tag 'in mag 'lubiyatim ham takrorlanadi. Biroz yanglishish ehtimolim bo 'lsa ham, o 'zimni bunga ishonchim komildek tutaman.

Bilmassan, sevgilim!

Insonlar ham bir oyna kabidir...

Sirlari to'kilgach, haqiqiy yuzlari ochilib qoladi va orting-dan choh qazishadi.

Nima demoqchiligidagi tushunyapsanmi? Sirlarim to 'kilyapti, tinchimni yo 'qotyapman. Asta-sekin oshkor bo 'lib bormoqdaman yoki o 'zimni tamomila yopib olyapmanmi, bilmayman. Chalkashib ketdim. Paydar-pay bir holda sendan uzilib boryapman-u, sekin-sekin qolgan insonlardek o 'xshab ketyapman.

Garchi to 'laligicha uddalay olmasam-da bizni biz qilgan hamma narsamizni tark etmoqdaman. Buni bir marta bo 'lsa ham qilishim kerak. Bir bora bo 'lsa-da, vaqt kelganda ketishni, ket-kazishni uddalashga majburman.

Balki, ayni damda ishonmassan, ammo sen menga bevaqt kelganing kabi hamon ketadigan vaqting bo 'ldi deb ham o 'ylamayman.

Seni o 'ylayapman. Uyalyapman. Ahvolimni ko 'r! So 'nggi satrlarimda yozgan hamma narsamni qanday inkor qilyapman.

XAYOLIMDA GO‘ZAL QOL¹...

Mana, bugun yana bir kun o‘tdi. Biz kechagi kunga yana bir kun kech qoldik. Sen bilan ertangi kunlarni yashamoq xayolimdan o‘tmaydi ham. Shu sababli ikkimiz doim kechagi kunga kech qolamiz. Kechagiday, o‘tgan hafta va o‘tgan oydagiday har kungi yolg‘onlarim bilan o‘zimni aldab kelyapman. Qachondan beri? Eslolmayman, o‘tgan yili yolg‘on gapirganmidim? “Sira sog‘inmadim”, — demoqchiman, ha, sog‘inmadim... Axir o‘zimni yaxshi bilaman: sog‘insaydim, buni senga aytgan bo‘lardim.

Ayrlıqqa qay tomonidan qarasang, qara, endi bir tomoningni aslo ko‘rolmaysan. Sening bir tomoning boshqa tomoningning yoniga yaqinlasha olmaydi. Oyoq tovushlarini eshitmaslik uchun ortidan yuguradi. Va sen barcha qiyomat alomatlarini inkor etgan holda har tong mening mag‘ribimdan chiqib kelasan. Har tong yaproqlarimga shudring bo‘lib tushasan. Sovuqligingga parvo qilmay “Quchsin, quchoqlasin”, — deyman. Barcha jarohatlar kun kelib quchilmaydimi? Quchilishi kerak edi.... Shu sababdan ham seni qalbimni qonatar darajada quchmadimmi?

Bo‘sh qoldim deguncha xayolimning ovloq bir yerlarida darhol nafasing bilan ruhingni qalbimga bog‘laysan. Zanjirini uzgan haqoratlarda uyat bo‘lmaydi. Undan ko‘ra senga “Ket”, — deyish osonroq bo‘lar edi, ammo kel, jinniginam! Kel, kel, rafiqam... “Seni sevaman”, — deyish yanada jozibali eshitilar.

Nima his qilayotganimni bilmayapman: xayollarim tarqoq, idrokim o‘lik. Bilasanmi, idroki o‘lik odam telbadan-da telbaroqdir. Menga in’om etilgan barcha qobiliyatlarimni birma-bir

¹ Xayolimda go‘zal qol (Halis Karabenli).

ulashyapman. O'zim bilgan barcha narsalardan sekin va ishonchli qadamlar ila qutulishga urinyapman.

Ziddiyatlarim qurshovidaman!

Ba'zan yanada ko'proq yashay olishim uchun seni bo'lak-larga ajrataman. Har bir bo'lagingda xayolimning bir chetidan joy oladigan eski xotiralarni topaman. O'zimga savol beraman: ishq yo'lidagi yagona qurban menmanmi? Hech shubhasiz, shubhalana boshlayman. Sening ilk jinoyating men emasman. Yo'qsa, meni bunchalar azoblamasding. G'alati bir shaklda o'z savollarim bilan ovora bo'laman. Kelajakka nazar solgancha o'zimdan keyingilarga rahmim keladi va sendan qolgan jarohat-larga og'riq qoldiruvchi malham qo'yaman.

Qarashlaring yana qancha shaharning gunohlarini ko'pirtirar-a?

"Sevgilim", — deyishlaring tag'in qancha oshiqni yo'ldan ozdirar?

Menga yana necha bor hayot bag'ishlab, tag'in necha bor yakson qilarsan?

So'yla, sevgilim!

Yana qancha qochqinni qistirasan jag'imning ostiga. Ayvon-larimgacha limmo-lim to'lib ketding. Bas, yetar tomog'imga tigilganing...

Isyonim uchun ma'zur tut. Ba'zan maqsadimni oshib, to'rt misradan ham uzun (ko'proq) yozgan paytlarim ham bo'lib turadi. O'zimni tamomila yo'qotib qo'ymay ortimda nimalarnidir qoldirishga urinmoqdaman. Hech bo'limganda xotirlab turishlarini istayman... Hech qachon yashamagandek bo'lmasligim lozim. Hech bir narsa ixtiro qilmadim. Yoki kishilarning hayotini osonlashtiradigan oddiy, ammo samarali yechimlarni insoniyatga taqdim etmadim... Muammolar yaratishdan boshqasiga

yaramadim. Nobakor yolg‘izligim faqat atrofimdagilarga zahmatlar yetkazdi. Hushimga kelganimda esa satrlarim kesildi birdan. Tilimni yutdim, ichimda jonsiz harflar mozorini yaratdim...

Xo‘s, birinchi bo‘lib ketmoqlik “Seni sevaman”, — degan insonning haqqimidi? Hozir haqli emasmanmi? Sen sukut saqlab turar ekansan, ushbu iddaolarimni tilga olmadimmi?

Yoki ketmoqlik ba‘zan o‘z joyida qolish bilan bo‘lurmi?

Turgan yeringga kimdir, chindan ham, keladimi?

Qolsam, ketgan bo‘larmidim yoki ketsam?

Har galgidek savollar qanchalik oson bo‘lsa-da, ularni o‘zim murakkablashtirib yubormoqdaman. Vaholonki, bilganimni bilmaslikka olishga urinishim meni shu holga tushirdi. Yo men bir yo‘l tanlashim kerak, yoki menga bir tanlov berishing kerak. Masalan, bugun barcha so‘zlarni to‘kib-sochishimni hisobga olgan holda senga bo‘lgan alam va g‘azablarimni tilga olmoq-chiman. Nima deysan? Qo‘llarimga tushmasang-da, hech qursa, tilimga tusharsan. So‘ngra esa tag ‘in sochlaringning iforini taratib turgan chog‘ingda sendan “Nega ketding”, — deya so‘rab o‘tirmasdan seni quchib olaman. Xuddi yosh go‘daklar yanglig‘ ko‘zyoshlarim ila tizzalaringni ho‘l qilaman va yurak-bag‘rim yorilib ketgunga qadar ovozingni ichga yutaman. Sen ham qarab turmaysan. Ketganiningdan so‘ng barpo etgan devorlarimni mushtlaysan. Pardalarimni ochib tashlagancha oynalarni sindirasan. Ishon: ana o‘sha siniq shishalar uzra yalangoyoq yuraman. Qo‘rqma, axir, men qo‘rqmayapman-ku. Bilasan, og‘riqni tez unutaman. Qolaversa, og‘riqlarning hech biri sen qoldirgan jarohatlar kabi azoblamaydi. Ko‘p narsa istayapman-a? Ammo seni eng zaif tomonim-la sevdim. Ha, ha, hech ham g‘alaba qozonmoq haqida o‘ylamay faqatgina o‘zimni senga topshir-moqchi edim, xolos. Gunohlaringni olmoqchi bo‘ldim, umrimni

umringga qo 'shishni istadim.

Bu safar senga bosim o 'tkazmoqchi bo 'layotganimga parvo qilma... Qolaversa, shikoyatlarimga ham qarshi chiqmay qo 'ya qol... So 'nggi imkonimiz va begunohligimizdan yo 'qotganimizni anglamoqlik azobi jag 'imni tindirmayapti... Eng to 'kis baxtni in 'om etuvchi o 'zingsan... Shu uchun men tufayli qalbing xotirjam bo 'lsin va baxtli bo 'l, sevgilim. Ha, jonim chiqib bormoqda, seni o 'zimga tortmoqlikka urinyapman.

Xayollariningda endi yo 'qman. Barcha beo 'xshov va qashshoq tashbehlarimdan uzoqqa — ojiz tomonimga ketmoqdasan. Ammo barchasi o 'zing o 'ylagandek oson bo 'lishini kutmagan. Aslo! Shuni bilki, sen ham hali nadomatga to 'la ko 'zyoshlarni boshdan kechirasan. Tunning shunday bir lahzalarida yuraging zirqirab ketar. O 'zingni qog 'oz singari g 'ijimlab, bir chetga uloqtirishni istab qolasan. G 'ujanak bo 'lib olgancha yaralaringni ming bir azoblar ila bekitasan. Jarohatlaringga tuz bosasan.

Uf! Uf! Baribir, yuragingni xotirjam tut. Ishingda aslo nafratga o 'rin berma va boshimizdan kechirganlarimizga pushaymon bo 'lma... Zotan men endi yo 'qman. Yaxshi qol, baxtli bo 'l... Xayolimda go 'zal qol... Ilk bor uchratganim kabi va o 'sha uchrashuvda bo 'lganing kabi... Seni bir lahzaga bo 'lsa-da o 'zimdan uzoqlashtirishga urinmayman, qo 'limdan kelmaydi ham. Qaragin-a, seni hamon mehr bilan quchgancha ohistalik bilan bag '-rimga bosaman. Unutmagan: muhabbatning tili emas, qalbi toza bo 'lmog 'i lozim. Meni qanchalik la 'natlasang ham, aslo o 'tmishimizga tegma, tegishlariga yo 'l qo 'yma, tegmasinlar...

Yetarlicha ado bo 'ldik yorni deb tag 'in bir pog 'ona pastlamaylik. Oyoqlar tagiga yanada yaqinlashmaylik. Na senga, na menga kuyunmaslar. Oramizga bir tomchi ham sharmandalik kirmasin.

MAKTUBLARIM

Ayni bolaligimdagidek edi. Yiqilib tushganim hamon o 'rnim-dan turishga astoydil uringancha "Birov ko 'rib qolmadimi?"—deya atrosga alanglardim. Negadir odam bolasi yiqilishdan uyaladi. Garchi bunday holga ko 'p bora tushgan bo 'lsam-da, ammo bu galgisi o 'zgachadek edi. Go'yoki yiqilishimni intiqlik bilan kutganlar bor edi. Hech narsaga ahamiyat bermagan bo'-lib, ustimdagi changlarni qoqdim va tishimni tishimga qo 'yib jon azobini bekitishga urindim. Darhol uyga, ya 'ni onamning yonlariga yugurib bormoqchi bo 'ldim. Negaki onam ahvolimni tu-shunardilar. Zotan onamning bag 'ri yig 'lashim uchun eng yaxshi joy edi. Biroq ketayotgan chog 'imda endi mening uyim boshqa ekanligini anglab yetgandim. Onaizorim bor edi, ammo nimadir boshqachadek tuyulardi. Yonlariga borsam, "Bolaginam", — degancha bag 'riga mahkam bosishlari aniq edi. Aslida esa bo 'yim onamning bo 'ylaridan anchagina baland... Onamni quchar bo 'lsam, boshlari ko 'ksimga ham yetmasdi... Eh, onamni so 'nggi bor quchganimga ham ancha vaqt bo 'ldi... Qaragin-a, o 'zimni senga shu qadar baxshida etibmanki, ota-onam va boshqa yaqinlarimni quchish-da xayolimga sira kelmabdi.

Go'yoki oyoqlarim o 'zimga bo 'ysunmay, atrofimda aylanib yurgandek bo 'ldi. Necha bor yo 'nalishimni o 'zgartirsam-da, yana o 'sha turgan yerimga qaytib qolaverdim. Go'yoki jon taslim qilayotgandek yiqilgan joyimga tikildim, so 'ng esa o 'zimga... Tag 'in yo 'q eding. Hech bo 'lma ganda yiqilganimga his etishingni istagandim. Biroz bo 'lsa ham jonim qiynalganini tushun...

Negaki inson garchi o'tmishda bo'lsa ham, kim bilandir bir tishlam non, bir qultum suv, bir xil havo-yu bir xil qalbni baham ko'rgan bo'lsa, holimni his qilishi mumkin. Oz bo'lsa-da his qili-shi kerak edi.

Hayot yuz bergen barcha narsaning badalini ortitradigan, biroq e'tibor berilmagan bir yo'qotishdek edi. Ochig'i, erkak hecham baxtli emas edi... Qolaversa, ayol ham o'zining ruhiyatiga e'tibor qaratilmaganidan tushunarsiz bir shaklda shikoyat qilardi. Ular vaqt o'tib buning sababini tushunib yetishdi: bir-birlarini tinglamay qo'yishgan edi. Vaholonki, ikkisi uchun ham buning badali to'lab qo'yilgan edi... Endi soxta tabassum-larning haqiqiy zohiri yuzlarida og'riq qoldirar, dudoqlar oraga cho'kkан sukutdan azoblanardi. Tushunmayapsiz... Ayni shu kunga qadar haqiqatlar haqida sira so'z ochishmagan edilar. Sukut saqlamoq azob edi... Suhbatlashib turgancha sukut saqlamoq ham mana shunday bo'lardi. Haqiqailarni go'yoki ko'ngilni behuzur qilgan bir soch tolasidek divanning ostiga uloqtirishardi. Ha, bu jirkanch bir hol edi! Seni sevganlarning ichida chidab bo'lmas yolg'onlar bor edi.

Ehtimol, seni nima uchun sevgan, nima sababdan uchrashib yurgan-u, oxir-oqibatda sen tomon qadamma-qadam yaqinlashib borganini unutgan inson men edim. To'g'risi, seni hech bir ish uchun ayblamayapman. Senga familiyamni berishni istar ekanman, beixtiyor ismingni va o'zingga bo'lgan ishonchingni tortib olgancha o'zimga mahbus qilishim mumkin edi... Biroq bular ayol zotiga qilinishi mumkin bo'lgan eng katta qabihlikdir... Yoki barcha insonlarning birga choy ichib o'tirish haqidagi tasavvurlariga berilib ketdimmikan-a, bilmadim. Ha, nima bo'lishidan qat'i nazar endi bularning hech biri natijani o'zgartirmaydi... Mabodo noto'g'ri sevgan bo'lsam, afv et...

“Og ‘riqlaringni his qilyapman”, — deya bunchalik uzoqdan turib menga achinma... Senda ham alamlar bor, men tomon yaqinlash va meni anglab yet... Istanasang, la’nati qo ‘limdan tutma, ammo qo ‘ng ‘iroq qil... Ovozimni taniy ol, o ‘zing gapplashgan barcha odamlaring orasidan ovozimni ajrata bil. Yoki tilimning mozorida o ‘zing uchun tilovat qil... Mabodo ushbu sukunat tark etmoqlikni anglatса, u holda umrimizning oxiriga qadar sukutda qolaylik... Safarimiz uzoq... Bu qadar sevilmoqqa ana endi faqatgina g ‘alati bir begonalik yarashadi...

Ko‘plab ayollar-u erkaklarning boshidan kechirgan o‘tmishlarini tingladim... Nimalarni his qilayotganimni eshitmay turib so‘zlab berdilar. Doimo qulog‘imning bir tomonida shayton, bir tomonida farishta bo‘ldi... So‘ng o‘yga cho‘mdim: senga o‘limdan boshqa bermagan hech narsam qolmabdi... Voz kechganlarim, sening birlamchi ahamiyatga egaling va shunga o‘xhash hech narsa amalga oshirganlarimni, amalga oshirganlaringni o‘zgartirmadi. Zotan, ba’zi muhabbatlar oxiriga yetmay turib jigmına sarobga aylanardi, yolg‘izim. Tirik holda, hali nafas olib turganda og‘zi-burnidan ichkariga tuproq kirishi kerak edi. Ichki a‘zolari chirib, tanasini o‘rniga aqlini qurtlar bosishi kerak edi. Yoki dengizning eng chuqur qa’riga cho‘kib ketmog‘i kerak edi.

Endi so ‘nggi bor ortga nazar tashlayman. So ‘ngi bor o ‘ng-u so ‘limga boqaman. So ‘ngi bor: “Seni sevaman”, — deyman, o ‘ldira olmaganim!

So ‘ngi bor!

Murakkab tuyg‘ularimni o‘qidingiz. Har kuni necha bor sev-gilar topib, so‘ng yana ularni yo‘qotdim. Nima deysiz? Siz ham boshingizdan o‘tkazgancha bularning barini his qildingizmi? Sevgilar turlicha bo‘lsa-da, biroq ular bergen azoblarning nolasi bir xil deb o‘ylayman. Go‘yo uni unutishni istayapman-u, lekin azoblarimni sizlarga ko‘z-ko‘z qilayotgandekman, shunaqami? Agar biror-bir dard hamon eslanayotgan bo‘lsa, bu uning hali davo topmaganini anglatadi. Ichkarida uxlab yotgan va uyg‘o-nish uchun o‘pishimni kutayotgan farishta bor, men esa qanday-dir bir shaklda o‘tmishimdan qocha olmay turibman. Vaholonki, boyta aytganimdek, u bilan yangi ibtidoni boshlamoq haqida o‘y-lamoqda edim, tag‘in sevish-sevilishni istayotgandim.

Xo‘sh, biror falokat oldiga kelishga kim ham jur’at qila olardi? Xayollarim chalkash, ulami bostirishdan charchadim. Aytganlarim ba’zan boshqasiga mos tushmaydi. Dard-u iztirob-larga ega ayol sevilish nimaligini yaxshi biladi, shunday emas-mi? Ha, bular mening qarashlarim... Albatta, meni sevadi. Sizlar ushbu qisqa bo‘limlarni o‘qir ekansiz, men haqimda “Yoniga borib, *uni* kuzatib turmad”, — deb o‘ylaysizlarmi? Shuningdek, lablarini cho‘chhaytirib, peshonasidan o‘pmadi deb hisoblayapsizlar-a? “Sochlaring to‘zg‘igani-yu kirlanganiga parvo ham qilmay uning iforidan to‘yib-to‘yib nafas olmadi”, — deb o‘yla-yapsizlarmi yoki? Xo‘sh, xavotirlarimning ko‘pligi-yu ularning beg‘uborligini anglab yetdingizmi?

Darhaqiqat, hali o‘zim mehrini qozonmagan bir insonimni yo‘qotishdan qo‘rqmoqdaman. Biroq meni sevmasa, nimani ham

yo‘qtardim? Axir, asl maqsadim ushbu la’nati tunning tongida *uning* bexavotir joyda bo‘lishini ta’minlash emasmi? Bilaman... Bularni bir necha bor ta’kidladim. Ammo zinhor-bazinhor sahifalar sonini ko‘paytirmoq uchun bularni takrorlayotganim yo‘q. Bu kabi chalkash harakatlarimning sababini yodingizdan chiqarmasligingizni istayman. Ayni bir kinoni ko‘raverishdan, ayniqsa, yolg‘iz holda tomosha qilishdan juda charchadim. Biz yolg‘izlik deya atagan illatdan so‘z ochyapman. Goh-gohida meni so‘kinishga majbur qiladigan, uyimning xonalarini o‘rgimchak to‘rlari bilan to‘ldiradigan yolg‘izlik sizlarda ham bormi?

Ichimdagি bir ovoz: “Bora qol endi va uni qanday qilib bo‘lsa-da uyg‘ot”, — demoqda. Meni o‘zimdan boshqa yana kim yaxshiroq bilardi? Men hamon kutishni yoqtirmaydigan, ammo endi o‘zini tiyib turishni uddalay oladigan bir odamman. O‘z-o‘zidan uyg‘ongan vaqtida *unga* shunday bir dunyo taqqdim qilishim kerakki, mendan farqli bo‘lmagan, *unga* yaqin va go‘zal bir yer bo‘lishi kerak... Katta ehtimollik ila aytamanki, ko‘zlarini ochgan ilk daqiqalardanoq qo‘rquv, kuchli bosh og‘rig‘i bilan bir qatorda o‘zini dahshatli sarosimalik ichida topadi... Nimalar yuz bergenini anglash uchun atrofga alanglaydi va “Men qayerdaman?” — deya o‘zidan so‘raydi. Balki, “Voy xudoyim, men nimalar qilib qo‘ydim”, — degancha o‘ziga haqoratlar yog‘dirar. Uy ichida u yoqdan bu yoqqa yurib, xayoliga sumkasini olish kelar-kelmas eshikni izlashga tushib qoladi... Yodiga o‘sha erkak tushar. Avvaliga uni sog‘inadi, so‘ng xayolan unga: “Meni qay ahvolga solding?” — deya nafratini yog‘diradi va ayni damda yotgan karavotiga o‘tirgancha yig‘lay boshlaydi.

Bular fol emas, shunchaki kelajakni juda yaxshi ko‘rib turganimni eslatyapman, xolos. Axir, sizga nima degandim? Bularni boshidan o‘tkazganlargina biladi... Ha, men o‘sha ilk kechada

boshqa bir yerda uyg'onmagandim, ammo ko'p narsani o'ylagandim. Sevdim, nafratlandim, yig'ladim, g'azablandim, bo'shliqni quchoqladim, bir suyanchiq izladim, ammo topolmagan-dim.

Mana, *uning* mendan farqli va omadli bir tomoni bor... Yig'-lar chog'ida yonida bo'laman. Qolaversa, umuman tanimagan bir odamni quchog'iga otilar, ehtimol...

So'ng birdan o'ziga keladi, orqaga chekingancha ko'zlarim-ga tikilib qoladi. Mana shunday mantiqiy fikrlay olgan vaqt-larimda sal avval ayтиb o'tgan xavotirlarimdan qutulganimni, hatto endi yuz beradiganlariga ishonchim komil ekaniga guvoh bo'lasiz. Shunchaki biroz mantiq kerak... Biroz mantiq va sabr bilan shu ishni hal qila olaman. Darvoqe, o'zini shunchalar hor-g'in his qiladiki, ketish yo qolish haqida juda uzoq ikkilanib qoladi.

"Hozir ketadigan bo'lsam, qayerga ham ketardim? Xo'sh, qoladigan bo'lsam, bu yigit kim, nega menga g'amxo'rlik qil-moqda, men qanday qilib bu yerga kelib qoldim?"

Ha, xuddi shu savollarni o'zidan so'raydi. Men esa so'zlash navbatim kelganiga ishonch hosil qilgunimcha sukut saqlab turaman. Tayyorlagan dasturxonimni ko'rsatgancha shunchaki shunday deyishim mumkin: "Ochqagandirsan, biror nima yeb olishing kerak..."

Hozir: "Modomiki, shunchalik dono ekansiz, nega sevgiling-ni qo'lidan ushlab qololmadingiz?" — degan savollar xayo-lingizga keladi. Men ham charchamay, erinmay javob beraman. Bilmagandim. O'sha vaqlarda bunday bo'lishini bilmas edim. Bilganimda ayriliq bilan tugashiga yo'l qo'ymasdim. Xavf-u xatarni sezganimdayoq *uning*: "Biroz uzoqlashaylik", — degan gapni aytishiga ruxsat bermay, ancha oldin boshdan do'ppini

yechgancha obdon mulohaza qilib ko'rardim. Yo'qotmaslik uchun emas, qatl etmasligim uchun nima qila qilishim kerak? Men bu ayolni qanchalik sevaman?

Meni tark etsa, hayotimda nimalar yuz beradi?

Eng muhimi, *unga* boshqa bir kimsaning qo'l uzatishi mumkinligini o'ylay olganimda edi o'nlaracha favquloddagi vaziyatlar rejasini tuzib qo'yardim. Xayolingizga sira kelmaydim? Sizning ixtiyorингизда bo'lgan bir badan endi boshqa bir kimsaning quchoq taftida... O'ylab qarasangiz, haqiqatan ham, chidab bo'lmas tuyg'udir bu... Tez-tez ushbu o'yni miyamdan chiqarib tashlashga urindim. Go'yoki *unga* boshqa bir insonning qo'li tegadigan bo'lsa, mening qo'llarim kesilgudek bo'lardi. Tushuntira oldimmi? Ha, avvaliga barmoqlarim falaj bo'lib qolar, so'ng ishdan chiqadi-yu, oxiri qo'llarim kesib tashlanardi.

Xo'sh, bularni so'zlab berish holatimdag'i xotirjamlik haqida nima deyish mumkin? Hatto sizga ham jahl qilmayapman, hazilashmayapman... Go'yoki ustimga qabr tuprog'i tashlangandek, shunday emasmi? Yo'q, yaxshi ekanligimdan emas. Ayni lahza-larda, haqiqatan ham, o'ta yomon bo'lganimdan... O'tmishga qaytmoq menga yomon ta'sir qildi. Koshki, o'ylamasaydim, koshki, faqatgina kelajak tomon nazar tashlay olsaydim. Koshki, sira koshki demasaydim! Shu la'natni hayot haqida yana biroz aqlilik qilish fursati keldi deb o'ylayapman. Ha, albatta, hayotning o'z qoidalari. Shunchalar oddiyki... Albatta, yana ko'p narsani aytish mumkin, lekin menimcha, shunday, tilingizga hokim bo'lib eshitmaganingizni gapirmang. Sizni nazarga ilmaganni yo'q deb hisoblang... Sog'inilmasdan avval sog'inmang va murosa qilmang... Chunki nima berishingizdan qat'i nazar doim bundan-da ko'prog'ini istashadi. Xo'sh, hozir qay biringiz bularni inkor eta olasiz? Bu qadar ishonch bilan gapirayotganimga

hayron bo‘lmang, ko‘pchiligingizning bulardan xabardor ekaningizga ishonchim komil. Ammo bilganlaringizni mendan yashiryapsizlar. Nima deysizlar? Kitobning so‘nggida biror bo‘sh sahifa qoldirayinmi? Shunda sizlar ham xayolingizdan o‘t-ganlarni yozib qo‘yasizlar. Ayta olmaganlaringiz o‘sha yerda turadi. Ammo ehtiyyot bo‘ling: kitobni boshqa birovga bersangiz, butun shaxsiy hayotingizni olamga yoygan bo‘lasiz. Xotirjam bo‘linglar, bularni ko‘proq kitob sotish uchun aytayotganim yo‘q. Boshqa birovga berishdan oldin o‘sha sahifani yirtib otishingiz ham mumkin-ku...

Sizlardan yagona o‘tinchim shu: ichingizda hech narsa qoldirmang. Aks holda, ich-etingizni o‘zingiz kemira boshlaysiz. Ehtimol, bularni ishonch bilan yozar va aksariyat o‘rinlarda fikrimga qo‘shilishingizni o‘ylar ekanman, hoynahoy: “O‘qishga arzimas ekan”, — dersiz ham. Qarang, endi shuni o‘ylaganimdan so‘ng asta-sekinlik bilan asabiylasha boshladim. Sizga egizaklar burjidan ekanimni aytmaganmidim? Ochig‘i, boyagi xotirjamligimdan endi asar ham yo‘q. Eng kamida birortangiz bilan jan-jallahishni istayman. Orangizda o‘ziga ishongan bormi? Xohlasa, gap bilan, xohlasa kuch bilan... Qani? Kimdir og‘iz-bur-nimni qonga to‘ldirsin-chi.

Yo‘q, do‘stlar! Yo‘q... Shu janjalni biroz chetga surib turaylik, hech bo‘lma ganda hozircha. Burjimning o‘ziga xos bo‘lgan boshqa bir tabiatim: “O‘sha ilk va yagona sevgan ayolningni qanchalar sevishingni *ularga ayt*”, — demoqda. Sizlarga va’da bergenimni esga solmoqda. “O‘rni kelganida o‘zim haqimda yanada ko‘p ma’lumot berib o‘taman”, — degandim-ku, mana shundan so‘z ochyapti.

Uni qanchalar sevdim? Shunaqa bir vaziyat bor: hech bo‘lma ganda boshlanishiga yolg‘izlikni kim bilandir baham ko‘ri-

shing yoqimlimi yoki baham ko‘rgan insoningiz bilan bilan yolg‘iz yashashmi? Ha, bu juda yomon savol. Yoki buni savol deb hisoblamasak, vaziyat iborasi to‘g‘ri kelishi mumkinmi? Atrofimizda beparvolik ila to‘plagan odamlarimiz bilan qanchalik baham ko‘ra olamiz? Yoki oldindan bilgan, tanigan holda tanlanganlarimiz haqida umuman hech narsa bilmasligimiz ayon bo‘lib qolsa, nima qilamiz? Ba’zan kaftimga qarardim va shunda o‘zim unutib qo‘ygan chandiqqa ko‘zim tushardi... Har gal: “Bular qaysi vaqtidan qolgan bo‘lishi mumkin”, — deya o‘yga cho‘mardim. Jarohatlar jiddiy midi, bu ham yodimda yo‘q. Ammo yaxshigina katta edi, shu bois unutmasligim shart edi. Har bir jarohat vaqt o‘tishi hamon shu tarzda unutilmaydim? U holda nega iz qoldiradi?

Ha, endi-endi e’tibor bermoqdaman: o‘sha paytlarda o‘zimga sira e’tibor bermasdim. O‘ttiz sakkiz yoshdaman. Ajab, boshqalarda ham shunday bo‘larmikan? O‘tmishga nazar tashlar ekanman, shu qadar oz narsalarni eslamoqdamanki... Zotan, juda ko‘p majburiyatlar ichida qolib ketmoqdamiz. “Mana shu tug‘ilgan kuning sanasi, shu yerda tug‘ilgansan, mana bu — onang, mana bu — otang, bular — aka-ukalaring...” Bulaning bari haqiqat ekanligini qayerdan bilaman? Hech biri aytilganiday bo‘lmasa-chi? Yo Allohim! Ammo onam deyilgan ayol xuddi onam kabi iforamni hidlardi. Har qanday ayol begona bir go‘dakka chin ma’noda onalik qila olarmikan? Yoki shu qadar ishontira olishlari mumkinmi? Otalar bu borada biroz boshqacha bo‘lishadi, buni bilarsiz. Otalarimizning aksariyati farzandlarini yaxshi ko‘rishsa ham, hayot tashvishlaridan ortib, o‘z mehrlarini to‘la-to‘kis ko‘rsata olishmaydi. Masalan, men otamni yuzidagi ajinlarsiz tasavvur qila olmayman. Xo‘s, men ham otamga nisbatan be-farq edimmi? Uning yuzlariga sira qaramaganmidim? Otamdan

pul so‘rar chog‘imda e‘tiborim ko‘proq uning hamyonini yoki kredit kartalarida bo‘ldimi? Dadajon, sizdan kechirim so‘rashim kerakmi?! Yaxshi, o‘zingiz-chi, men tagimni ho‘llab qo‘ygan vaqtlarimni eslay olasizmi? Tagligimni hech almashtirganmisiz? Bir marta bo‘lsa-da, men uchun tunlari onamdan avval uyg‘on-ganmisiz? Yo‘q, dadajon, sizni bular uchun ayblayotganim yo‘q. Biz hayotning bo‘yin va qorin oralig‘ida yashashga o‘rganib qoldik.

Tag‘in *uni* qanday taniganimni ichki hisob-kitoblarga beril-may turib aytolmadim. Qisqasi, yolg‘iz edim. Ehtimol, yolg‘iz bo‘lmagandirman, ammo o‘zimni yolg‘iz his qilar edim. Zotan u: “*Dunyoning eng go‘zal ayoli menman*”, — deb turgandek edi. Bunga haqli edi. Uni sevmoq kemani yolg‘iz holingda quruqligidan dengizga tushirmoq kabi qiyin bir ish edi. Qachonki taslim bo‘lmoqlikni istaganim hamon meni o‘z bag‘riga bosardi... Chunki ayol zoti quchoqlashganidan so‘ng o‘zining aslo tark etilmasligini bilardi.

Dushanba kuni edi... “Men uni sevsam nima bo‘ladi, u meni sevsra nima bo‘ladi?” — degan o‘ylar bilan boshlamadik. Hatto ibtidomizni sezmagaganmiz ham. Qishning tugashiga hali uzoq vaqt bor edi va kaftlarimda ushbu fasldagi odatiy haroratdan ko‘ra issiqroq taftni — bo‘ynim atrofida uning sochlarini his qildim. Har bir ayolning o‘ziga xos ifori borligini o‘scha kuni anglab yetgandim. Nargiz hidi kelardi. Chinnigullar ko‘chasi... Anqarani bilganlar bilishadi, bilmasangiz, Ahmad Orifdan so‘rang. U ham biladi. Bu yerda gulchilarga ko‘p ham duch kela-vermaysiz, sevishganlar bir-biriga suyangancha o‘tirgan bo‘lishadi.

Biz o‘scha ko‘chaga chiqishdan ancha avval do‘sslashgan edik. Shirin tabassumli suhbatlar, hazillar, asta-sekinlik bilan

umumiy jihatlarimizni kashf qilish, bir-birimizni hatto do'stlari mizdan ham rashk qila boshlaganimiz... Bularning bariga vaqt kerak bo'ldi. Ya'ni o'rtamizdag'i muhabbat uchqun sachraganidek birdan boshlanmadи. Biz bir tartibning tartibsizligi ichida sevishgan edik. O'zimiz ham iqror bo'lmasdig-u, ammo har gal imkon bo'ldi deguncha qo'llarimizni ushslash payiga tushardik.

Ilk bor kim kimning qo'lini ushladi deb qiziqayotgan bo'l-sangiz, ayta qolay, buni men bajardim. Mashinada edik. *u* esa haliyam mashina haydashni bilmasdi. Mendan iltimos qilgani uchun *unga* o'rgatish bahonasida qo'lidan ushlagandim. Qo'yib yubormadim, *u* ham qo'lini tortib olmadi. Ancha paytgacha churq etmadik. So'ngra *unga* quyidagilarni aytdim. Hozir ko'p-chililingiz buni she'rga qiyoslappingiz mumkin. Men esa *u* mening hayotimda mavjud bo'lgan vaqtida *unga* atab she'r yozmaganimni aytib o'tgandim. To'g'risi, ishoning: bular she'r emas. Meni tark etib ketganidan keyingina she'r paydo bo'ldi. Men esa xayolimdan o'tganlarni quyidagicha tilimga chiqargan edim:

"Seni ancha vaqt dan beri sevaman... Ehtimol, sezgandirsan, balki, sezmagandirsan. Yonimdaligingda bir marta bo'lsa-da, charchoq sezmadim: "Biroz tin olayin", — degan kunim ham bo'lmasdi. Biror tanlov yoki majburlikdan emas, qalbim buyurgani uchungina sevaman, qalbimda ekaning uchun sevaman... Ba'zan biror ayb qilib qo'ygandek jimgina turib sevaman... Ba'zida esa ham seni uyaltirish, ham barcha eshitishi uchun bor ovozim bilan baqirgancha sevaman... Biroq eshitmaysan! Ba'zan o'limdan qo'rqqanimdek sevaman. Ba'zan esa hech narsadan qo'rqlmay, avvaldan ma'lum bo'lgandek sening vujudingda o'lib-tirilaman. Fарqing yo'q... Ko'p hollarda atrofdagilardan ajralib turadigan biror jihating tashlanmaydi. Ochig'i, seni ular-

dan oz bo'lsa-da, o'zgacha bo'lishing uchun sevaman. Shu sababli o'zing ham bilmaydigan yerlaringga qo'l uzataman, ammo sezmaysan. Ichki a'zolarning kulganini hech ko'rganmisan? Telbanamo bir narsa bu... Aytsam, sen ham ishonmaysan. Ishon: bu holat menga ham g'alati tuyuladi... Shunchaki gap tuzish uchungina sen haqingda mubolag'a qilmayapman... Zotan, asl filtrating men bilandir... Yonimdaligingda go'zallashasan. Biroz erkin qo'yib yuborsam, darhol o'zgarib, yo'qolib qolasan.

Seni sevib qolganimdan so'ng asta-sekin yo'qolib borayot-ganimni, istasam, hoziroq kimnidir o'zimga oshiq qila olishimni, seni tasavvuringga ham sig'maydigan darajada azoblay olishimni, qulog'ingga nafasim tegganida barmoqlaringning uchiga qadar meni his qilganing, ziddiyatlarga to'la ekanliging, tartibsizliging, tartibsizligim, ba'zan jinni bo'layozganim, ba'zan o'zingni men xohlaganimdan boshqacha tutishingni — bari-barini yaxshi bilaman. Kutilmaganda qalbingga qo'ygan minglab qulf-larni ochishdan voz kechganimda qo'lingda bir dasta kalit bilan qarshimda turishing ham men uchun hech qanday g'alatilik tug'dirmaydi.

Biroz shoshmay tur. Hozir voz kechmoq mavzusi ochilmasligi kerak, shunday emasmi? Menga: "Voz kech", — deya olasanmi? Mana, sen ham qo'rqaqsan... Mayli, biroz qo'rqa... Qo'rqa va xudbin bo'l. Yo'q: "Xudbin bo'l", — deya aytadigan bo'lsam, mening yonimga kel. Mening ko'zlarim bilan avval menga, keyin o'zingga nigoh tashla. Ikkimiz ham sevib-sevilishga loyiq emasmizmi? Qancha-qancha javobi ma'lum savollar bor, ammo... Hayron bo'lma! Sendan bilmaydigan narsalaringni so'ramadim. O'zimni biroz sirli tutdim, o'rganilishi kerak bo'l-gan biror narsalarning bo'lishini istagandim. Meni kaftlaringning ichida his qilgan vaqting kaftlaring ichidan sirg'alib keta olishim-

ga necha bor guvoh bo‘lding. O‘zim istagan vaqtida seni tanimaslikka olib ketishim mumkinligidan hayratga tushding. Ajablanma! Ust-boshimga sachrading deb, illoki voz kechilmaydigan emasmiz ikkimiz ham. O‘zim bilan kelisholmaslik illatimni tashlay olsam, darhol seni ham tark etishim mumkin. Nima demoqchiman? Biroz qo‘rq... Hoziroq qo‘rroq va xudbin bo‘lgan... Seni juda-juda qo‘msayveraman. Yonimda yur. Seni ancha vaqtdan beri sevaman... Anchadan beri o‘lolmayapman... Yo‘q! Hech bir inson uchun bunday o‘limgan edim...”

Shunday edi...

“

*Agar nimanidir surishtirishni boshlagan
bo‘lsang, demak, u narsa endi jarohatga
aylanadi. Yemirila boshlaydi, qo‘l-oyoqlari
g‘oyib bo‘ladi va sen esa zulmatni sevgandirsan.
Ba’zi narsalarga kech qolindi...*

XIII

SEVILMOQ BARCHAGA YARASHUR

Qoramag‘izimning uyg‘onishiga ozgina vaqt qolgan ekan, xo‘sh, bu endi qayerdan chiqdi? Albatta, keyingi jumlalarimda bu savolning javobi bo‘ladi... Siz mendan ham ortiq besabrsiz-a. Bu yer menga tegishli hudud, shu sabab xayolimga nima kelsa, o‘shani yozayotganim haqida bosh qotirib o‘tirmang. Ayni lahzalarda ko‘nglim sizni dengiz bo‘yidagi bir shaharcha oldiga olib bormoqlikni istaydi, oyoqlarimizga oz bo‘lsa-da, tuproq va dengiz mavjlarini tegsin. Keling, shimlarimizni biroz shimarib olgancha birga aylanaylik va unutilishi kerak bo‘lgan nima bo‘lsa, barini unutaylik. Aniqrog‘i, o‘zimizdan qochaylik... Xuddi *Qoramag‘izim* qilganidek bizlar ham qarashlarimizni tozalaylik. Yo‘q, bu safar ichmasdan... Bu safar sergak bir holatda orzularimizni go‘zallashtiramiz...

Xo‘sh, bu qanday bo‘ladi? E’tiborli bo‘lsangiz, maslahatlar beraman. Unutmoqlik haqida so‘z yuritaman. Qolaversa, hech qachon eslanmaydigan darajada unutmoqlik. Afsuslanish kabi emas, balki uni umuman bo‘limgan deb hisoblash orqali! Buni esa faqat so‘roqlash orqaligina bajara olamiz... Chunki nima-

nidir surishtirishni boshlagan bo'lsang, demak, u narsa endi jarohatga aylanadi. Yemirila boshlaydi, qo'l-oyoqlari g'oyib bo'la-di va sen esa zulmatni sevgandirsan. Sizningcha ham, ba'zi narsalarga juda kech qolinmadimi? U holda bizga sira to'g'ri kelmaydigan bunday e'tirofga loyiq harakatlar qayerdan chiqdi? Nega o'zimizni eslamoq uchun azoblaymiz? Nega qorong'ilikni bu qadar sevamiz? Do'stlar, bizga noto'g'ri o'rgatishdi. Hatto reklama ko'rsatuvlarida ham kichkina kir yuvish mashinasini so-tish uchun: "Kirlanmoq qanday yaxshi-ya", — deyishgacha borishdi... Vaholonki, tozalikni saqlamoqlik go'zal ishdir. Bizni qoliplarga solishar ekan, hayotimiz kim uchun ahamiyatli edi? Ha, ba'zan so'kinib yuborishni istab qolaman. Masalan, agar sevilmaganimda meni sevmagan o'sha kimsani og'zimni to'ldir-gancha haqoratlashni istagan bo'lardim. Yoki meni tark etib ket-ganni shunday kuzatib qo'yishni istardim...

Iltimos, deyman, bularni gunoh yoki ayb deb hisoblamang. Bizni tark etib ketganlarga hech bir yomon so'z aytmay turib qanday munosib javob bera olardik? Do'stim, men bunday nay-rang bilan kurashmayman. So'zlamning ortiga yashirinishni men ham bilaman, ammo endi bunday qilishni istamayman. Bir necha marta aytib o'tgan bo'lsam kerak: yana sevish va sevilishni istayman... Zotan, bir gal buning ikkisini ham boshimdan o'tkaz-dim. Negaki inson sevgan paytida go'zallahadi. Xayollarda uchayotgan kapalaklar bor-ku, aslida, barcha ayb ana o'shalarda. Juda sekin qimirlashadi. Biroz serharakat bo'lishsaydi...

"Nima aloqasi bormi?" Axir, biroz o'ylab ko'ring. Bularning umri necha kun? Ochig'i, ular umrining necha kunini bizning qornimizda o'tkazishadi? Asta-sekin nima demoqchi ekanligim ma'lum bo'lib bormoqda-a? Kimnidir yoki nimanidir ayblashni istamoqdaman va shu lahzalarda kapalaklarni tanladim. Juda od-

diy... La'natilar, o'lib ketar ekansanlar, qornimda zavq olishdan ko'ra birlashsanglar-chi! Tong vaqtida o'lib ketar ekansan, o'rningga boshqasini qo'y, shundaymi?

Qaranglar-a! Hech ham-da! Xayolingizdan: "Bu odam yana aljirayapti", — degan o'y o'tmasin. Shunchaki o'rganib qolgan tartibimni buzgancha o'z qobig'imdan chiqishga urinyapman. Yo'qotish katta bo'lsa va aslida yo'qotgan o'zing ekaniningni tushunsang, qo'l-oyoqlaring bir-biriga chalkashib ketar ekan. Albatta, eng katta yo'qotish o'zimman. Bular juda chalkash gaplar, iltimos, diqqat bilan o'qinglar. O'zimni sevishim haqida gapiryapman. La'natga duchor bo'lgur men bo'l maganimda sevgilim kimni sevgan bo'lardi?

Asta-sekin bir telbaning xotira daftariga aylanib boryapti-a, shunaqa emasmi? Aytmoqchimanki, asl muammo menmi yoki siz? Eh, sevilmoqning davomli bo'lishi shunchalar azobmi? Bir zum bo'lsa-da sevishni e'tibordan chetda qoldirmagan bo'lsam, u holda nega ketding? Bu savolni takror-takror ta'kidladim-a? Goh *uni* haq deb hisoblayman, goh o'zimni... Sizlar kimni haq deb hisoblaysizlar?

Ishonavering, o'rtada haq-huquq masalasi bor. Qanchalik oxiriga yetkazmasin, yuz bergen voqealar darhol tugayvermaydi. Men sevgi-muhabbatdan ado bo'lgan ko'plab ayol-erkaklarga guvoh bo'ldim.

Rostdan ham, yozganlarimni bir ko'zdan kechiring. Men biror marta ishq kalimasini ishlatdimmi? Meni tark etib ketgan sevgilim haqida so'z yuritar ekanman, hecham ishq so'zini tilga olmadim. To'g'ri, birinchi kitobimdan iqtibos keltirgan joyimda bor edi. Lekin endi fikrim o'zgardi. O'sha satrlarni bu yerga majburan qo'ydim. Yana bir joyda — ba'zi qizlar haqida gapirar ekanman, "Ishqim, ishqim deya davralar orasida yurasan", —

degandim. Tushuntira olyapmanmi?

O'zingizni bosib oling! Kitobning nomini yuzimga solmang! E'tiborli bo'lishda foyda bor. Ishqning yashirin qiyofasi haqida gapirmoqdaman. Barchaning: "Ishq", — deb yurgani aslida ishq emasligini, ishq umuman boshqa narsa ekanligini...

Kim nima deyishidan qat'i nazar, ishqning ta'rifi haqida so'z yuritar ekanman, sevgidan keyin qolgan narsalarga ishq deyiladi deb hisoblayman. Ha, barchaga ma'lum, insoniy sevgida visol bo'ladimi? Bo'lmaydi! Xo'sh, men sevGANIMGA erisha olmadim, endi ishqning ichida bo'lamanmi? Ha! Ishqdan rozimanmi? Yo'q. Azoblar ichidaman... Demakki, men bunga ko'nikolmadim yoki boshimdan o'tganlarga loyiq emasman.

Shuning uchun mana shularni aytmoqdamан, barcha kishilar sevilishga munosib, xuddi shunday dedim... Tag'in har ikki gapning birida tilingizga ishq so'zini keltiravermang. Sevish va sevilish hammaga yetarli bo'lishi kerak... O'sha chegarani bilmasdan undan o'tishga urinyapsiz. Bularni siz bilan baham ko'rishi-shimdan maqsad hech bo'Imaganda aynan siz baxtli bo'lishingizni istaganimdir. Yaxshi tomonimga to'g'ri kelib qoldingiz. Aks holda, sizdan menga nima naf? Yuzingizdagи alam va iztirobli ifodalardan menga nima foyda bor? Sizning sevgilingiz ketgan vaqtida sizda ham shular sodir bo'lmadimi?

Nima sodir bo'lmadimi? Biroz to'xtab turing! Sevgilingiz bark etib ketganidan so'ng sizga aql o'rgatganlar bo'lmadimi? O'z quloqlaringizni junbishga keltirishni istamadingizmi? Kar bo'lib qolishni bo'yningizga olmadingizmi? Men yuz martalab shu so'zni eshitdim: "Hech kimga o'zлari munosib bo'lganidan ziyoda iltifot ko'rsatma".

Ha, shunday deysiz, lekin men kimnidir o'zi munosib bo'lganidan-da ko'proq qadrlagan bo'lsam, uni sevganim uchun edi.

Qolaversa, uni qadrlar ekanman, sen shuncha-shuncha qilib qaytarasan deya sira hisob-kitob qilmagandim. Tag‘in qaytib kelsa, borimni berardim. Biroq arzimasa ham, xafa bo‘lmayman. Bu mening aybim emas-ku!

Gapni aylantirib, siz hazm qila oladigan bir tarzda tushuntirishga urinyapman. Menga buni dabdurustdan aytdilar va, afsuski, hazm qila olmadim... Siz bu so‘zlarni hamon eshitmagan bo‘lsangiz, ishonchingiz komil bo‘lsin, hali, albatta, eshitasisz. Ular qisman bo‘lsa-da haq edilarmi? Ha! Bir qarashda shunday... Ammo insonmiz-ku. Hamma ham mulohazakor bo‘la olmaydi. Ayollardan biror misol keltirsam, ajabki, qanday bo‘lar ekan degan o‘ylovdamani.

Nima desangiz deyavering. Nimalarni eshitmadim. Ayol-larga xitoban aytmoqchiman. Sizlarni poshnali oyoq kiyim masalasida qanday maqtagan bo‘lsam, endi tanqid darajasiga tushirmay turib, sizlardan misol keltiraman. Qanday qilibmi? Ayni xaridorlik hikoyangiz kabi...

Bir uyum kiyimingiz bor-u, lekin qaysidir do‘konda chegirma ko‘rsangiz: “Qachondir, baribir, kiyaman-da, shu fursatni qo‘ldan bermay”, — deb ularni xarid qilasiz. Bu ochko‘zlikmi? So‘ngra o‘sha kiyimlarni kiyib ulgurmasdan semirib ketasiz. Keyin ortiqcha vazndan qutulish uchun har dushanbada parhez qiliishi boshlaysiz. Bu ham kifoya qilmagach, sport mashg‘ulotlariga qatnay boshlaysiz... Mashq qilasiz. Aziyat ustiga aziyat... Ta‘kidlash o‘rinlikni, bularning bari sog‘lom bo‘lmoqlik uchun. Bu yerda o‘zimiz va yuzma-yuz gaplashmoqdamiz.

Aniqrog‘i, mendan bekorga ranjimang.

Sizni haqoratlashim shartmidi? Yo‘q. Biroq ichimda yig‘ilib qolgan... Menga yana bir bor yaqin bo‘lishi mumkin biror ayol bor bo‘lsa, uni xafa qilmastlik uchun ichimdagи butun salbiy his-

larimni sizlarga yo'naltirdim. Mavzuni qanday o'zgartirib yubordim... Ammo xavotirlanmang, bilasiz, diqqatni takror jamlash men uchun juda oson, buni necha marta qildim. Birozdan so'ng: "Shuni aytmoqchimanki", — deya gap boshlayman va parchalaringizni takror bir yerga jamlayman.

Shuni aytmoqchimanki, biz hech kimga keragidan ortiq qadr-qimmat bermaymiz. Bu qiymatni osongina o'lchash mumkin emas. Ayniqsa, o'sha tuyg'ularni boshdan kechirayotgan odamning ko'zi hech narsani ko'rmasa, men nohaq bo'lamanmi shunda? Bizning qilgan ishimiz esa aynan shu... Chek-chegarasiz sevamiz. Buning xarid masalasi bilan nima aloqasi bor? Qani, menga har tomonдан tashlaninglar, rahm qilib o'tirmanglar. Sizlarni bиргина gap bilan o'rningizga o'tirg'izib qo'yaman. Modomiki, hisobni shunchalik yaxshi bilsangiz, unda nega Javonlaringiz umuman kiyilmagan liboslar bilan to'la? Nega kredit kartalaringiz hisobnomasi talabaning ma'ruza daftaridek ko'plab sahfalarga boy? Chek-chegarangiz yo'q! Biz ham shunday. Keltirgan misolim sizga yoqadimi-yo'qmi, baribir, asl holat — shu. Mening kimgadir yoqish-yoqmaslik dardim yo'q. Mening qarashlarim shundog'am barchaga ma'lum, do'stim. Tan olaman, menda tushunmagan narsalarim bo'ldi. Ammo qarashlarim o'zgarmadi. Xo'sh, nimalarni tushunmadim. Bir qanchasi mana shular, e'tibor bering:

Ayollarни tushunmadim (tushunganimda tark etmas edi), ayollar o'zini tushunishmadi (tushunishganida yolg'iz qolmasdim), men o'zimni tushunmadim (tushunganimda ketkazmasdim), hech kim meni tushunmadi, o'limni tushunmadim, fizikaning mexanika masalalarini tushunmadim. Matematikadagi misollarni tushunmadim. Bir xil qutblarning bir-birini itarib yuborishini tushunmadim. Ayrim qo'shimchalarini tushunmadim.

Insonlarning darhol oyoqqa turishlarini tushunmadim. “Bari jo-nimga tegdi, ketaman”, — deganlarning qayerga ketganini tushunmadim. Ha aytgancha, tag‘in nima deganiningizni tushunmadim. Aniqrog‘i, hech kimni tinglamay qo‘ydim... Sizlar ham buni juda yaxshi tushunib oling...

Oxirida tag‘in jumlalarni betartib yuzaga chiqardim. La’nat bo‘lsin, haqiqatan ham, notinch bir odamman. “Sevilmoq bar-chaga yarashadi”, — deyman deb o‘zimga nisbatan qancha nafrat uyg‘otdim, shundaymi?

Mayli! Menga nima? *Aytmoqchimanki, mening haqiqatlarim o‘zgarmasdir.*

XIV

QIMIRLAMOQ

Tavba qilgum, Allohim! Tavba qilgum! Qanaqa qimirlash? Nima qimirlayapti? Do'stlar, yanglish tushunishga bunchalar moyilsiz-a! Xavotir olmang, siz o'ylagan narsa emas. Sal avval hammomda yuvinayotganimda bir qarorga kelib bo'lgandim. Qiziq-a, aksariyat kishilarda ajoyib fikrlar ularning hojatxonadaligida keladi, menga esa zo'r fikrlar hammomdaligimda keladi. Sizni biroz ortga — to'rtinch bo'limning oxiriga qisqa muddatga takror qaytarmoqchiman. Xotirjam bo'lavering, ushbu majburiy sayohat uchun hech biringiz badal to'lamaysiz. Choylar ham bizning hisobdan...

Iltimos, o'sha yerda go'yoki sizdan qochayotgan bo'lib uning ortidan yugurayotganimni tasavvur qilib ko'ring. Eng so'nggi gapimda nima degan edim?

"O'zingizga kelmay turib birortasining oldiga borolmaysiz va borgan har bir eshigingizda yangi jarohatlar ochasiz.

Shunchalar ko'p gapirib va yozib tashladimki, ovora bo'lib sahifalarini titib o'tirmasligingiz uchun sizga yaxshilik qilganim holda o'sha satrni shu yerda takrorlab o'tdim. Choy ham ichib oldingiz, yana nimalar bo'lsin? Aytmoqchimanki, bu jumla juda ahamiyatga ega... Qimirlamoq deya so'zlagan narsam ham shunga aloqador. Shu lahzalarda voz kechmoqlikdan so'z ochayotganim — uyimga bir ayolni olib keldim. Ayol deyayotganimning

ismi *Qoramag’izim*. Siz ham shunday deb biling... Bundan so‘ng ayol yoki ayolim deya yozadigan bo‘lsam, bilingki, *undan* gapirayotgan bo‘laman. Xo‘sh, ana endi qimirlash o‘zini yanada ko‘p sezdirmoqda, shundaymi?

Shuningdek, boshqa bir o‘rinda *unga* atab yozgan she’rlarimdan faqatgina uchtasini o‘qigani haqida ham sizga aytib o‘tgan edim... Bular juda ahamiyatga ega va go‘zal she’rlardir. Takror aytaman, xohlasangiz, meni ahmoq deng, lekin nima yozganimni o‘zim yaxshi bilaman. Ushbu she’rlarimdan biri naq uch sahifa va uni necha oyda yozganim ham yodimda yo‘q. Ochig‘i, juda ko‘p vaqtimni olgandi. Vaqt tushunchasi esa o‘sha vaqtlardan men uchun ahamiyatsiz bir borliq edi. Borliq... Vaqt ni borliq deya nomlagan biror insonni hech ko‘rganmisiz? Albatta, borliqidir! Barchamizda mavjud bo‘lganlarni, bizga berilgan bor narsani vaqt o‘ziga olmayaptimi? Xo‘sh, shuncha borliq qayerga ket-yapti? Albatta, vaqtga... To‘g‘rirog‘i, o‘zimiz bilmagan holda vaqt ni borliqqa aylantiryapmiz.

Xo‘sh, bu bizning qo‘limizdami? Ya‘ni o‘zimiz istagan hol-da bermoqdamizmi? Yo‘q! Ilohiy tartibot shunday barpo etilgan. Biz beraveramiz, u esa qancha olgani bilan baribir to‘ymaydi. “*Haliyam so‘kinmadi*”, — deya hayron bo‘lavermang. Men taqdir masalasida tilimga erk bermayman. O‘zimni so‘karman, boshqasini so‘karman, ammo taqdir masalasi o‘rtaga chiqqanda muloyim bo‘lib qolaman. O‘z tafakkurim ila birma-bir so‘zlab beraman... Ayni darnda o‘zim bilmagan qandaydir sabablarga ko‘ra qalbimda xotirjamlik paydo bo‘ldi. Ehtimol, xotirjamlik va o‘ziga bo‘lgan ishonch mushtarak narsalardir. Inson o‘ziga bo‘lgan ishonch ortidan ayrim qarorlarni qabul qilganida uning o‘z-o‘zidan qalbi taskin topa boshlaydi. Qolaversa, xotirjamlik umid bilan qarindosh bo‘lishi mumkinmi? Balki, otasidir...

Bo‘ldi, bo‘ldi... Darhol yopirilib kelmanglar... Avvalgi bo‘lim sabab mendan yetarlicha asabiylashdingiz, bilaman. Maqsadim shu o‘rinda sizlarga ta’na qilish emas, aksincha, sizga bir hadya bermoqdir. Bir necha qator oldin yozgan jumlamga darhol tuzatish kiritaman. Xotirjamlik umid bilan qardosh bo‘lishi mumkinmi? Yoki otasidir... Yoki onasi... Nima bo‘lsa ham... Shunga amin bo‘ldimki, chindan ham yaqinligi borligi aniq. Yanada oldinroqqa o‘tib aytadigan bo‘lsam: “Bolam”, — deya da’vo qilishim ham mumkin... Shu darajada menga singib ketdiki... Gapning qisqasi shu: birozdan keyin sizga havola etadigan bir she’rim bor. Ushbu so‘zlar tizimi kimlargadir *be ‘manilikdek tuyilishi mumkin...* Istanzagiz e’tibor bermang. Birozdan so‘ng she’rimni shu yerga yozaman va xohlagan odam olishi mumkin. Ushbu misralar endi meniki ham, *uniki* ham emas.

Faqat o‘qiyotganingizda past ovozda musiqa yoki sevgan o‘zingiz yoqtirgan qo‘srig‘ingizni tinglasangiz, she’mi yanada yaxshiroq his qilasiz. Bunday vaziyatlarda mening tanlovim “Sad Violin 5”dir. Ishoning, ajoyib bo‘ladi.

Nima dedingiz? Kim bastalagan? Bilmayman-da... Bilmanim uchun johil hisoblanmayman, ammo istasam, hoziroq izlab, ayni shu yerda yoza olardim, shunday emasmi? Biroz danga saligim ham bor. E voh, mabodo sizlar bilsangiz, menga aytинг. Agar bilmasanglar, internetning tegishli sahifasidan izlab eshitинг. Men har doim shunday qilaman. Hatto musiqani bastalagan kishi menga begona bo‘lsa ham, Allohdan unga rahmatlar tilayman. Bor bo‘lgin, dardlaring ortda qolsin.... Bo‘rttirib yubormayapman! Buni oldin tinglaganlar uning ajoyib bir qo‘srig‘ekanini bilishadi. Marhamat!

Endi esa aytganimdek tinglang va menga tan bering.

Seni sevmoq...

*Bo 'g'zingda tiqilib qolmoq,
Yoki erib ketmoqdir nafaslaringda.
Har bir qarashlaringda tug 'ilmoq,
Va yana har safar jon bermoq.
Quyoshning muzlashi bulutga yomg 'ir,
Shamol uchun bo 'ronga aylanmoq.
Hech bir hozirliksiz safarga chiqmoq,
Bo 'm-bo 'sh chamadon bilan...
Seni sevmoq iqlimlarni muzlatmoqdir...
Peshonangdagi bitiklardir yoxud,
Sajdada ming bir duolar bilan
Taqdiringda yozilmoqdir.
Hech bir haromni qo 'shmay
Senga halollik istamoq,
Go 'yo bir shaharni istamoq kabi...
Mavjlanayotgan to 'lqinlardan oshmoq,
Va suv ustida yonma-yon yurmoq.
Noma 'lum moddani topgani holda
Unga bog 'lanib qolmog '-u,
So 'ngra erkni isitmaslik.
Seni sevmoq...
Ba 'zan sendan panoh topmoq,
Ba 'zan sendan toshib ketmoq.
Nurlaringga nur qo 'shmoq yoki
Bir xiralik ila seni qoraytirmoq.
Senga tashna bo 'lmoq
Hovuchlaringdan suv ichmoq,
Senga yaqin bo 'lmog '-u
Qolganlardan uzoqlashmoq.*

*Uyquga ketib, uyg 'onmaslik,
 Uyquning eng shirin yerida
 Haqiqat misoli bir tush ko 'rmoq.
 Seni sevmoq...
 Maqsadsiz charchamoq,
 Boladay kulmoq, gaplashmoq
 Sukunatning eng tinch joyida...
 Hammasini tinglamoq yoki,
 Aytilganlarni eshitmay kelmoq.
 Qattiq sevmoq, ammo,
 Hali ketmasingdan avval,
 Ketishingni bilganim uchun,
 Yonimdaligingdayoq sog 'inmoq.
 Seni sevmoq...
 Taqiqlangan mevani yemoq,
 Oqibatini bilib turgancha
 Insonlarning taqdiri bilan o 'ynashmoq.
 Hech to 'ymaganim uchun ochqamoq,
 Bir she'r yozmoqlikki, sirli harflardan,
 Seni ishq deya atamaslik, ammo,
 Jon demoq, jonim demoqlik,
 Qalbimning to 'riga kirgizib.
 Seni hammadan ajratib olib,
 Sevgingga qo 'shib sevmoq.
 Taslim bo 'lmoq, kurashmoq va
 Chegaralarimni chegaralaringda yutqazmoq.
 Seni sevmoq...
 Janjallashish, balki g 'olib bo 'lmoq uchun,
 Rizq talabida bir non ifori ila,
 Yaratganga bergen ne 'mati uchun shukur qilmoq.*

Seni sevmoq...
Sochlaringni hidlagan holda
Seni taqdirim demoq,
Ba'zan uyalgancha bo 'yningga,
Kipriklaringga osilmoq...
Xavotirlar ichida, oyoqlarim titraganicha,
Eng yuksaklardagi ipning ustida raqs etmoq.
Seni sevmoq, seni sevmoq....
Ziyorat kunini kutmasdan
Afv tilamoq yoki afv etmoq seni.
Yoki seni intizorlik ia
Bir zindonda kutmoqlik...
Senga talpinmoq,
Yaqinlashmoq, sendan uzoqlashmoq,
Seni sevmoq...
Taklif etma yoki baland ovozda chaqirib,
Lablaringning izidan bo 'sa olmoq...
Ko 'zlarimni yummoq, yummoq bir lahza.
Xabarsiz, ammo hamma narsadan ogoh bo 'lib,
Har bir oningni sevmoq...
Yoki hech narsa bilmasligingni bilmoq va,
O 'rganishni istamoqdir,
Ishonmoq, tanimoq...
To 'rt tomonimdan quchmoq,
Seni sevmoq...
Qo 'llarim yetguncha belingdan quchmoq,
Va o 'zimga shasht bilan tortmoq...
Choy ichish yoki hushyor tortish uchun
Achchiq bir qahvani hidlamoq,
O'zga iforlardan ajrata olmoq,

*Va birgina iforga sherik tutinmoq,
Hech o'zgartirmasdan sevmoq,
Iforingni...
Seni sevmoq...
Xayolimga ham kelmasdan va,
Hech xayolimdan chiqarmasdan,
Turgan yerimda qotgancha
Seni sevmoq...
Butun shaharni chiroq bilan yoritmoq va,
Shaharning yorug'ligini zulmatga aylantirmoq...
Oppoq qog'ozda yozilganlarni
Binafsharang nurda ko'rmoqdir,
Seni sevmoq...
Seni sevmoq, sevgilim!
Seni sevmoq...
Qanday mashaqqat va qandayin ajib,
Seni sevmoq...
Bo'lmasa, netaman,
Bo'lsa, ne qilayin?
Sevmoq, sevgilim!
Seni sevmoq...
Telbalarcha sevmoq...
"Qattiq sevgan bir inson edim..."*

“

*“Mayli”, — dengki, ichida millionlarcha
la’nat bo‘lsin.*

XV (a)

UYG‘ONISH

Sizningcha, vaqt kelmadimi? Shu qadar suhbatlashdik, dardlashdik... Sizlarga o‘z tashvishlarim, jasoratim, qo‘rquvlarim, hissiyotlarim, mag‘rurligim, hayotdan nima xohlaganim, hech kimga ahamiyat bermasligim, mayda detallargacha va boshqa ko‘plab narsalar haqida so‘zlab berdim. Na qadar kechiktirishga urinmang, yuz berishi kerak bo‘lgan narsa vaqt yetganida albatta, sodir bo‘ladi. Na bir daqiqa avval, na bir daqiqa keyin... Barchasini ayni vaqtida va o‘z o‘rnida boshingizdan o‘tkazasiz. Ichingizga yutgan barcha narsalar shunday to‘planib borishadiki, vaqt kelib sizni taslim qiladi. Qandaydir ayolni o‘ylaysiz yoki bir erkakni... Hech kimga sezdirmay xayolingizda suratini chizarsiz. U bilan qay tarzda suhbat qurishingiz, qanday xitob aylashingiz, sizni qanday chaqirishidan tortib yakshanba kungi nonushtalarigacha — bachasini xayolingizdan o‘tkazasiz. Bu atrofingizda ko‘rganlariningizga ham tegishlidir. Hatto o‘qigan kitoblariningiz va oilangiz bilan ham bog‘liqdir. Oilangizda ko‘rgan-ko‘rmagan, sizga yetishmagan, o‘zingiz havas qilgan nimalar bo‘lsa, bari-bari yuz berishini kutadi.

Masalan, shoirlar sevgi va ayrılıqni naqadar dabdaba bilan tasvirlashadi, shundaymi? Ayollarni, erkaklarni, bolalarni, yetidan yetmishgacha bo‘lgan hammani kinolarda o‘pishgan aktyor-

lar kabi o'sha hayotni boshdan kechirishishga havaslarini keltirishadi. Fikrimcha, *qay tomonidan qaramang, ayriliqlarning kamida yarmi mana shu sababdandir*. Qolaversa, shunday yozganlaridan go'yoki ular boshqa bir dunyoda yashayotgandek tasavvur uyg'onadi. Biz esa: "Voy, chindan ham, shunday seviladimi inson?" — degancha hayratda qotamiz. Go'yoki erkak ayloga uchun, ayol erkak uchun telba bo'ladi-qoladi, bir-birisiz yasholmaydi. Tark etilganlaridan so'ng ham ayriliq azobi ularga qanday yarashib turadi-ya.

Yo'q, haqiqatga aloqador emas. Har holda shoirlarning aksariyati bunday emas... O'sha shoirlarning yozganlarini qog'ozga qay ahvolda tushirgani haqida o'ylab ko'rgandirsiz-a? Qo'lida tamakisi, ko'zlarida yosh, atrofida esa hech kim yo'q, yolg'izlikdan xarob bo'layozgan, tuz totmagan, o'ta chanqoq, qilgan ishi faqatgina azob tortmoq va sevmoq... Ha, ko'pincha yolg'izlik holatida yoziladi. Ammo, baribir, barchaning hayoti davom etadi. Tag'in boshqa insonlar ham hayotlaridan o'tib turadi... Ehtimol, ularga ham alohida-alohida she'rlar bitilar. So'ngra ohistalik bilan tarixdagi o'rinalariga qo'yiladi.

Xullas, shuni aytmoqchimanki, g'ayrat va orzular ila qurgan hayotimizdag'i har bir narsa bizni xatoliklar sari boshlab keladi. Hayot qanday bo'lishi kerak bo'lsa, o'shanday yashalishi kerak. Qilayotgan ishimiz, mening **nazdimda**, temirni suvg'a botirgancha uni po'latga aylantirishga o'xshaydi. "Yanada mustahkam-roq bo'lsin, o'tkirroq bo'lsin", — **deganimiz** sari keskinlashib boramiz. Bir muddat vaqtidan so'ng esa bir-birimizga qo'l ham teggizolmay qolamiz. "Og'riyapti, — deymiz, — jonim qattiq og'riyapti..."

Bularning bari o'tib bo'lgach: "Ajabo, qarshimdan bemavrid chiqdimi? Besh yil oldin yoki o'n yil keyin bo'lsa nima bo'lar-

di?” — deymiz. Shunday, do’stlarim! Chindan ham, bularga behuda bosh qotiryapmiz. “Jarayonni o‘z izmiga qo‘yib bering, — demoqdaman. — Yoki barbod bo‘lishiga...”

So‘nggi bo‘limlarning sahifalari biroz ko‘proq bo‘ladi. Hali aytadiganlarim va hayotiy fikrlarim bor. E’tibor bering: hayot haqidagi fikrlarim emas, hayotiy fikrlarim demoqdaman.. Hatto ba’zilarni siz bilan baham ko‘rishni boshlab ham yubordim. Bila-man: jag‘im hech tinmaydi... “Be’mani gaplar”, — deya baholasangiz, men bu fikringizga qo‘shilmayman. Bunday deyishingizni aslo istamayman. Boshimdan kechirganlarim sizga og‘ir keladi hamda ayolimga tegajoqlik qilish ehtimolingizni hisobga ololmayman. Axir, ruhiyatim davomli tarzda o‘zgarib turi-shini anglamadingizmi? Iltimos, endi meni yaxshilab tanib oling. Har holda kitob tugay deb qoldi. “Avvaliga sog‘inaman, keyin esa nafratlanaman, so‘ng sog‘inmayapman, voz kechdim”, — deyman, jahl qilaman, xafa bo‘laman, ammo bilishingiz kerak bo‘lgan narsa shuki, to o‘lgunimga qadar u qandaydir bir tarzda men bilan yashaydi.

Ehtimolki, yotoqxonamda yotgan *Qoramag ‘izim* bilan yangi hayotim boshlanar, balki, boshlanmas va keyinroq qarshimdan boshqasi chiqar... Ammo qasam ichib aytamanki, ko‘zlarimni so‘nggi bora yumgunimga qadar u qalbimdagи joyida qoladi. O’tmishimni, ya’ni u bilan o‘tkazgan damlarimni hayotimga yangi kiradigan aylonga-da so‘zlab beraman. Ha, ha, albatta, u haqda bilib olishi kerak. Hech narsani yashirmayman. Eng to‘g‘risi ham shu emasmi? Ayrim jihatlarda xatoga yo‘l qo‘ydik. Yo‘qsa, go‘zal hayotga ega bo‘lishimiz mumkin edi. Yanada e’tiborli bo‘lishimiz kerak edi. Bunday alamlar ila yashamasligimiz kerak edi. Lekin har ne bo‘lganda ham, *undan* afsusda emasman. Sizga yana bir kichik sirni aytaymi?

“Tugamaydi”. — deb o‘ylagan har bir narsangiz kun kelib, albatta, tugaydi.

Shunaqa ko‘p gapiradigan odamdan ba’zan ayrim vaqtarda hatto tasodif desangiz ham chiroyli va ma’noli gaplar chiqib qoladi. Zotan, shu daqiqalardan so‘ng agar meni aybdor sana-masangiz va ichki ovozingizni biroz pasaytirsangiz, sizlarni ham bezovta qilmayman. Endi esa uyg‘onishini birligida kuta boshlaymiz. “Ha, haq-huquq ahamiyatlidir”, — deyman. Axir, nima bo‘lganda ham menga toqat qilib, ayni shu satrlargacha chida-dingiz va men esa sizning vaqtingizni oldim.

Ha, aytgancha, vaqtingizni olmaganimda shu vaqtga qadar nima qilardingiz? Rosti, juda ham band odamlarmisizlar? Yoki kechki ovqatni shaxsiy samolyottingizga o‘tirgancha Parijga borib, o‘sha yerda tanovul qilmoqchi edingiz-u, men xalal berdimmi? Bo‘ldi... Menga ta’na qilmadingiz, ayblamadingiz, ammo men esa biroz bo‘lsa-da tag‘in sizga o‘shqirdim. Endi bu ishimga ham ko‘z yuma qoling. Bilmaydi deb o‘ylamang, ko‘p-chiliqingiz yolg‘izsiz. Yana aksariyatingiz azob chekmoqdasiz. Shu sababdan men yuzaga chiqargan janjal-u shovqin-suronga chidam berdingiz. Inson ba’zi-ba’zida bunday shovqinlarni qo‘msab qolmaydimi? Telbalardek sog‘inadi... Nima qilay endi, mahbubam yonimda emas, bo‘lishi ham aniq emasdi, sizni topdim va biroz tinchlanmoq uchun ovozimni balandlatdim. Ochig‘i, janjaldan keyin qilinishi kerak bo‘lgan ishni esladingizmi? Sevgilingiz bilan janjallashasiz va oxir-oqibatda bir ish qilasiz-ku...

Har xil ovozlar ko‘tarilmoqda. Anglashimcha, ba’zilaringiz unutib yuborgansiz, ayrimlaringiz esa menikidan farqli hayotni boshdan kechirmagansiz. Hoy! Avtobusda o‘tirgan yigitcha, sen-ga gapiryapman... Sen, ha, sen! Qora paltoli... “Ichki ovoz-

laringizni biroz pasaytiring”, — deb ogohlantirgan edim-ku! Modomiki, pasaytirmagan ekansan, ovozingni menga eshittirar ekansan, endi nimalar qilganingni hammaga aytaymi?

Juda kech, juda... Eshitinglar, do’stlar, bu do’stimiz sevgilisi bilan janjallashganidan so’ng nima qilar ekan, bilasizlarmi? Hoy yigitcha, buning uyaltiradigan qanday yeri borki, darhol yuzing qizarib ketdi? Mayli... Bu yigitcha sevgilisidan avval uzr so’rab, keyin ko’zlariga mushukchaday boqar ekan. Boshini biroz egancha, xuddi “Kichkina Emrah” filmidagi kabi.

Yo‘q, bu do’stimizning qoshlari u qadar egik emas. Davomimi? Xullas, shundan so’ng qayerdaliklariga parvo ham qilmay qizning go‘zal lablaridan bo‘sса olar ekan... Ey ko‘rkam yigitcha, zavqlan... Bizning chekimizga tushadigani shunchaki: “Ha, barakalla”, — deyish, xolos. Agar xato mendan o’tgan bo‘lsa, sevgilimdan uzr so‘rashdan hecham tortinmadim. Ammo men biroz tajovuzkorroq edim. Bo‘sса olayotganimda ham ham shunday bo‘lardim. Belidan ushlagancha o‘zimga tortardim-u lablari ga yopishardim. Eh! Agar istasa, meni bag‘ridan itarib yuborishi mumkin edi... Ha, zotan bu kichik bir ish edi. E’tibor bersangizchi, hayvonga o‘xshab qolardim... Yo‘q, o‘xshab emas, o’sha lahzalarda naq hayvonning o‘ziga aylanardim...

Hoy, qizlar! Nima bo‘ldi, birdan sukutga cho‘mdingiz... Ichki ovozlaringizni eshitib qolishimni xohlamayapsiz, shundaymi? Yo‘q, xavotirlanmanglar, oila a’zolaringizning hech biriga aytmayman. Qolaversa, boshdan bosh faqat ikki ismni tilga oldim. Biri Bilol, ikkinchisi Trinti. Boshqa kishilarning ismini eshitdingizmi? Nimalarni gaplashgan bo‘lsak, oramizda qoladi.

Bir daqiqa to‘xtang... Qora paltoli yigitcha kulgancha: “Yaxshi, ismimni aytmaoding, biroq mening aybim nima edi? Xayolimdan o‘tkazganlarimni hammaga doston qilding?” — deya shi-

koyat qilmoqda... Buni qara-ya! Kutmagan holda yigitchani ranjitib qo‘yibman-ku. Yo‘q, hazillashgandim... Oldindan bilib va shuni xohlab hazillashdim. Ataylab hazil qildim, chunki, oldin aytganimday, harakatlaring to‘g‘ri edi. Menga o‘zim anchadan beri his qilmay qo‘ygan tuyg‘uni yodimga solding... Sening o‘rningda bo‘lganimda hozir darhol mahbubamning yoniga yugurardim-u, bo‘limg‘ur sabab bilan janjal chiqarardim va keyin esa o‘pardim.

“Hozir bunchalik asabiylashishning nima keragi bor?” — deyishingiz mumkin. Men o‘zimcha to‘g‘ri deb bilganimni, baribir, amalga oshiraman. Aytgancha, hoy qizlar: “Bizni esdan chiqardi”, — deb o‘ylamang. Ichki ovozlarining qulog tutmayotganimni aytgandim. Hamon sukut saqlamoqchimisizlar? Ar-qonning bir tarafida erkaklar bo‘lsa, narigi uchida ayollar bor. Boshimizga nelar kelsa, birlgilikda ko‘ramiz. Sizning o‘rningizda bo‘lganimda hech qursa, ismlar aytilmaydigan biror yerda ichimdagilarni to‘kib solardim. Biroq sizni ham tushunib turibman. Qancha vaqt jim turishga mahkum etildingiz, shundaymi?

Biroz sekinroq... Bunchalik emas-da endi. Darhol g‘azabga tushib, qurolda yopishmanglar-da. Yuqorida, xullas, qayerdadir, o‘zini bilmaydigan qizlar haqidagi o‘ylarimni ham o‘qiganingizni unutmang. Chirolyi bo‘lgan har narsaning o‘z mezoni bor. “Hoy ahmoq, mana bu naqadar ko‘rkam, go‘zal”, — deya aytaladigan biror narsangiz bormi hech?

Masalan, joriy yildagi dunyo go‘zali ko‘zimizga eng muhta-sham go‘zallik bo‘lib ko‘rinsa-da, keyingi yillarda onalar bundan ham go‘zalini dunyoga keltirmaslarimi? Siz ona emasmisiz?

Aytmoqchi bo‘lganim narsam oddiy va tushunarli... Oyog‘ingizda mutlaqo mustahkam turing, ushlagan narsangizni uzib oling, ammo qo‘yib yubormang... Bir olomonning ovozini

chiqarishni istasangiz, mana shunday bosim qilasiz. Shunday bo‘lganidan so‘ng *qo‘yday yuvosh* deganlaringiz ham kun kelib isyon qiladi. Hozir sizda ham shu hol yuz berdi. Ana endi ayrim-laringizning ovozini eshitा olyapman: “Sen kimsan?”

Xo‘sh, o‘pishmoq mavzusida indamay sukutda qolgan qizlarimiz, etagingizni biroz pastga tortganimda nega tutaqib ketdingiz? Aksariyat o‘rinlarda sizga iltifot qilib keldim, nega bunalilik tez unutib yubordingiz? Ehtimol, pastkashlik qilayotgandirman... Etagingizdan tortar ekanman, oyoqlaringizga tegingandirman. Rostdan, shunday qildimmi? Yana nimalar? Men tajovuzkor emasman. Sizning etagingiz, oyoqlaringizning go‘zalligidan menga ne naf?

Aziz qizlar, *etak* deya nomlagan narsam vujudingizdagи ayolligingiz edi. To‘g‘rirog‘i, hammadan yashirganingiz... Qarang, ko‘p hollarda erkak kishi ko‘chada qomati kelishgan ayolni ko‘rsa, (erkaklar tilida ketvorgan figurali) va ayol biroz ochiq kiyingan bo‘lsa, shubhasiz, o‘sha ayolga ko‘zini qiri bilan bo‘lsa ham qaraydi.

Nima sababdanmi? Chunki aslida biz erkaklarning qarashlarimizda “yengil kiyim” bor. Bizning ko‘zlarimiz zinhor-bazinhor to‘lig‘icha yumilmaydi. Na uylanishdan oldin, na uylangandan so‘ng... Zotan, erkaklarning fikricha, aybi isbotlanganning bahonasi bir: “Kiymagandami? Bunday boqmaganida edi! Har holda, o‘zi jodugar!” Jodugar so‘zi naqadar razilona tashbeh... Ammo bu tashbehni hozirda qizlarning o‘zlar ham qo‘llashadi.

Bilib turibman: shuncha gapning orasidan faqat o‘zingiz xohlaganingizniga olasiz. Axir, siz o‘ta o‘jarsiz degan gap ham bor. Baribir, o‘zimcha to‘g‘ri deb bilganlarimni sizlarga so‘zladim. Sizga qanday qulay bo‘lsa, shunday tushuning. Albatta,

men uchun yashamaysiz. Ammo “*Rafiqam*” degan insonimning ishiga aralashmang, do’stim! Yevropalik bo‘lishni, madaniyatni bunday tushunmayman. Men uzoq moziydan keldim... Olovni ham men kashf qildim, shahar quvurlari orqali suv yetkazish loyihasini ham, metroni ham...

Xullas, har bir narsani bilishni, barcha narsamni bilishini xohlayman. Har daqiqa: “Qayerdasan?” — deya hisob so‘ramayman, lekin qayerga ketayotganidan xabarim bo‘lishi kerak. Ishonch degan narsani shoxdor kiyiklar bilan aralashtirib yubormasligimiz lozim... Tabiiyki, mening fikrimcha. Shundoq ham bularni o‘qiganingizdan so‘ng, so‘raydigan bo‘lsam, aksariyatingiz meni yoqtirmaysiz. Ammo e’tibor bering, bunday qil mang... So‘yladim, so‘yladim, so‘yladim va holdan toydim. Istaganini ola biladigan odamman. Shunday qilaman ham.

Maslahatim shuki, aslida o‘zingizga bunchalik ishonmang. Ha, xayolingizni vaqtinchalik chalkashtirganim uchun ham uzr so‘rash niyatim yo‘q. Uzr so‘raganimdan so‘ng nima qilishimni bilib oldingiz, ammo orangizda hamjinslarim bor. Barchani navbatli bilan o‘padigan holda emasman. Garchi o‘pishish harakatining borliqni to‘xtatib qo‘yishligi menga yoqsa-da, ammo bu mavzuda juda injiqman. Inson hech bir narsani his etmaguncha lablarini ishga tushirmasligi kerak... Zero sevganingizni-da du-doqlaringiz bilan qarshi olasiz. Mana shu ajiblikni boshidan o‘tkazganlargina, hech bo‘limganda, menchalik bilishadi. Borliqning birdan to‘xtab qolishi mana shunday bo‘ladi... Vaqt darhol to‘xtaydi. Agar mana shu vaziyatda vaqtini saqlash kerak bo‘lsa, qo‘limni tishlagancha yasagan soatimdan foydalanishimni aytishim mumkin. Qaraylik-chi, necha daqiqa o‘tibdi? “Voy! Vaqt o‘tmabdi-ku!” — deyman o‘shal lahzada. Soat millari yo‘q, daqiqa millari yo‘q, raqamlar yo‘q. Naqadar ajoyib-a...

“

*Kun kelib, qarshimdan takror chiqar bo‘lsang,
bir lahza ham ikkilanib o‘tirmay tag‘in seni
sevaman... Zotan, bu qadar tasodif bo‘lmas!
Yoki men bilmagan nimadir bor, yoki seni
mening taqdirimga yozgan Zot hamon o‘chirib
tashlamagan.*

XV (b)

UYG‘ONISH, SOAT 18:45

Bu yerda soat 18:45... Vaqtni nima sababdan alohida ko‘r-satdim? Nega bo‘lardi, Parijdagi taomingizni yeishga kech qolmang dedim-da. Uzog‘i bir soatlardan keyin uyquchi go‘zal uyg‘onadi. O‘sha vaqtga qadar sizlar bilan suhbat qurishni juda xohlardim, ammo bu mumkin emas. Rosti, ba’zida meni zerik-tiryapsiz. Orangizda mutolaadan charchaganlar ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli munosabatlarimizda biroz tanaffus qilaylik. Jin ursin, bu qanday chiroyli jumla emish! Ilk bor so‘yladim va menga juda yoqib qoldi. To‘xtang, yana bir bor aytib ko‘ray.

“Munosabatlarimizda biroz tanaffus qilaylik”.

Xa-xa- ha... Yovuz odamlardek kuldim va kayfiyatim ham a’lo. Menimcha, siz ham shunday qiling va aynan shu jumlanı ayting. Ha, bir gal bo‘lsa ham ketgan inson siz bo‘la qoling. Sizga tark etish imkoniyatini bermoqdaman, tag‘in nima istaysiz mendan? Xo‘sh, besh daqqa kutaman. Menga aytishingiz mumkin, o‘rganib ketganman... Faqat navbat bilan aytinlar, hammangiz birdan gapirsangiz, menga ham og‘irlik qiladi. Va, albatta, avtobusdagi yigit! Seni unutganim yo‘q... Sen aytib o‘tirma. Erkak o‘quvchilarimizning boshqalari so‘zlashi mumkin. Bo‘ldimi, kelishdikmi? “Xayr, o‘pib qolaman”, — demoqchi bo‘ldim-u, lekin bu juda ahmoqona ish... Bu tarzda gaplashganlarni jinim so‘ymaydi.

Uf! Bo‘pti, ketdim, o‘shqirmang... Hali ko‘rishamiz...

“

*Vaqt ba'zan la'natlangan bir taqvim sahifasiga
aylanib qoladi... Tushsa, halok bo'ladi,
tushmasa, uyatsizlarcha yirtib olinadi. Ayni
damda aytamanki, barcha narsa eskirmoqda,
eshigimni qish taqillatmoqda... Shturvali singan
kema yanglig‘ mavhum va yo‘qolgan bir yo‘l
izlayapman o‘z ichimda... Qaysi “samo”ga
qaramay ostidan bir “zulmat” chiqib kelmoqda.*

XVI

TIRILMOQ

Barcha shu yerdami? Alloh hech kimni el og‘ziga mish-mish qilib chaynatmasin... Hoy avtobusdagi bola! Menga biroz qarasang-chi...

Javob yo‘q... O‘ylashimcha avtobusdan tushib ketgan. Yo Alloh, boriboq aytganlarimni bajarsa-ya.... Gap nimadaligini bilarsiz-a... Qo‘yavering... Zotan, o‘scha kichkina Emrahdan, baribir, hech ish chiqmaydi. Ketsa, ketaversin, ayriliqni barchamiz boshdan kechirganmiz.... Avvalgi bo‘limni “*Uyg‘onish*” deb nomlagandim, lekin *Malagim* meni yolg‘onchiga chiqardi va haligacha uyg‘onmadi. Shundan so‘ng: “Bir soatlarda uyg‘onib qolar”, — dedim...

Mayli-da... Nima edi? Bir gap bor edi, biror ish qat’iyat bilan qilinsa, toshni ham parcha-parcha qilish mumkin. Shunga o‘x-shash edi, shekilli. Har holda, unga yaqin bo‘lishini aytganimda ham... Oxiri ne bo‘lishini xuddi shunday qat’iyat bilan kutdik. Bordi-yu endi ham uyg‘onmasa, barcha rejalarimni takror tuzib chiqaman va boshidan bir stakan sovuq suv quyaman. Bu qanday reja bo‘ldi-ya! Oppoq malika mening gardanimda-ya! Tavba, tavba.

Kichik bir eslatma: bolaligimizda bizlarga aytilgan ertaklar ham naqadar bema’ni-ya. Odatda, baxtli yakun bilan tugaydi. Bir to‘da erkakning orasida yashagan malika, sochlarini minoradan

tashlagan malika, oq otli shahzodalar, yovuz jodugarlar, shirinlikdan yasalgan uylar... Ajabo, qizlar, haqiqatan ham, shirinlikka o‘chligingiz o‘sha paytlardan qolib ketganmi? Tortdan qurilgan uylar... Agar shunday bo‘lgan taqdirda ham bu chindan kulgili holat. Xo‘sh, oramizdagι tanaffusda nimadir aytmoqchi bo‘ldingizmi? Yo‘qmi? Yana o‘sha ahvol... Haqiqatan, sizda biror chora yo‘q. Allohdan mening umidim bor, sizdan ko‘ra yaxshiroq vaziyatdamан. To‘xtang, biror joyimni qashib olayin, na-zaringiz tushmasin. Shirin jon bu, og‘rishi tabiiy, albatta.

Har kimning ahvoli o‘ziga ayon, shundaymi? Tag‘in asabiy ekanligimni ko‘rsatdim-a. Shu kitob tugasini, mendan rostdan qu-tulasiz. Har holda mayda-maydalab yozdim, siz so‘kina-so‘kina o‘qidingiz. Meni kechiring, yomon so‘z so‘zlagan kishinikidir. Illo javob bergingiz kelib qolsa, siz ham kitob yozing. Xo‘sh, buning uchun tajriba va qobiliyatdan tashqari qarshingizda biror to‘sinq bormi? Bo‘ldi, bo‘ldi, sukut saqlayman. To‘g‘risi, biror kimsaga nisbatan adovatim yoki undan olinajak qasosim yo‘q. Bir safar buni esga olgandim, ehtiyojim borligida yonimda hech kim yo‘q edi. Xususan, hozir ham shunday... Bu ne ko‘rgilik, ey do‘st? Uyimga hayot shavqi kirib kelishini istagan edim, ammo battar sukunatga cho‘mdim. Noqulaylik tug‘dirmay deya o‘z-o‘zimga ham baland ovozda gapirolmayapman. Inson o‘z ichida-gi yolg‘izligida qanday tirilsin?

Qolaversa, ehtimol, kitobni xato boshladimmikin, nima dey-siz? Men ham zamonamizning boshqa yozuvchilaridek bo‘lishim kerakmidi? Ya’ni inson yiliga deyarli ikkitadan kitob chiqaradi va yozganlarida doim qurban rolini o‘ynaydi. Muqaddimasi bordan, lekin o‘ziga bo‘lgan tanqid sira ham yo‘q. Bir ayol *uni* necha bor tashlab ketadi, biroq tag‘in ushbu do‘stimizning biror aybi bo‘lmaydi. Shundayligicha muhabbatning eng jo‘mard qurbanini-

ga aylanadi. Boz ustiga qo'llagan so'zлari ham kitobxonning jinsini e'tiborga olmaydi. Ya'ni istalgan kitobxon o'ziga tegishli deb o'ylay oladi. Shu sababdan ayol kitobxonlar ham bunday asarlar ichida biroz bo'lsa-da o'zlarini ko'rishadi.

Endi yozuvchilar bilan o'ralashib qoldi deb o'ylamang. Shunchaki ahvolning soxtaligidan biroz so'z ochdim, xolos. Kitobxon sifatida ehtiyojingiz o'zgalarning boshidan kechirgan hayotlarida o'zingizni izlab topishmi? Siz shundoq ham o'z ha-yotingizda kechirganlaringizni bilmaysizmi? Qolaversa, ortiqcha ko'ngilsizliklarning qo'shilishi sizga ma'qulmi? Axir, yozuvchi do'stimiz boshingizga tushgan qiyinchiliklar haqida so'z yuritsa, chindan ham shular yaxshi emasmi?

Men mana shunday qilishga harakat qilyapman. O'z dardlarimdan so'z ochar ekanman, bulardan qanday qutulishga urinayotganimni aytib ketyapman. Sizlarga haddim sig'ganichalik tavsiyalar beryapman. Hech bir kimsa sizni tushunmasligini tushuntirishga harakat qilyapman. Xo'sh, bularni inkor eta olasizmi? Aksincha, biror og'riqli mavzuni tanlagancha jumla-larni bezagancha yozish qanchalik oson bo'lishini farqladingizmi? Men bilan janjallashishingizga, ba'zida mendan nafratnishingizga, ba'zan esa meni yoqtirishingizga qo'yib berdim. Tushunarli, meni unchalik sevmagan bo'lishingiz mumkin. Aniqki, bunga umuman ahamiyat bermayman ham.

Bir daqiqa! Ichkaridan ovozlar kelmoqda.

“

*Ovozingdagi shafqat...
Shundandir tuzala olmayotganim...*

XVII

HAQIQATLAR

“Qayerdaman? Kimsan? Bu yerga qanday keldim? Isming nima? Menga yaqinlasha ko‘rma! Barchangizga la’nat bo‘lsin! Alloh jazongizni bersin! Nega, nima uchun?! Barchangizdan jirkamanan. Boshim, ey Allohim, boshim... Ko‘nglim... Ko‘nglim ayniyapti... Menga bunday qarama, qarama! Hammom qayerda?”

Mana, boshladik. Shularni kutganimidi? Ha... Shu qadar bo‘lishini kutganimidengiz? Bunday o‘ylamayman.... Umidlarim bilan sizga yorqin manzara chizib bergen edim. Eng kamida shunga yaqin harakatlarni kutgan bo‘lsangiz-da, nazarimda, ancha qattiq kirish bo‘ldi. Ha-ya, sizga nima bo‘lyapti? Ishonavering, agar nimadandir hayron qolayotgan bo‘lsam, u ham so‘kinmagani uchun... Yo‘q, hozirgina so‘zlaganlari hali haqorat hisoblanmaydi... Necha soatlardan beri ichingizda menga qarata bundan-da battarini aytgan bo‘lishingiz mumkin. Ammo nega asabim tund bo‘lishining sababini endi biroz bo‘lsa-da tushungandirsiz. Zotan? ta’bir joiz bo‘lsa, igna ustida o‘tirganday edim. Axir, o‘ylab ko‘ring-a: notanish bir kimsa uyimda uyqudan uyg‘onishi hamonoq o‘zini derazadan tashlaganida nima qildim? Qolaversa, sizga har doim aniq bir manzarani chizib bermadim. Shubhasiz, siz menga nisbatan o‘ta mulohazakor bo‘lishingiz kerak edi... Shubhasiz... Endi biroz bo‘lsa-da uyal-

yapsizmi? Yo‘q, qayerda? Eski hammom, eski tos. Dunyo manfaatlar dunyosi va kitobning o‘ng tomonidagi sahifalar kamay-gani sari ichingizda sekinlik bilan bir halovat paydo bo‘lmoqda. “Tugay dedi-ya bu la’nati narsa...”

Odamlarni azobga qo‘ydim! Yaxshi! Endi o‘zim ham suku-natga cho‘maman. Mana shu soatdan so‘ng bir satr ham yozmas-man... Kitob shu yerda tugaydi. Nima qilishingizni bilarmisiz? Hujjatlari film tomosha qiling. Arslonlarning muhabbatini, may-munlarning shoxdan shoxga sakrashini kuzating.

Hazil, hazil... To‘lagan pulingizning haqini qaytarishni xoh-layman. Hammomga qanday olib borganimni aytib beraymi? Aslida hammomning keragi ham qolmadi. Axir, yo‘lakning uzunligini bilasiz-ku... Qo‘lidan tutgunimcha ikki qadamlik ma-sofada ustimga-yu, yon atrofga qayt qildi-ko‘ydi. Yo‘q, albatta, jahlim chiqmadi, demoqchimanki, sochlari...

“Jinnimisan? Ayol ustingga qayt qilsa-yu, sen haliyam sochlidan gapirib o‘tirbsan”. Shunday deyapsiz-a, to‘g‘rimi? E, biroz jinniligim bor. Yaxshisi, aralashmay turing-da, boshdan kechirayotgan men bo‘lganim uchun bo‘lib o‘tganlarni o‘zim ayta qolay. Bunda nima muammo bor? Insonlik holati... Malagim hatto o‘midan turishga ham qiyalar edi. Zotan so‘nggi kuchini menga baqirganida sarflab bo‘lgan edi. Nima qilsin edi boyaqish? O‘zini tutolmadi va ichidagilarni to‘kib soldi. Ehtimolki, hammomga kirganida og‘zida faqatgina qo‘lansa bir hid qolgandir. Yarim soat o‘tdi hamki ichkaridan chiqmadi.

Tashqarida qayt qilib bo‘lgan bo‘lsa, shuncha vaqtidan beri ichkarida nima qilardi? Avvaliga oynaga qaraydi, o‘zidan nafratlanadi. So‘ngra yerga cho‘kkalab o‘tirgancha devorga suyanib yig‘lay boshlaydi. Ko‘zlarida yoshlari qurib bitganidan so‘ng o‘rnidan turib yana oynaga qaraydi. Bu gal oynadagi odamdan g‘a-

zablanmaydi, bilganingizdek la'nat o'qishga tushadi. Keyin yuzini yuvib tashqariga chiqadi. Ko'p o'tmay ayni shunday bo'ladi...

Shubhasizki, bularning barini taxmin qilyapman, ammo yanglishmayotganimni-da yaxshi bilib turibman. Ko'pchiligidan yo ko'rpani ustimidizga tortgancha yig'laymiz, yo hammomga borib... Bular yig'lab olish uchun qulay joylar-da. Hech kim ko'rmaydi, hech kim eshitmaydi... Burningizdan suv oqsa, qo'lingizning orqasi bilan artasiz. Yoki tungi kiyimingizning yengini ro'molcha o'mida ishlatasiz. Ha-ya! Pokiza insonlar, sizlar sira shunday qilmaganmisizlar? Ishoning: ayni damda siz bilan ovora bo'lib o'tiradigan ahvoldarmasman. Yo'qsa, bu mavzuda ham yaxshigina po'stagingizni qoqardim. U yonginamda, birozdan so'ng chiqadi, va men, baribir, undan uzoqda turmayman. Biz bosh aylanishi deya nomlagan bu narsa tezda o'tib ketmaydi. Yiqilib, biror joyi lat yeishini istamayman. Eshik ovozini eshitishim bilanoq darhol yoniga borib, bor mehrim bilan yana quchog'iga kiraman. To'xtang! Boyagidek...

— Ahvoling qanday? Biroz bo'lsa ham yaxshimisan?

— Seningcha, yaxshiga o'xshaymanmi? Nima deyishimni kutyapsan? Kimsan, bu yerga qanday kelib qoldim?

— To'xta, biroz tinchlan. Zalga o'taylik, o'sha yerda aytib beraman... Qolaversa, men ismingni **ham** bilmayman. Bilgan yagona narsam shuki, yordamga **muhtoj** eding va men senga yordam berdim.

— Sumkam qayerda? Nega **menga** yordam berding?

— Sabr qil dedim-ku... Qani, kel... Uyg'onanganingda sumkangni o'ylab ham o'tirmay ketadiganga o'xshab turganding. Meni hozirdanoq noto'g'ri tushunishni boshladning.

— Men haqimda nima bilasan o'zi? Ayplashimga nega bun-

chalik hayron bo‘lding?

— Sen haqingda hech narsani bilmayman. Shunchaki tax-minlar qildim, xolos. Gapimga quloq solasanmi? Biroz tinch-lan... Hammasini aytib beraman...

— Yaxshi... Qanaqa odamligingni bilish unchalik qiyin emas. Hatto kiyimlarim hali ham egnimda. Zal qaysi tomonda?

Jin ursin! “Qanaqa odamligingni bilish unchalik qiyin emas”, — deganda nimani nazarda tutdi? Savollar... Savollar... U men-ga savol bergach, siz ham bir qator javoblarni oldingiz, shundaymi? Unga teginganim yo‘q, albatta. Siz shunchaki bir quruq jasad bilan sevisharmidingiz? Qolaversa, o‘zingiz: “*Omonatim*”, — deya atagan bir jasad bilan? Vaholonki, badgumon bo‘lmasingiz lozimligini qayta-qayta ta‘kidladim. Balki, hozir ba‘zi o‘rinlarda yanglishganim uchun quvonayotgandirsiz. Masalan, uyg‘onar-uyg‘onmas eshikni izlamadi... Ha, ahvoli shunday yomon ediki, bir ko‘rishingiz kerak edi. Uning shunday yomon ah-voldaligida ham sochlaringin go‘zalligidan so‘z ochar ekanman, ichingizda menga qarata: “Suf”, — dedingiz ham. Har qanday ahvolda ham juda go‘zal ayol u... Yuzidagi ifodani bir ko‘rsangiz edi, qanday ayolni yoqtirib qolganimni yaxshiroq tushunar-dingiz. Gapirishni boshlaganimda xushlamaygina qo‘limdan ushladi va zalga borguncha bularni sizga aytib ulgurdim. Hayron bo‘lmang: inson miyasi shu darajada tez ishlaydi. Yo‘qsa, bu yo‘lak menga shuncha narsani boshdan kechirishimga qisqalik qilardi.

— Boshim qattiq og‘riyapti...

— Dori beraman, lekin avval nimadir yeb olishing kerak. Oshqozoning dorini ko‘taradigan ahvolda emasdир.

— Bilag‘onlik qilaverma! Yaxshilik farishtasi bo‘lding-qolding boshimda... Men boshim desam, sen ovqatdan gapir-

yapsan.

— Yo‘q, farishta sensan... Har holda, shunday deb aytaman.

— Qanday qilib? Men nega farishta bo‘lay? Ahvolimga qarasang-chi, sen g‘irt sarxush farishtani sira ko‘rganmisan? Qolaversa meni kimga farishta deb aytding, uyda yana kimdir bormi? Bu qanaqa o‘yin bo‘ldi?!

— To‘xta, biroz sabr qil. Necha bor: “Tinchlan”, — deya aytyapman, to‘g‘rimi? O‘rningda kim bo‘lmasin, ayni shu savol-larni berar va xavotirga tushar edi. Kel, o‘tir, bir necha luqma yesang ham, kifoya qilar... Hech bo‘limganda, dori ichish uchun...

— Xo‘p!

To‘rt kishilik stolning bir tomoniga u o‘tirdi, boshqa tomoniga men. Aslida uyimda yeishga unaqa ko‘p narsa ham topilmasdi. Ovqat deganim bir pishloq, yaroqlilik muddati o‘tgan apelsin sharbat, ozgina qotgan non edi, xolos. Nonni-ku yemasa kerak deb o‘yayman, ammo sharbat borasida xavotirdaman. Albatta, bir grafin suvni ham unutmadi...

— Qulog‘im senda...

— Qayerdan boshlashim haqida xavotirim yo‘q. Chunki bu ma’lum bo‘lgan bir narsa... Kafeda yolg‘iz o‘tirgan eding. Bir muddat seni kuzatib turdim. Nega kuzatganimni ham aytib keta-yin. O‘scha yerga men ham tez-tez borib turaman. Seni oldin umuman ko‘rmaganim uchun hayron qolmadim, desam yolg‘on bo‘ladi. Har holda... Sen o‘tirgan o‘rindiqda, odatda, men o‘tirardim. Albatta, hech kim o‘tirmagan bo‘lsa... Meni noto‘g‘ri tushunma, bo‘limg‘ur raqslar bir shug‘ullanmayman. To‘xta, darhol yuzingni burishtirmsang-chi... Burishtirma, baribir, kul-maysan, zotan, kuladigan holing ham yo‘q, bilaman. Shunchaki o‘zingni qulayroq his qilishingni istayman, xolos. Mana shun-

day... O'sha yerda yolg'iz holda ichib o'tirar ekansan, ko'rdimki, boshingga tashvish tushganday edi. Buni anglab yetish uchun faylasuf bo'lishning keragi yo'q... Ayniqsa o'xhash narsalarni boshdan kechirgan bo'lsak... Ya'ni bir muammoning ichida ekanligingni tushunish qiyin bo'lindi... Kutdim va yordam berishni istadim.

— Endi shoshmay tur. Aytganlaringni hazm qilib olay. Mayli.. Sen ham o'sha yerda eding va tasodifan meni ko'rib qolding, deylik. O'rindiq tufayli e'tiboringni tortdimmi shunda? Meni u yerda ilgari ko'rmagansan, chunki birinchi marta borishim edi. Shaharga ko'chib kelganimga endi ikki kungina bo'ldi. Qayerdan kelganimga qiziqma... Hamma joy bir go'r... Bir yerdan ketish yangi joyga borishingni anglatmaydi. Ba'zan ulkan shaharni yoningda olib yurasan... Ba'zan umrini o'tab bo'lgan qalb oldingda turar... To'xtaydi va sen halok bo'larsan. Shuni tu-shunganim uchun biroz ichishni istadim. "Unutmoq uchun foydali bo'lar", — deb o'yladim. Ayni bir xil voqeliklarni boshdan kechirganmiz degan gapni qayerdan olding? Insonlar haqida badgumon bo'lmaslik kerak... Qara-ya, o'zing hatto ismini ham bilmaydigan bir ayolni uyingga olib kelibsani. G'irt jinnilik deb hisoblayman...

Kulyapsiz-a tushgan ahvolimga qarab, shundaymi? Barchasidan xabardor o'zim, sizlarga badgumon bo'lmanq degan ham o'zim, endi esa shu so'zlarga nishonman. Nima ham qila olarding, hayot shunday... Nima deyishardi? "Jinni jinnini uchratishi hamonoq kimdir kaltagini bekitib qo'yadi". Bu ish o'ylaganimdan-da qattiq va qiyinroq bo'lar ekan... Inson o'z aksi bilan qanday kurasha olardi? Qolaversa, qiziqishim ham ortdi. Ajabo, qanday o'tmishi bor ekan? Menga yana qanday kutilmagan tuhfasini bor ekan? *Uni yanada yaxshiroq tushunishim va u haqida*

ko‘proq narsa bilib olishim kerak. Yo‘qsa, tamomila bir qop...

— Sen haqingda badgumonlik qilganim yo‘q. Nafaqat sen, hech bir inson haqida bilmay turib xulosa chiqarmayman (Bo‘ldi, sizlar aralashmanglar... Ba’zida sizlar haqingizda bilib-bilmay xulosa qildim, bilaman). Qaysi shahardan kelganing ham men uchun ahamiyatsiz. Ismingni bilmayman, nima ish qilishingni bilmayman. Bir qancha taxminlarim bor edi, ammo ko‘pida adashganga o‘xshayman. Nima deb o‘ylaganimni bilishni xohlaysanmi?

— Nima deb o‘ylading? Yengiltabiat bir ayol bo‘lgan debmi?

— Yo‘q, albatta... O‘sha ahvolingni ko‘rgach...

— Ahvolimga nima qilibdi?

— Hech narsa qilgani yo‘q. G‘amga botganing ko‘rinib turardi. Tark etilgan deb o‘yladim.

— Xa-xa-xa... Tark etilgan? Buni qayerdan topding?

— Shu qadar abgor ko‘ringaningdan shunaqa bo‘lsa kerak deb o‘yladim.

— Nima, hayotda eng muhim narsa shumi? Tark etilganlik... Boshqa muammolarim bo‘lishi mumkin emasmi? Kimnidir rostakamiga yo‘qotgan bo‘lishim mumkin emasmi? O‘lim singari haqiqat bo‘la oladigan boshqa yana nima bor bu hayotda?

— Haqsan... Hamma narsa bo‘lishi mumkin, lekin men shunday deb o‘yladim. Xo‘s, nimada yanglishgandim? Qara, kulyapsan, nimasi kulgili?

— Kulaman-da, nima bo‘libdi? Kulmasligim kerakmi?

(*Butunlay boshimga balo bo‘ldi-ku!*)

— Nega jim bo‘lib qolding? Senga gapiryapman, kulmayinmi? Sal avval kulishimni istayotganding? Yoki qahqahalarim yuzingni achitdimi? Yoki sen hech ham kulmaysanmi?

— Kam kulaman.

— Juda ham sezilib turibdi... Hattoki kulishga chog‘lanishing bilan peshonangdan ter chiqib ketdi... Meni yaxshilab eshit... Har bir ko‘rgan odamingga ishonib ketaverma. Men farishta emasman va farishta bo‘lishga urinmayman ham. Xudo biladi, sen menga ichingda *Farishtam* ham degandirsan. Xa-xa-xa... Hoy! Bunday ertakmonand fikrlama... Qolaversa, o‘zing tanimagan ayolga ega chiqadigan darajada ahmoq bo‘lma. Ayolga qo‘l uzatmoq va uni o‘ziniki qilib olish juda oson. Sarxush paytimda buni osongina bajarishing ham mumkin edi... Ammo negaligini bilmadim-u, bunday qilmabsan. Sen g‘irt telba bo‘lsang kerak... Nima deysan? Xo‘s, endi menga qo‘lingni teggizmoqni istaysanmi? Xa-xa-xa... Nega yuzing bunchalar qizarib ketdi-ya... “Farishta” deganing, qara, shayton bo‘lib chiqdi! Senga o‘xshaydiganlarning ko‘pini ko‘rdim... Umrим bo‘yi juda ko‘p erkaklarni tanidim. Erkak deganda shaxsiyatlarini nazarda tutmayapman. Sen kimsan? Sening qolganlardan nima farqing bor? Menga ayt-chi, men ham nima bo‘lganini aytaman.

Xo‘s, xarob bo‘lishim kerakmi? Ayni paytda qayerdan boshlasam ekan-a? Erkakligingni ayol zotiga qanday isbotlash mumkin? Erkak o‘laroq qo‘lidan ushlagancha uyimga olib keldim va u haqida faqat yaxshi narsalarni o‘yladim. Aniqrog‘i, ko‘pincha yaxshi narsalarni o‘yladim. Bilib turibman, orada uning iliq tafti haqida gapirganimni hisobga olmasak... Shu yer dan boshlasammikan? Ochig‘i, uslubimni o‘zgartiraymi? O‘ylashimcha, betayinroq odamlarni yoqtiradiganga o‘xshaydi. Aslo, birovlar uchun o‘z shaxsiyatimni o‘zgartirolmayman. Angladitingiz-a, shundaymi? Ayni lahzalarda o‘z ichki ovozim bilan gaplashib turibman. Ha, barnaylixotir o‘tiravering.... Har holda... Jiddiy aytadigan bo‘lsam, sizdan ham, undan ham xafa

bo'ldim. Ahmoqman-da!

— Biroz noto'g'ri fikrlarga bordim, shekilli. Ha, haqsan... Farishta deya o'ylaganim-u, shayton bo'lib chiqqaning haqida emas, albatta. Ko'p narsani ko'rgan bo'lishing mumkinligini, hech bo'limganda, yoshgina qizaloq emasligingni hisobga olishim kerak edi. Menga o'xshash nechta erkak ko'rding yoki men aslida erkakmanmi — xullas, bu borada hech bir so'zim yo'q. Senga qo'l uzatmoqmi? Albatta, xohlayman. Ammo ayni damda mana shu holingda emas. Shuni bilki, o'lik jasadlarni sevmayman. O'lish nima yoki nima emasligi bahsli masala. Ammo men o'lmaslikni yaxshi bilaman. Tomiringni kesmoq yoki bir zahar ichish bilan o'lim sodir bo'lavermaydi. Senga gapiryapman! Har kun, ha, har kuni hech o'limgan payting bo'ldimi? Boshqacha erkakligimga kelsak, bilki, hech kimdan ajralib turadigan jihatim yo'q. Biroz sofligim haqiqat. Soflik haqida aytar ekanman, ammo gunohlarimdan tozalanmadim. Nima gunoh-u nima savob ekanligiga ham men qaror chiqarmayman, bu alohida bir mavzu...

— Voy, voy, voy! Qarshimda imoni butun, ammo aqli kalta erkak o'tiribdi, shekilli. Chindan telbamisan? O'la olmaslik neli-gini men ham yaxshi bilaman. Negaki bu yerlarga ortimda o'lol-mayotgan bir insonni tashlagan holimda keldim. Ko'rib turganingdek, men tark etilgan emas, aksincha tark etganlardanman. Seningcha yuzimda ko'rayotganlaring sitamlarmi? Yoki nadomatmi? Nima demoqchiligidagi quloq sol... Nima, o'z qo'l-laringdan ayrilganmisan? Qolaversa, ayni shu lahzalarda, haqiqatan ham, meni xohlamayapsanmi? Ahvolimga nima bo'libdi... Hayotda hamma narsani ham mukammal darajada boshingdan kechiravermaysan, o'lik seuvuchchi... Ha! sen ham o'liklar seuvuchisan. Aksa holda, menga nima uchun bunchalar g'amxo'rlik

qilding? Sen o'lib bo'lgan bir kimsani olib kelganingni bilmas-miding? Bilarding. Xo'sh, bag'ringda menga hayot baxsh etishni o'ylaganmiding? Sening qo'llaringda o'lganmidim? Shu daqiqaydoq uyingdan chiqib ketsam, to'sqinlik qila olasanmi?

— Nega to'sqinlik qilishim kerak? Ketishni istasang, ketaver... Qo'lingdan ushlab turibmanmi? O'rnigdan turib sum-kangni ol, men esa qulflagan eshigimni ocharman, so'ng ortingga qaramay ketaver. Har holda, bu sen uchun notanish vaziyat emas... Nohaqmanmi? Ketarsan, lekin shu bilan birga ketol-maysan ham...

— To'g'ri... Bu menga sira ham begona bo'lмаган vaziyat... Qolaversa, umring oz qolganini bilsam va azob cheki-shingni o'laydigan bo'lsam, o'zgacha bir zavq bilan ketardim... Aytganingdek qilaman. Ammo ahvolingga bir qarasang-chi! Azobu-uqubatdan ta'sirlanadigan holing ham qolmabdi-ku. O'lomagan bir insonni mangulik sari qaygacha sudray olardim?

Barchasi yana yomonlashib bormoqda. Nimani ham kutar-dingiz? Menden ham battar jinni ekanligi sizni hayron qoldir-dimi? Ammo sizga har qanday vaziyatga tayyor ekanligimni aytgandim. To'g'ri... Kutganimdan kamrog'ini topdim, ammo vayronalar masalasida butunlay yanglishmadim. Ko'rdingizmi? Tark etmoqlik haqida maqtangancha so'zlagan gaplarida ham o'zi sezmagan narsalar bor. Ortda qoldirib kelgan insoni qan-chalar o'lolmayotgan bo'lsa, o'zining ahvoli esa undan-da, ab-gor... Bilasizmi? Mana shu holat ko'nglimni xushnud qildi. Sal avval aqldan ozishimga oz qolgandi. Tark etganlar qanchalik kuchli ko'rinishmasin (istashsa, bu gapimga qo'shilmasinlar, mayli), baribir, ularning ahvoli ham tark etilganlarnikidan yaxshi bo'lavermas ekan. Albatta, barchada ham bunday bo'lmasligi mumkindir. Ammo, aytинг-chi, sizning ham ko'nglingiz biroz

bo‘lsa-da muzdekkina bo‘lmadimi? Axir, shunday imkoniyatning borligidan xabar topmoq sizga ham yoqib tushmadimi?

Qo‘ysangizlar-chi! O‘rtaga bir tuzoq tashlasam, barchangiz darhol shunga ilindingiz-qoldingiz. Shu qadar azob chekkandan so‘ng tark etganlarning holi yomon bo‘ldi nima-yu, yaxshi bo‘ldi nima? Ahmoq, modomiki, shunday ekan, unda ketishdan ne naf? Ishonchim komil, chindan ham, istisno holatlar bordir. Ha, ularning barchasi bir xil bo‘lishi mumkin emas. Kechirmayman! Azizam, mabodo seni hozir o‘ldirmayotgan bo‘lsam, bilki, bu qalbimda takror tirilmasliging uchundir... Vaholonki, jabr-u sitamlarim shu qadar cheksiz... To‘rt buyuk farishta yoningda turib, Karbalo fojiasi yana ming marta takrорlansa ham, qasam ichaman, va yana qasam ichaman! Qalbim bir soniyaga bo‘lsa ham, kechirmaydi.

— Nima bo‘ldi? Bu sukunating nimasi? — deya so‘rab qoldi Qoramag‘izim. — Ba’zan yoningda kimlardir bormi degan o‘ylovda qolyapman. Go‘yoki o‘z-o‘zing bilan gaplashayotgandeksan. Senga aytganlarimni sen ham kimlargadir so‘zlab berayotgandeksan. Ikkimizdan birimiz telbamiz. Yoki ikkalamiz ham. Ehtimolki, sening orzu qilganingdirman. Xayolingda chizgan surat... Qoshlari, ko‘zlari mana bunday bo‘lsin, sochlari esa bunday bo‘lsin... Qomati risoladagidek... Hayf senga! Tag‘in baxtning suratini beo‘xshov chizibsan. Erkak degani o‘z orzularini bezab turgan ayloga qanday qilib qo‘l uzatmasligi mumkin? Sira ko‘nglingdan o‘tmadimi? Dudoqlarimdan o‘pmoq xayolingga kelmadimi? Voy bechora! Yoki peshonamdan o‘pingmi? Agar shunday bo‘lsa, sen g‘irt romantik yigit ekansan!

O‘yashimcha, oxirgi kulgan yaxshu kuladi mavzusini qaytadan ko‘rib chiqish vaqtি keldi. Yoki sizlarning qarg‘ishingiz ostida qoldimmi? Jin ursin, yoki o‘sha avtobusdagi bolani ranjit-

dimmi? Axir, o‘zimga bo‘lgan ishonchim yuqori edi. Menga sira aql kirmadi, kirmadi-da. La’nat bo‘lsin! Hech kimga ishonib bo‘lmaydi. Ha, sizlar ham jim turinglar! Sizga kerak bo‘lma-guncha ichki ovozingiz ham yo‘q edi. Endi esa sukut qilgancha sharmanda bo‘lishimni kuzatib o‘tiribsiz.

Go‘yoki so‘zlar ham mendan qochayotganday... Keting, sizlar ham keting. Baribir jahlidan tusholmaydi, birozdan keyin u ham ketadi. Shunday emasmi? Keta qolsa-chi endi... Nega hali-yam o‘tiribdi... Yo‘q, do‘stim! Bu ayol oshxonada taom tayyorlar chog‘da sochlarni yig‘ib olmaydi. Baribir, o‘zim ham salatni sevmayman.

Voy, nimalar deyapman? Chindan ham, o‘z-o‘zim bilan janjallashib o‘tiribman... Yo‘q, qanaqa shayton? Barchasi xayolimda yuz bermoqda. Ammo uyimga fayz olib kirishi kerak edi... O‘rgimchak to‘rlari yo‘qolishi kerak edi... Sukunatimga ovoz bo‘lardi... Bunisi nima bo‘ldi?

— Nima deyishga ham hayronman, — deya sekin gap boshladim. — Ha, hayron qoldim... Ha, peshonangdan o‘pib, sochlaringni hidladim. Menikiga kelganingda qayerlardadir o‘limni kutgan, ammo so‘nggi qadamni qo‘yishdan qo‘rqan ikki o‘liklar edik.. Har holda, shunday deb o‘yladim. Sen bilan butun bir umrni o‘tkazish ham mumkin, bir kunda o‘lish ham mumkin... Gaplarim to‘g‘rimi?

— Nima? Men huzuringga qachon keldim? Ahmoqlik bu! Xo‘sish, sochlarmi hidladimgmi? Sen chindan ham telbasan. Endi kulishni ham, yig‘lashni ham bila olmayapman. Uch kundirki, sochlarmi yuvGANIM yo‘q... Qo‘lansa hid tarata-yotganini o‘zim ham sezib turibman. Shu qadar yolg‘izmisan? So‘nggi bor qachon biror-bir ayolga qo‘l uzatding? Buni qo‘y, qachon suhbatlashding? Eslolmayapsanmi? Meni bu yerga

keltirib, shu o‘yinni o‘zing boshlading. Har holda qay ahvol-daligimni o‘zingcha tasavvur qilding. Ehtimol, mening his-tuy-g‘ularim haqida o‘ylab ham o‘tirmay butun umring davomida qilgan xatongni yana takrorlading... Inson o‘z qo‘lida bo‘lgan narsalarning qadrini bilishi kerak... Yechimlar izlashi kerak. O‘z-o‘zing bilan qol, men esa ketaman.

Bu qanday g‘alati vaziyat bo‘ldi? Men bilan shunday gap-lashdiki, go‘yoki boshdan kechirganlarim, xatti-harakatlarim, men oqibatini o‘ylagan barcha narsani yolg‘onga chiqardi. Hattoki o‘zimdan ham bekitib yurgan xatolarimni yuzimga soldi. Chorasizlik haqida ko‘p soz ochdim. Kim yanada chorasiszroq? Aksariyat hollarda ayollarni tushunishga uringanim, ammo tu-shunolmaganimga ishora qilgan edim. Nazdimda, o‘zim uchun ahamiyatli va eng yaxshi tanqid shu edi. Anglay olmadim... Albatta, sizlar ham ba‘zan kimlarnidir tushunishda qiynalgan bo‘lsangiz kerak.

Chindan ham, oxirini yaxshilik bilan tugatishni istardim. Garchi amalga oshirish qiyin bo‘lsa-da, ammo yangi hayot bosh-lash mumkinligini aytmoqchi edim. Ammo aytolmadim... Nega? Telbaligim tufayli... Ayni damda sizlarga “Yangi munosabat boshlash uchun o‘zimni bunga tayyor his qilmayapman”, — desam, o‘z-o‘zidan: “Nega bunchalik ko‘p narsalarni boshdan kechirding va bizni ham shunga majbur qilding?” — deysizlar. Ochig‘i, yomon bo‘ldimi? Bo‘lib o‘tgan barcha hodisalaridan o‘zingiz uchun foydali xulosa chiqara olmadingizmi? Hech bo‘lmasa shuni yodda tutingki, kimningdir hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lmasangiz, uning hayotida qololmaysiz. Albatta, majburiy ayriliqlar haqida gapirmayapman. Ammo sizga muhtoj-dek munosabatda bo‘lgan: “Sen — mening bir bo‘lagimsan”, — degan insonga ishonch hosil qilmaguningizcha unga bor nar-

sangizni bag‘ishlamang. “Mening yashashimcha sababchi sensan”, — deganlar kun kelib hayotingizga nuqta qo‘yishi mumkinligini ham aslo unutmang. Boya aytganidem, “Sen mening bir bo‘lagimsan”, — deya so‘zlayotgan bo‘lsa, qaysi bir bo‘lagi ekaningizni so‘rab oling. Tag‘in bo‘lmaq‘ur bir bo‘lagi deb bilmasin sizni.

“Qalbim, — desin, — qalbim...”

Xo‘sh, sizningcha, men aslida kimman? So‘ngi sahifalar... Hikoyamiz tugadimi? Haliyam orqaga suyangancha o‘tiribsiz deb umid qilaman... Negaki sizga aqlilik qilishda davom etmoqchiman. Shu nihoyasi yo‘q fikrlarim bilan barchangizga ziyo ulasha olaman. Ko‘ngil qo‘ygan ayolimga xat yozib, *unga* jo‘nata olishim mumkin. Lekin ishning so‘ngiga kelganimda *undan* ham voz kechaman. Yo‘q! “Men ketaman, sen esa biroz qol”, — demayman. Men aslo ketmayman... O‘z joyimni sevdim, sizlarni sevdim, shuningdek, men kabilar kam emasligini juda yaxshi bilaman.

Zotan ketgani bilan tugamaydi va qolganida ham, baribir, davom etmaydi. Nimani yo‘qotganimizni anglagunimizga qadar ko‘p bora buzilamiz. Eng yuqorida yiqilmoq shunday bir holki, yiqilganimizning farqiga bormay tushgan joyimizga takror-takror qarayveramiz. Imkon bo‘lsa, yana o‘sha yerga chiqardik, shunday emasmi? Ha, sevmoq juda yoqimli... Bu uni ham, meni ham o‘zgacha bir holga keltirdi. “Bilmagan odam bilan bilgan odam hech bir xil bo‘larmi?” — degan bir gap bor-ku. Xo‘sh, sira sevmagan inson bilan sevgan kishi ham bir xil bo‘larmi? Bar-chaga ham sevish va sevilish nasib etavermaydi. Nima bo‘lishidan qat’i nazar *unga* doimo shunday deyman: “Seni sevmoq Yaratganning menga bergen imtiyozidir, imtihoni emas...”

“So‘nggi bor ko‘rishaylik”, — deya uni shunchaki chaqir-

gandim.

“Bizdan boshqa hech kim bo‘lmaydigan biror joy yo‘q va bizga abadiy davom etadigan umr ham berilmagan. Ertani qo‘ygin, hatto bir lahza keyingi fursat haqida bosh qotirishning o‘zi ham xato... Vaqti kelib, ikkимiz ham keksayamiz. Sochlaringni bo‘yassing ham, o‘zimga yaxshi qarashim ham hech narsani o‘zgartirmaydi. Bizga berilgan barcha narsani asta-sekin yo‘qtib boramiz. Ko‘zlarining tagida ajinlar paydo bo‘ladi, xuddi menikidek... Ishon: o‘tmishimizga nazar solganimizda ko‘p narsani xotirlay olmaymiz... “Kunlar bu qadar qanday tez o‘tib ketdi-ya”, — degancha baxtli tabassum bilan faryod chekamiz, xolos. Yonimda qol... Yoningda bo‘lay... Xohlasang, nafratlanamiz, xohlasang kulishamiz. Boshqalar kabi bo‘lishga majbur emasmiz. Sochlaringning oqarishiga, yoki men hozirda biror kamchiligi yo‘q deb hisoblagan bo‘yningni ajinlar bosishiga e’tibor bermasligimni bilasan. Ko‘zlaringga oro bermasang-da, nigohlaringni xuddi yangi tug‘ilgan chaqaloq misoli yaxshi ko‘raman, buni ham bilasan. Ko‘zlarining rangiga emas, balki nigohlaringdagи beg‘uborlikka asir tushdim. Qolaversa, qaddimiz biroz bukilar bo‘lsa, men yerga, sen esa menga suyanasan.

Men bilan qol, yonimda bo‘l... Sen men bilan bo‘lsang, bu dunyogaadolat va tenglikni o‘rnata olamiz. Barchasi ikkимizga qarshi bo‘ladi. Tushunyapsanmi? Bugunning ertasi yo‘q, kechani esa allaqachon qo‘ldan boy berdik. Vazifam hech kimga ahamiyat bermay seni sevmoq... O‘zing aytganingdek, birinchi hayot bilan ikkinchisining orasida boshqa bir hayot yo‘q... Zarur bo‘lsa, seni uyaltiradigan darajada. Istagim shu: o‘lib, so‘ng qayta tirliganimda menden faqatgina sen haqingda savol-javob qilinsin”.

Ammo har gal takrorlaganimdek, bular ayriliq orqasidan aytilgan vaqtida hech ishga yaramas, yaramaydi ham... Vaholonki, o'xhash qo'shiqlarni sevish qanchalar yaxshi. Yo'q, darrov "Bunda nima bor", — deya ko'rmang. Barcha odamlar ham bir xil qo'shiqlarni sevolmaydi. Biz qo'shiq deya nomlalyotgan narsalar oldindan rejalashtirilgan suiqasd usullaridir. Shuni yaxshi bilib olaylikki, kimlardir biror narsa yozishga zarurat sezayotgan bo'lsa, chindan ham, orom olishni emas, balki dardlarini bayon etmoqlikni istayotgan bo'ladi. Dardlarini bayon etmoq esa unutmaslikdir, unutishni istamaslikdir. Mehr taftini sog'inishdir. Kech qolmoq, sog'inch, mehrdir. Bu shundayki, ovozingdagi shafqatga ehtiyoj sezmoqlikdir.

XVIII

OXIRI VA BOSHI

Hamma aslida shunday o‘ylaydi, ammo ko‘pchilik aytolmaydi. Misol uchun, hamma narsa daf bo‘lsin, jahannamga ketsin, hatto yaxshi niyatlarigiz ham... Nima uchun deyapsizmi? Hech kimdan maslahat so‘ramayapman-ku. Birov birovdan biror narsa istamas. Zotan, istaganimiz esa nazar ham tashlamas. Bunday holatda istasangiz, yo‘lning bir tomonida hatto yurishga yetarli darajada joy qoldirmang, biroq mendan uzoqroq turing... Bu juda ahmoqona, lekin xuddi shunga o‘xshashi boshimdan ham o‘tdi. To‘g‘rirog‘i, boshimdan o‘tmoqda.

Ayni shu o‘rinda savol bir xayolimga keladi: Nima yuz berapti? To‘g‘rirog‘i, boshingdan nimalar o‘tib bormoqda... Ha, biroz tinchlanish. Voqelik juda aniq: barchaning hayoti turlichadir. Bir xil yashagan, bir xil shart-sharoitlarda yashagan birontasi bormi o‘zi? Sening chala-chulpa tajribalaring bir insonning tomog‘ida tiqilib qolgan sukunatini aytib bera oladimi? Aniqrog‘i, er-u xotinlarga dori bera olasanmi? Yalpiz va limonni nima qila olardik? Ha, keta qoling. Aytmoqchimanki, erkakning yoki bir ayolning oyoqlari kesilib ko‘ppaklar oldiga uloqtirilganidek... Tegingan har parchasi qonamoqda, sen esa hali ham nimalarni boshingdan kechirmoqdasan? Biror marta fikrimni o‘zgartira o‘zgartira oldingmi?

Kimnidir qattiq sevganingizda qolganlardan nafratlan-ganiningiz uchun barcha odamlarning nafratiga duchor bo‘lasiz. Meni sevib qolmang, do‘sstlar. Aksincha, istasangiz. Hatto nafrat-laning. Ammo sizlarga so‘zlab bergan muhabbatni sevinglar... Muhabbatim haqiqiy edi. Ishoning, telbalarcha chin sevgi edi. Qolaversa, barchamizning oz bo‘lsa-da telbalik jihatimiz yo‘q-mi? Oxirigacha birga keldik, oxirigacha o‘qidingiz. Va o’sha Qoramag‘iz ayol! Qoramag‘iz der ekanman, birinchi harfini katta qilib yozganim... Haqiqat edi... “Ishoning, — deyman. — u juda go‘zal edi”.

Menga ishoning.

“

*“Sevishni bilsa kerak bu odam”, — degan
insoningiz boshqa bir ayolni o‘ldirib kelgandir.*

XIX

ORZULAR ILA CHEKLANGAN OLAM

Bilarsan, tark etmoqlik oson. Qolaversa, sen shunday osonlik bilan ketdingki, meni umuman sariq chaqalik qadrlamasding go‘yo. Axir bir bo‘laging edim-ku? Vujudingga tamomila singib ketishim uchun meni o‘zingdan necha bo‘lakka ajratgan eding? Aytmoqchimanki, ketar ekansan, “Haqiqatan ham, senda umuman qolmayman”, — deb o‘yladingmi?

“Orzular bilan chegaralangan olamda yashang”, — deyishar edi. Senga ham, menga ham, barchaga... Ayniqsa, siz — ayollar, xohlaganingizni seva olishingiz mumkin, ammo u bilan birga bo‘lolmaysiz. Hujjatingizdagi ismingiz kim bo‘lishidan qat‘i nazar, adovat vaqtidagi ismingiz haqorat bo‘lib qoladi.

“Ko‘rman, karman, soqovman”, — deyish bilan qochib qutilib bo‘lmaydi, azizam! Sevar ekansan, ko‘zlarining ochiq, o‘payotganingga esa yumuq bo‘lishi kerak... Ayt-chi, bir vujudni his qilish uchun nurga ehtiyoj sezilarmi? Qalb deb nomlanmish makonga bostirgancha tasodifan kiriladi. Eshikning ochiq-yopiqligiga qarab o‘tirilmaydi... Men o‘zimni qachon bekitib oldim?

“Vujudimga kirib kelganidan so‘ng!”

Shuni biroz o‘ylab ko‘r: o‘ladigan kunimiz ma’lum emas-midi? Go‘yo bizni Yaratgan zot bilan o‘chakishayotgandek nega o‘limdan o‘limni o‘g‘irlashga harakat qildik? “Biz”ga yetmagan

sen eding, men emas... Gunohlardan pok bo‘lishimiz kerakmi? Yaxshi... Ha, menda bir jarohat qoldirding. Ammo ayni damda qalbing borligiga ishonganimda edi, o‘sha qalbingga buncha satrlar bilan azob berilmas edi... Yoki yana o‘zimdan kechgancha ozor bergan joyimni o‘pib olardim...

Shu vaqtgacha juda ko‘p narsani bilishimni o‘yladim va o‘rgangan sari qanchalik xato o‘ylaganimni tushundim, haqiqatlarni ko‘rgandan keyin esa, ichki “men”imni o‘zimdan ayirishga majbur bo‘ldim. Yo‘q, men bilmasman, ammo o‘rganishga tayyor turadigan bir insonman.

Sen doim qayerlargadir olib keldim... Ammo inson olib kelganini o‘zi bilan olib yurolmaydi. Axir, “Insonning yuki og‘irdir”, — deyishadi-ku. Nima bo‘lishidan qat’i nazar seni umrimning oxiriga qadar ko‘tarib yurolmasdim. Yonimda yurishingni istadim... Ba’zida senga suyanishni ham istadim.

Endi esa bir olovman. Yulduzlardan ham porloq, hatto quyoshdan ham yorqin, katta bir olovman. Meni ushlamoqchi bo‘lgan insonning qo‘lini kuydiraman. Hatto tasavvur ham qilolmaysan. Qo‘limdan tutmoqlikni istagan kimsa ham xuddi men kabi yonishi kerak... Bir tomchi suv hasratida qolgancha... Men tomon kaftida uchqun, badanida kuygan izlar bilan kelishi kerak...

Bularning bari qiyin... Juda ham qiyin. Sen menga qoldirgan “men”im o‘zimga ham yetmayapti. Ha, o‘zing menda qoldirgan “men”im senda qolganidan ancha kam. Xo‘s... Kitobga nega shunday nom qo‘yanimni anglab yetdingmi?

Zotan, so‘ngi satrlarga keldik... Mana, qalamimning uchi ham tugadi.

“Unutganga la ‘natlar bo ‘lsin, azizam!”

E'TIROF

Avvalgi kitobimda ham bo'sh sahifa qoldirgan edim. Va o'shanda u senga yuborilgan xabar edi... Endi esa va'da berganimdek, bu kitobni sabr bilan o'qib, o'zi uchun biror narsa topa olganlar:

“Menga biroz iltifot ko'rsating va buni o'zingizga e'tirof ettiring”.

*MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY OLGAN
KITOBLAR*

HALIS KARABENLI
ISHQNING YASHIRIN QIYOFASI

Tarjimonlar:

Ilhom **SALIMOV**

Alisher **RAVSHANOV**

Bosh muharrir:

Alisher **RAVSHANOV**

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Musahhih:

Lolaxon **QO'ZIBOYEVA**

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Xayy Kitap” nashriyoti bilan “Akadem Telif Haklari ve Tercüme” agentligi vositachiligidagi 2022-yil 18-fevralda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Shuning uchun ushbu kitobni o‘zbek tilida chop etish huquqi faqat “Zukko kitobxon” nashriyotiga tegishli. Boshqa nashriyotlar yoki shaxslarning ushbu kitobni yoki uning bir qismini gazeta va jurnallarda chop etishi, elektron ko‘rinishida tarqatishi, internetga joylashtirishi qat’iyan taqiglanadi.

Agar yuqorigan huquqbazarliklari sodir etilsa, huquqbazar “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi” kodeksning 177-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi, jarima to‘laydi va etkazilgan zararni to‘liq qoplayadi.

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 yilda berilgan.

Bosishga 04.08.2022 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84/108 1/32.

Bosma tobog‘i 10 Shartli bosma tobog‘i 13
Garnitura “Times New Roman” offset qog‘ozsi.

Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma № 38

Bahosi kelishilgan narxda.

“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti buyurtmasi asosida

“BOOK MEDIA PLUS” xususiy korxonasiда тайорланди.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28 A.

Halis Karabentı
ISHQ NING
YASHIRIN QIYOFASI

Halis Karabenlining "Ishqning yashirin qiyofasi" asari biz yuz o'girgan, unutishga harakat qiladigan, hatto o'zimizga ham e'tirof ettira olmagan tuyg'u - ishqning yashirin qiyofasi haqida hikoya qiladi. Barham topgan sevgining ortidan keladigan riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi hayot haqida hikoya qiladi...

"Ilm-Ziyo-Zakovat"
nashriyoti

ISBN 978-9943-8427-3-1



9 789943 842731

